O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

ABDUQAHHOR JALILOV

AN’ANAVIY XONANDALIK

(Kommuna Ismoilova ijrochilik uslubi asosida)

Oliy ta’lim muassasalari uchun
o‘quv qo‘llanma

«Musiqa» nashriyoti
Toshkent
2016

Mas'ul muharrir:

SOIBJON BEGMATOV – san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor

Muharrir:

NURIDDIN AMINJON – O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

Musiqa muharriri:

TEMUR MAHMUDOV – O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, fahriy professor

Taqrizchilar:

RIFATILLA QOSIMOV – O'zDK An'anaviy ijrochilik kafedrasi professori

ILXOM AZIMOV – Toshkent madaniyat kolleji direktori, dotsent

Ushbu o'quv qo'llanma betakror xonanda, umrini o'zbek mumtoz qo'shiqchilik san'ati va musiqa ijrochiligiga baxshida etgan buyuk san'atkor O'zbekiston Xalq artisti Kommuna Ismoilovaning hayoti va ijodiga bag'ishlangan. Shuningdek, musiqashunos olim Soibjon Begmatov va O'zbekiston Xalq artistlari Mehri Bekjonova,Zamira Suyunova, Matluba Dadaboyeva,Maryam Ixtiyorova,Xayrulla Lutfullayev,O'zbekiston Xalq hofizlari Xasan Rajabiy,Ismoiljon va Isroiljon Vahobovlar,O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Abdurahmon Xoltojiyev,Komila Aminova,Ahmadjon Dadayev,Nilufar Saidova,Maqsadxon Yunusova, Sharofat Tojiboyeva,Tojibar Azizova, O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi Temur Mahmudov va bir qancha sevimli shogirdlari ustoz Kommuna Ismoilova haqidagi taassurotlari bayon etilgan.Kommuna Ismoilova ijro etgan ashulalardan namunalar matni, notasi hamda CD diskda yozuvi bilan berilgan.

Qo'llanma O'rta maxsus musiqa sohasi bo'yicha barcha akademik litsey va kollejlarda tahsil olayotgan o'quvchilarning mutaxassislik, ansambl va ijrochilik amaliyoti fanlari uchun mo'ljallangan.

Данное учебное пособие освещаеТ жизнь и ТворчесТво народной арТисТки УзбекисТана, великого искуссТвоведа, посяТившей свою жизнь и деяТельносТь искуссТву узбекского классического пения и музыкальному исполниТельсТву.О Также излагаюТся оТзывыи впечаТления последоваТелей великой арТисТки Коммуны Исмаиловой – ученого-музыковеда Саибджана БегмаТова,народных арТисТов Мехри Бекджановой,Замиры Суюновой,МаТлюбы Дадабаевой, Марьям ИхТияровой,Хайруллы ЛуТфуллаева, народных исполниТелей Хасана Раджаби,Исмаилджана и Исраилджана Вахабовых, заслуженных арТисТов УзбекисТана Абдурахмана ХалТаджиева,Камилы Аминовой,Ахмаджана Дадаева,Нилуфар Саидовой,Максадхон Юнусовой, ШарофаТ Таджибаевой, Таджибар Азизовой, заслуженного деяТеля кулТуры Республики УзбекисТан Темура Махмудова.

К учебному пособию прилагаюТся и образцы ТексТов песен, ноТ на СД дисках,исполненных Коммуной Исмаиловой.

Пособие предназначено для учащихся высших и среднеспециальных учебных завадений по специальносТям- ансамбль и исполниТельская пракТика.

This training manual is dedicated to an unique singer who devoted her life to Uzbek classical music art and music, the great Uzbekistan People's Artist Kommuna Ismailova's life and creativity. It also includes the memories about favorite master-teacher Kommuna Ismailova by musician scientist Soibjon Begmatov and People's Artist Mehri Bekjanova, Zamira Suyunova, Matluba Dadaboyeva, Mariyam Ixtiyorova, Khayrullo Lutfullaev, People's Khofiz-reciter Khasan Rajabi, Ismoiljon and Isroiljon Vahobovs, Honoured Uzbek artists Abdurahman Xoltojiev, Kamila Aminova, Ahmadjon Dadayev, Nilufar Saidova, Maksadhon Yunusova, Sharofat Tojiyeva, Tojibar Azizova, Honored Artist of the Republic of Uzbekistan Timur Makhmudov and a number of her student followers. There are samples of Kommuna Ismailova's songs with their texts and CD disc in the manual. The manual is devised for students of Higher and Secondary special academic lyceum and colleges who studying the ensemble and performing practice of music.

ISBN 978-9943-307-46-9

© «Musiqa» nashriyoti, 2009, 2016.
© A.Jalilov, 2016.

K I R I S H

Musiqa san'ati insoniyat ma'naviyatining kalitidir. Musiqa orqali dunyoni anglash, tushunish doimo o'zining ijobatini topib kelgan. Shuning uchun hayotda musiqa bilan oshno bo'lgan, musiqaning sehrli sadolaridan bahramand insonlargina ezgu ishlarga qo'l urganlar. Zero, musiqa ijodiyotning ilhomlantiruvchi kuchi hamdir. Shu bois bo'lsa kerak, o'tmishda yashab ijod etgan olim-u fuzalolar, shoir-u adiblar, faylasuf-u iqtisodchilar musiqa bilan oshno bo'lishga harakat qilganlar. Uning sir-u asrorlaridan chuqurroq boxabar bo'lish uchun uringanlar.

Dunyoda musiqasiz hayotini tasavvur eta olmaydigan, ulkan qalb egasi va o'z kasbiga fidoiy shunday insonlar borki, ularning taqdirida insoniyatga, xalqiga xizmat qilishdek mashaqqatli, beminnat, lekin sharafli mehnat bitilgan. Binobarin, ularga yaratgan tomonidan benazir ovoz, iste'dod va shunga mos bardosh in'om etilgan. Tabiatning ushbu ne'matlarini anglab, undan hayotida to'g'ri, oqilona foydalana olgan san'atkorgina, avvalo, ijobatini, qolaversa, hayotdagi o'rni va mavqeini topa oladi. Pirovardida el sevgan san'atkor bo'lib, xalq orasida doimo ardog'da bo'ladi.

Ana shunday san'atkorlardan biri, 70 yil davomida xalqimizga beminnat xizmat qilib, o'z san'ati bilan muxlislari qalbidan chuqur joy olgan, e'zoziga sazovor bo'lgan taniqli san'atkor, O'zbekiston xalq artisti, benazir ustoz Kommuna Ismoilova edilar.

Kommuna opa 2013-yilda 86 yoshda oramizdan ketdilar. Shu voqea sabab bo'lib, taniqli san'atkorning oddiygina bir shogirdi sifatida ularning hayot yo'li va ijodlari haqida yana bir risola bitib, kelajak avlodga taqdim etishni lozim ko'rdik.

Kitobda ustoz san'atkorning hayot va ijod yo'llarini o'zlarining bizga so'zlab bergan qiziqarli va hayajonli voqealari, ustozlarning suhbatlari, shogirdlarining zavq bilan zikr etgan fikrlari asosida yoritib berishga harakat qildik. Undan tashqari, kelajak avlod uchun kerakli bir manba bo'lsin, degan niyatda opaning 40 dan ortiq eng sara qo'shiq va ashulalarining nota namunasini berishni ham lozim ko'rdik.

Ustozning ko'pgina aytgan asarlari davr qo'shig'idir. Ba'zi mantlar zamonasozlikka xizmat qilgan. Opa ijrochilik an'analarini hamda o'sha yaratilgan kuylarning umrini uzaytirmoq, yangi xayot bag'ishlamoq maqsadida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qo'shiq kengashi bilan hamkorlikda Istiqlol yillari matnlaridan tanlab qo'yib aytilsa ayni muddao bo'lar edi (muharrir).

Kommuna Ismoilovaning musiqa san'ati ijrochiligiga qo'shgan hissasi salmoqlidir. O'zbek xalq musiqa namunalaridan tashqari, ustoz bastakorlarning ijodidan asarlar eng muhim tarmoqni tashkil etadi. Zero, ko'pchilik bastakorlar Kommuna Ismoilovaning ijro mahorati va ijrochilik uslubiga mos holda asar yaratganlar. Opa tomonidan o'zbek kompozitorlari yaratgan asarlarning ijrosi alohida e'tiborga loyiq. Shu bilan birga, qardosh xalqlarning musiqiy namunalarini o'zgacha mehr bilan ijro etganliklari har bir xonishda o'z ifodasini topgan. Ushbu risola Kommuna Ismoilovaning ana shunday benazir ijodidan bir qatra, deyish mumkin.

KOMMUNA ISMOILOVA

(Hayoti va ijodiy yo‘li)

O‘zbek xalqining sevimli san’atkori, O‘zbekiston xalq artisti, betakror ovoz sohibasi Kommuna Ismoilova 1927-yilning 15-dekabrida Xorazm viloyati Xiva shahrida, ziyolilar oilasida tavallud topgan. Otasi Qurbon Ismoilov o‘qimishli, ziyoli inson bo‘lib, Xiva shahridagi «Xiva kommunasi» gazetasining muharriri bo‘lgan. Onasi Bekajon Ismoilova esa, o‘sha davrdagi xotin-qizlar maktabida o‘qigan. Ular to‘ng‘ich farzandlariga Ullibibi deb nom qo‘yishgan. Hayot taqozosi bilan shahar hokimi Qurbon Ismoilovning farzand ko‘rganidan xabar topadi va o‘zi muharrirlik qilayotgan gazetaning nomiga mos qilib, qizini Kommuna deb atashni maslahat beradi va bu fikr hammaga ma’qul bo‘ladi. Shu bahona Ismoilovlar oilasining to‘ng‘ich farzandi jajji qizaloqni Kommuna deb atay boshlaydilar.



Kommuna Ismoilova ota-onasi Qurbon Ismoilov va Bekajon Ismoilovalar

1928-yili Kommunaning ota-onasini Toshkentdagi Universitetga o‘qishga yuborishadi. (Hozirgi O‘zbekiston Milliy Universiteti SAGU deb nomlangan). Ular 4 yil davomida universitetda o‘qib, Toshkentda yashaydilar. Universitetni bitirgandan so‘ng, 1932 yili Qurbon Ismoilov

Mang‘it tumaniga hokim, Kommunaning onasi esa, xotin-qizlar qo‘mitasining raisi etib tayinlanadi. Shu davrlarda Mang‘it tumani Xorazm viloyatiga qarashli edi. Ayni paytda, ushbu tuman Qoraqalpog‘iston hududiga kiradi. Kommunaning otasi 1934-yili Xorazm viloyati hokimining muovini etib tayinlanganligi sababli ularning oilasi Urganchga ko‘chib kelishadi. Shu yildan boshlab, Kommuna Urganchdagi o‘rta maktabda o‘qiy boshlaydi. Kommuna maktabda o‘zining o‘tkir zehni va ayniqsa, san’atga shaydoligini namoyon etadi. O‘rtoqlarining orasida ajralib turishiga Kommunani aynan shirali va qo‘ng‘iroqdek ovozi sabab bo‘ladi. Kommunaning san’atga bo‘lgan mehri uni nafaqat maktab muhitida, balki teatr tomoshalariga ham tez-tez qatnashishiga va san’atkorlar bilan tanishishiga turtki bo‘ldi.

1935-yili zamonasining taniqli san’atkori Tamaraxonim bir yil davomida Xorazm teatrida ishlagan. Tamaraxonim bilan birga mashhur Oxunjon qiziq, Karim Zokirov, Po‘latjon Rahimov, Zuhur Qobuliy, Nusrat ayalar ham birga kelib, «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» kabi bir qator spektakllar namoyish etishgan. Kommuna ana shu spektakl massovkalarida ishtirok etadiganlarga qo‘shilib, har kuni spektakllarda qatnashardi. Spektakllarda ishtirok etish, san’atkorlar davrasida yurish Kommunaning san’atga bo‘lgan ishtiyoqini yanada oshiradi. Qo‘shiq ijrochiligida o‘zini yanada erkin seza boshlaydi.

Kommuna opaning eslashlaricha, Tamaraxonim «Layli va Majnun»da Laylini, «Farhod va Shirin»da Shirinni, Nusrat aya esa Mohinbonuni o‘ynar ekanlar. Kommuna shu paytda qora kuyaga bo‘yanib, habash qiyofasida Xusravni yelpig‘ichda yelpib turish vazifasini bajarib turar edi. Kommunaning kech qolib kelishidan xavotirga tushgan otasi Qurbon ota teatrga qizini axtarib kelar edi. Kunlarning birida Tamaraxonim Kommunaning otasiga, «Qizingiz Kommuna san’atga juda ham qiziqar ekan. Ovozi ham juda chiroyli, nolali. Hali ko‘rasiz, u butun respublikaga dong‘i ketgan mashhur san’atkor bo‘ladi. Uning kelajagi porloq. Sizlarning nomingizni butun dunyoga taratadi...», – deydi.

Kommuna Ismoilova maktabda o‘qish bilan birga, ko‘ngil qo‘ygan qo‘shiqlarini kuylab, ustozlaridan san’at sirlarini o‘rganib, ijrochilik malakasini ham oshira boradi.

1942-yili u o‘qituvchilar tayyorlaydigan 6 oylik muallimlik kursiga o‘qishga kirib o‘qiydi. Shu davrda ikkinchi jahon urushi boshlanib, Toshkentda harbiy ansambl tashkil etiladi va muntazam tarzda konsert gastrollari tashkil etila boshlandi. Ansamblga taniqli san’atkor O‘zbekiston Xalq artisti Gavhar Rahimova boshchilik qilgan.

1943-yilning fevral oyida ushbu ansambl Xorazmga konsert gastrol safari bilan keladi va Kommuna o‘qiyotgan muallimlik kursi binosining yonidagi mehmonxonaga joylashadi. O‘sha paytda Kommuna muallimlik kursini tugatish arafasida edi. Binoning ikkinchi qavatidagi deraza oldida Kommuna To‘xtasin Jalilovning Sobir Abdulla so‘zi bilan «Qurbon Umarov» spektakliga yozgan qo‘shig‘ini xirgoyi qilib turardi:

Tashlama bunda mani maydonda ham yoring bo‘lay,
Dori-darmonlar tutib, yoningda tayyoring bo‘lay.

Bormasam bo‘lmas, Vatan farzandiman orim kelur,
Yov tomon qutlug‘ hujum qilmoqda hamkoring bo‘lay.

El hayotiga zahar solmoqchi bo‘lganlarni yanch,
Sen bilan birga bo‘lay, birga zafardoring bo‘lay[1].

Xuddi shu paytda gastrolga kelgan san’atkorlar mehmonxonadan chiqib, bino yonidan o‘tib borardilar. Kommunaning ijrosini tinglab, ustoz sozanda Faxriddin Sodiqov bilan Gavhar Rahimova binoga kirib, uni so‘roqqa tutishadi. Yaxshigina ovozi borligini uqtirishadi. Zarur tarbiya va bilim olsa, risoladagidek san’atkor bo‘lishini aytib, birga Toshkentga ketishni taklif qilishadi.

Shunda Kommuna ixtiyori ota-onasida ekanligini va agar ular qarshi bo‘lmasalar, bu taklifni jonu-dili bilan qabul qilishini aytadi. Kommunadagi bebaho iste’dodni baholay olgan ustoz Faxriddin Sodiqov uning otasi Qurbon Ismoilov bilan suhbatlashadi va sharoitni tushuntiradi, Kommunaning betakror iste’dod egasi ekanligini uqtiradi. Ustozlarning fikrini bilib, ularning taklifini mushohada qilib ko‘rgandan so‘ng Kommunaning ota-onasi kamtarlik va xijolat bilan rozi bo‘lishadi.

1943-yilning 11-fevralida Kommuna Ismoilova Gavhar Rahimova rahbarligidagi front brigada ansambliga qo‘shilib, Toshkentga keladi va ustoz san’atkorlar bilan bir safda ijrochilik faoliyatini boshlaydi. Kommunaning ansambldagi ilk qadamlari ish faoliyati emas, balki ko‘proq ijrochilik an’analarini o‘rganish, saboq olib, mahoratini oshirish, ijro uslubini o‘zlashtirish kabi ijrochilik mezonlari bilan bog‘liq bo‘lgan, desak to‘g‘riroq bo‘ladi. Chunki bu davr haqida Kommuna Ismoilovaning o‘zi quyidagi fikrlarni zikr etganlar:

– «Mana shu taklif hayotimni, taqdirimni hal qildi. Toshkentda ajoyib ijodiy muhitga tushdim, insondagi xonandalik iste’dodini bir noyob hodisaday qadrlaydigan ustozlar nazarida qadr topdim. Bu ustozlar menda bor ovozimni kamolotga yetkazishdi, sayqal berishdi. Qo‘shiq, ashula, maqom ijrosi – alohida san’at ekanligini shu yerda angladim»[2].

Darhaqiqat ansambl 16 kishidan iborat edi. Ustoz-sozanda va bastakor Faxriddin Sodiqov – musiqa rahbari (chang), Murodjon Qosimov (nay), Sayfiddin Yo‘ldoshev (g‘ijjak), G‘ofir Azimov (doyra), qolgan qiz-ayollar. Gavhar Rahimova esa ansamblning badiiy rahbari edi.

Ansamblga musiqalarni ustoz Faxriddin Sodiqov tanlab yoki bastalab o‘rgatar edi. Kommuna Ismoilova ham sekin-asta ustoz sabog‘i yordamida qo‘shiqlar ijro eta boshlaydi.

---

[1] «Qurbon Umarov» musiqali dramasi; T.Jalilov va G.Shperling musiqasi, S.Abdulla va Chustiy librettosi. 1941.

[2] *Hasan Rajabiy.* «El e’zozidagi san’atkorlar», Xalq so‘zi, 2007-y., 16-yanvar.

1943-yili ushbu ansambl tarkibida Kommuna Ismoilova ilk bor konsert gastrol safariga chiqadi. Safar birinchi Ukraina fronti jangchilari bilan uchrashuv konsertidan boshlanadi. Yosh Kommuna ustozlar davrasiga sekin-asta ko‘nikib borishga harakat qiladi. Undagi jasurlik, san’atga bo‘lgan ishtiyoq hamda sabr-bardoshlilik og‘ir damlarda ham vaziyatga ko‘nikishga yordam beradi. Ustozlari safida ham o‘rganib, ham ijro etib, ularning ishonchini oqlashga harakat qiladi.

Ansambl dasturidan avval Kommunaning turli xalq termalari, qo‘shiq va yallalari o‘rin olgan bo‘lsa, keyinchalik uning ijro repertuaridan taniqli bastakorlar asarlari ham o‘rin ola boshlaydi. Birinchi ijodiy safarning o‘zidayoq ustozlar F.Sodiqov va B.Mirzayevlar «Zebixon noming uchun» qo‘shig‘ini yaratib, Kommuna Ismoilovaga o‘rgatishadi.

Jasur jangchi Zebi G‘aniyevaning mardonavor jasorati haqida kuylovchi ushbu qo‘shiq jang maydonida yaratilgan edi. Bu xususda bastakor F.Sodiqovning qo‘lyozma esdalik daftarida quyidagi so‘zlar zikr etilgan: «Bu qanday qo‘rqmas ayol ekan, deb surishtirsalar, o‘zbek qizi Zebi G‘aniyeva ekan. Bunday qahramonlarcha harakatda bo‘lgan bu o‘zbek qizi bilan faxrlanib, hammamiz hayajonlanib ketdik va ilhomlanib, Boborahim aka bilan hamkorlikda shu joyning o‘zidayoq Zebi G‘aniyevaga bag‘ishlab qo‘shiq yaratdik. So‘zlarini Boborahim Mirzayev yozdi. Men kuy ishlab, Kommunaxon Ismoilovaga ayttirdik. Bu qo‘shiq frontlar bo‘ylab doim aytilib, jaranglab ketdi»[3].

Darhaqiqat, qo‘shiq o‘zbek qizining qahramonona obrazini aks ettirib, o‘zbekona sehrli ohanglar orqali benazir san’at namunasiga aylangan edi.

Kommuna Ismoilovaning xonandalik sohasidagi ilk ustozi F.Sodiqov qo‘shiqni aynan shogirdining ovoz imkoniyatlariga moslab yaratgan edi. Shu bois qo‘shiq o‘ziga xos ta’sirchan va tarovatli hamda jonlantiruvchi xususiyat kasb etgan.

«Faxriddin Sodiqovning xonandalar ichida ilk shogirdi, ikkinchi jahon urushi faxriysi, o‘z vaqtida mazkur front-konsert brigadasi tarkibiga qo‘shib olingan asli xorazmlik yosh havaskorlardan biri, aynan shu qo‘shiqning birinchi ijrochisi O‘zbekiston xalq artisti, Kommuna Ismoilova bo‘lgan»[4]. Kommuna Ismoilova F.Sodiqov va boshqa ustoz san’atkorlar bilan ayni shu front-konsert brigadasi tarkibida 1945-yilning may oyiga qadar mingga yaqin konsertlar berishga muyassar bo‘ladi. Bu esa Kommuna Ismoilovaning san’at olamiga kirib kelib, o‘z o‘rnini topishida juda katta maktab bo‘lib xizmat qiladi. Uning xizmatlari esa bir nechta orden va medallar bilan taqdirlandi.

1945-yili Toshkentga qaytgan jamoa konsert gastrollarini davom ettiradi. Ijro dasturlari yangi yaratilgan asarlar bilan boyidi. Uzoq safarlarda yurgan kezlarida ustozlar yordamida Kommuna Ismoilova bir qator qardosh millatlarning xalq qo‘shiqlarini o‘zlashtiradi. Har bir yurtda beriladigan konsertlarda iloji boricha shu xalqga mansub qo‘shiq ijro etishga harakat qilar edi. Ayniqsa jangchilarning ko‘pmillatliligi ansambl ishtirokchilarini barcha qardosh xalqlarga mansub asarlarni ijro etishga undardi. Ana shunday qo‘shiqlardan «Saratovskiye chastushki», «Kolxoznaya polka»,

[3] *R.Yunusov.* «F.Sodiqov», monografiya. T., 2005-y., 41–42-b.

«Poydu – viydu», «Katyusha», «Ex, dorogi» kabilarni me'yoriga yetkazib ijro etib, tinglovchilar e'tiborini qozonar edi. Kommuna Ismoilova qaysi bir xalq, ya'ni ukrainchami, beloruschami, ruschami, slavyanchami qo'shiqni ijro etmasin, uning beg'ubor kulgisi va ovoz tarovati qo'shiqqa o'ziga xos joziba baxsh etardi.

1946-yilning fevral oyida Kommuna Ismoilova ijodiy jamoa bilan yana Xorazmga yo'l oladi. O'zining tug'ilib o'sgan yurtida taniqli san'atkor Komiljon Otaniyozov bilan ilk marotaba ko'rishadi va qadrdon bo'lib qoladi. Zukko ustoz Kommuna Ismoilovaning qanchalik mahorat bilan qardosh xalqlar qo'shiqlarini ijro etayotganini ko'rib quvonadi. Uning ijro mahoratiga tahsin aytadi va ustozlardan olgan sabog'idan shodlanadi. Komiljon Otaniyozov Kommunaning o'zi Xorazmlik bo'lib, ijro repertuarida Xorazm qo'shiqlari kamligini sezadi va unga bir-ikki doston yo'llaridagi qo'shiqlardan o'rgatadi. Uning ilk qo'shig'i «Oshiq G'arib va Shohsanam» dostonidan G'aribning onasi tomonidan ijro etiladigan nomasi, ya'ni «Bolama o'xshaydi ovozing sani» qo'shig'i edi.

Ushbu qo'shiqni Kommuna Ismoilova 1946-yili Toshkentda endigina qurib bitirilgan hashamatli bino, Alisher Navoiy nomidagi davlat opera va balet katta teatrining ochilish marosimida ilk bor ijro etadi. Urushdan keyingi yillar, zalda o'tirgan har bir inson bu qirg'in barotning zahmidan tortgan, qalblari qayg'uga to'la. Qo'shiq esa, darhaqiqat, ehtirosli, o'g'lini yo'qotgan onaizorning nolishi. Uni tinglagan har bir insonning qalbini junbushga keltiradi. Zalda o'tirganlar orasida ko'ziga yosh olmagan inson qolmaydi. Qo'shiq yakuniga yetgandan so'ng tinglovchilar yana bir bor qaytarib ijro etilishini so'raydilar. Kommuna Ismoilova qo'shiqni qaytadan ijro etadi.

O'G'LIMA O'XSHAYDI OVOZING SANI

«Oshiq G'arib» dostonidan — *Komiljon Otaniyozov* musiqasi



[4] Shu manba, 43-bet.



Haq o‘zi yetirgan aziz mehmonim,
O‘g‘lima o‘xshaydi ovozing sani.
Tez xavarin bergin chiqmasdan jonim,
Bolama o‘xshaydi nolishing sani.

O‘g‘lim ketdi sulton boshim xor bo‘ldi,
O‘g‘limni ko‘rmakka ko‘nglim zor o‘ldi.
Yig‘lamoqdin ikki ko‘zim ko‘r bo‘ldi,
G‘ariba mangziydi ovozing sani.

Avval boshdan mani yozim ketibdi,
Qo‘limdan o‘rdagim, g‘ozim ketibdi.
Qo‘ynimdan ayrilib, qo‘zim ketibdi,
Qo‘zima o‘xshaydi ovozing sani.

O‘g‘lim borgan joyga sen ham boribsan,
O‘g‘lim bilan sozu suhbat quribsan.
Yo o‘g‘limsan, yo o‘g‘limni ko‘ribsan,
O‘g‘lima o‘xshaydi ovozing sani.

G‘ariba mangziydi nolishing sani,
O‘g‘lima o‘xshaydi ovozing sani.

Ushbu onlar Kommuna Ismoilovaning san’atdagi parvozlaridan biri hamda o‘zbek musiqa merosini yana bir betakror musiqiy namuna bilan boyigan daqiqalari edi. Bundan ruhlangan ustoz Komiljon Otaniyozov Kommuna Ismoilovaga «Oshiq G‘arib va Shohsanam» dostonidan yana bitta qo‘shiq, ya’ni «Ozod qil» qo‘shig‘ini yaratib, o‘rgatadi.

1946-yilning dekabrida Kommuna Ismoilova navbatdagi ish ta’tilini olib, yurti Xorazmga, ota-onasi bag‘riga qaytadi. Farzandini sog‘ingan ota-onasi unga endi Toshkentga ketishiga ruxsat bermasligini va Xorazmga ham san’atkorlar kerakligini aytib, olib qolishadi.

Kommunalarning oilasi uncha katta emas, ukalari Shavkat, Shuhrat, Alisherlar ota-onasiga yordamchi edilar. Lekin Kommunaning o‘rni boshqacha edi. Oilada eng sevimli, qolaversa, bir qiz ekanligi uning ardoqlanishiga ham sabab edi. Shu ondan boshlab Kommuna Ismoilova Xorazm teatrida ish faoliyatini boshlaydi. Kommuna o‘zining tirishqoqligi bilan tez orada teatr repertuaridagi spektakllarni o‘zlashtirib oladi. U «Nurxon»da Jamila, «Tohir va Zuhra»da Mohim, «Muhabbat guli» kabi spektakllarda qator yorqin obrazlarni yaratishga muvaffaq bo‘ladi. Xorazm teatrida ustoz Komiljon Otaniyozov bilan birga sahnaga chiqar, ustoz esa doimo Kommunaning o‘z rolini benuqson o‘ynashida ko‘rsatmalar berib, nazorat qilib turar edi. Teatrda Komiljon Otaniyozov, Vahobjon Fayozov, Anabibi Ochilovalar bilan doimo birga sahnada bo‘lib, hamkorlik qiladi.

Kommuna Ismoilovaning Xorazm teatridagi faoliyati ko‘pga cho‘zilmadi. Oz vaqt bo‘lsa-da, samarali va mazmunli ijod qildi. Ustozi Komiljon Otaniyozov saboqlarini oldi. 1947-yilning iyun oyida Toshkentga qaytdi va O‘zbek davlat filarmoniyasida xonandalik faoliyatini davom ettirdi.

Kommuna Ismoilova 1948-yili o‘z davrining ajoyib san’atkori, xonanda Hakimjon Fayziyev bilan turmush quradi. Ular birgalikda san’atkorlar oilasini qurib, elga tanildilar.

Kommuna Ismoilova 1957-yilgacha o‘zbek davlat filarmoniyasida faoliyat ko‘rsatib, musiqa ijrochiligi ravnaqiga munosib hissasini qo‘shadi. Ijodining yuksak cho‘qqilariga erishadi. Qardosh xalqlar qo‘shiqlari, o‘zbek bastakorlari yaratgan qo‘shiqlar va xalq mumtoz musiqa namunalarini Radioning oltin fondiga yozishga muyassar bo‘ldi. Ayniqsa zamonaviy kompozitorlar bilan hamkorlik ishlari jonlandi. Uning xalq oldidagi mehnatlari davlatimiz tomonidan munosib baholandi. 1949 yili O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist faxriy unvoni berildi.

1959 yili uni o‘zbek Radiosiga yakkaxon xonanda sifatida ishga olishdi. Bu esa unga qo‘shiq, ashulalarini doimiy tarzda tinglovchilarga yetkazish, magnit tasmalariga yozish, ijodkorlar bilan uzluksiz hamkorlikda bo‘lish uchun katta imkoniyat edi. U S.Jalil, H.Rahimov, B.Giyenko, F.Nazarov, V.Zudov, X.Izomov, D.Zokirov kabi kompozitorlar, T.Jalilov, F.Sodiqov, K.Jabborov, S.Hayitboyev, N.Hasanov, G‘.Toshmatovdek bastakorlar bilan hamkorlik qildi. Ijro repertuarini esa professional musiqa namunalari bilan boyitdi. «Tabriklayman» (N.Hasanov, R.Qosimxo‘jayeva), «Gulnora» (K.Otaniyozov, A.Bobojonov), «Oyshaxon» (D.Zokirov, A.Po‘lat), «Xayolim senda» (H.Rahimov, T.To‘la), «Oq oltin karvon-karvon» (F.Sodiqov, Z.Obidov), «Yoshlik chog‘imda» (S.Jalil, H.Olimjon), «O‘ylanma» (K.Otaniyozov, A.Bobojonov) kabi musiqiy asarlar shular jumlasidan.

O‘sha paytda ko‘pgina ijodkorlar o‘z asarlarini aynan Kommuna Ismoilova ijro xarakteriga moslab, ovoz imkoniyatlarini nazarda tutib, ijro uslubiga xos muqobil asar yaratishga uringanlar. Shu bois bo‘lsa kerak, shu davrlarda Kommuna Ismoilovaga xos ijro uslubi shakllana boshlanadi. Buni biz kompozitor Sayfi Jalilning Hamid Olimjon she’riga bastalagan «Yoshlik chog‘imda» qo‘shig‘ida ham ko‘ramiz va aynan Kommuna Ismoilova ijro uslubiga yorqin misol bo‘lishini e’tirof etamiz. Qo‘shiq juda nozik va nafosatli bo‘lishi bilan birga, yoshlikni madh etuvchi purma’no so‘z, yorqin va jo‘shqin kuy ohangida o‘zining chiroyli ifodasini topgan.

YOSHLIK CHOG‘IMDA

Hamid Olimjon so‘zi *Sayfi Jalil* musiqasi



Eng gullagan yoshlik chog‘imda,
Sen ochilding ko‘ngil bog‘imda.
Shunda ko‘rdi ko‘zim bahorni,
Shunda qalbim tanidi yorni.

Qushlar sayrar jonimga payvast,
Men sevgining bo‘yi bilan mast.
Kuni bilan dalada qoldim,
Lolazorlar ichra yo‘qoldim.

Naqorat:
Shunda ko‘rdi ko‘zim bahorni,
Shunda qalbim tanidi yorni.

Quchoq-quchoq gullar terganim,
Va keltirib senga berganim,
Kechagidek hamon esimda,
Har soniya har on esimda.

Shundan beri tilimda noming,
Shundan beri dilimda noming.

1959-yili Radio qoshida maqomchilar ansamblining tashkil etilishi munosabati bilan zamonaning eng mohir sozandalari va ustoz xonandalari ansamblga jalb etiladi. Ansamblning rahbari ustoz san’atkor, bastakor Yunus Rajabiy Kommuna Ismoilovani ham ansamblga taklif etadi. Kommuna Ismoilova hayotida eng mas’uliyatli va hayajonli damlar boshlanadi. Shu paytgacha u ko‘proq zamonaviy musiqa ijodiyoti namoyandalari va ijrochilari bilan hamkorlik qilib kelgan bo‘lsa, endi haqiqiy an’anaviy musiqa merosining ustalari – xalq mumtoz musiqasining bilimdonlari bilan hamkorlik qilishiga to‘g‘ri keldi. Bu xonandaning hayotidagi yana bir katta saboq va ijod maktabi edi. Jamoa 6-7 yil davomida juda katta harakatlar bilan «Shashmaqom»ning ashula yo‘llarini o‘zlashtirib, zamonaviy talqinda magnit tasmasiga yozish majburiyatini olgan edi. Bu esa jamoaga va jamoaning har bir xonanda va sozandasiga juda katta mas’uliyat yuklaydi. Ansambl ishtirokchilari tomonidan ham mas’uliyatga ko‘ra harakat va ijodiy ish olib borilgan.

Shu davrda Kommuna Ismoilova hayotida ro‘y bergan voqealar uning hayotiga va ijodiy faoliyatiga katta ijobiy ta’sir etdi. Ya’ni Kommuna Ismoilova 1960 yili F.Sodiqovning «Xumor» qo‘shig‘ini ijro etadi. Shu paytda uning oilasida qiz farzand tug‘iladi. Qo‘shiq shunchalar yoqimli va Kommunaning diliga mos tushgani uchun o‘z qiziga Gulxumor deb nom qo‘ydi. (Hozirda Kommuna Ismoilovaning Orzigul, Gulruh va Bekajon ismli uchta nabirasi bor.)

Shuni qayd etish joizki, o‘sha davrda maqom ansambli «maqom akademiyasi» kabi qizg‘in faoliyat olib borgan desak mubolag‘a bo‘lmas. Shu bois ish jarayonini Kommuna opaning talqinida bayon etsak, to‘g‘riroq bo‘ladi. Kommuna Ismoilova shunday eslaydi: – «Rahbarimiz Yunus ota Rajabiy rahbarligida 1965-yilgacha «Shashmaqom»ni plastinkaga va shu bilan birga, notaga ham yozib bo‘lindi. Ish jarayoni juda qiziqarli va juda mashaqqatli edi. Har bir xonanda va sozandaning o‘rni bor, joyi bor va shunga tegishli vazifasi belgilab berilgan edi. Yunus ota qanchalik qattiqqo‘l bo‘lmasinlar, avvalo, o‘zlari qiladigan ishni ko‘rsatib berardilar. Har bir asarni uyda alohida o‘rganib kelib, bizga kun bo‘yi o‘rgatar edilar. Kechasi esa plastinkaga

yozilar edi. Bordiyu, ustozimiz Faxriddin Sodiqov kelmay qolsalar, cholg‘uchilar boshlay olmasdan turishardi. Shunda Yunus ota (hazillashib) «hammangni sotib Faxriddinga yedirish kerak» der edilar. Faxriddin Sodiqovning bilimdonligi ijroga pishiqligini Yunus ota ham qattiq qadrlar edilar. Ustozim Faxriddin aka har bir maqom parchasini qochirim nolalarigacha changda chalib, ko‘rsatib berar edi. Yunus Rajabiy qo‘llarida dutorni olib, har birimizga birma-bir aytib, o‘rgatar edilar. Mabodo o‘zimizga bir oshiqcha nola yoki bezak bersak, to‘xtatib, boshqatdan uqtirardilar. Shunday o‘rgatar edilarki, ko‘zimizdan yosh chiqib ketar edi.

Karim Mo‘minov, Ortiqxo‘ja Imomxo‘jayevlarning shirali ovozlari yodimdan chiqmaydi. Orif Alimaxsumovning nafasi juda baland edi, uning ustiga ajoyib bir xislati bor edi. Bugun o‘rgatilgan maqomni ertasiga yoddan aytib berar edi. Oramizda asarni tez yod olishga juda pishiq inson shu kishi edi. Berta Davidova bilan men ayollar ovozini aytar edik. Shokirxo‘ja bilan Siroj Aminovga alohida bo‘laklar berilardi. Chunki ularning nafaslari bir-biriga juda mos edi. Dutorda Zokirjon aka, nayda Isoqjon aka, tanburda Turg‘un aka, doyrada Dadaxo‘ja akalar Faxriddin akaning yonida turib ansamblda chalishardi»[5].

Kommuna Ismoilova maqom ijodi va yozuvi bilan shunchalar band bo‘lishiga qaramay, xonandalik faoliyatini to‘xtatmaydi. Qadrdon ustozlari, bastakorlar bilan hamkorlikni davom ettiradi. Uning ijro repertuarida mumtoz musiqa namunalari, bastakorlarning mumtoz uslubda yaratgan ashulalari keng o‘rin olgan. Shu davr davomida F.Sodiqovning «Ey chehrasi tobonom» (Muqimiy), «Bir go‘zal» (Mirtemir), «So‘lim bahor» (A.Isroilov), Saidjon Kalonovning «Zebo o‘lkam» (A.Isroilov), «Do‘ppi tikdim» (T.To‘la), Komiljon Jabborovning «Shifokorlar» (P.Mo‘min), Doni Zokirovning «Mirzacho‘lning qizlari» (A.Po‘lat), Fattoh Nazarovning «Mehnat nashidasi» (Ya.Qurbonov), Sobir Safoyevning «Yor maktubi» (T.To‘la) va bir qator maqom namunalarini Radioning oltin yozuvlar fondiga yozishga erishadi. Kommuna Ismoilovaning har bir aytgan asari o‘ziga xosligi bilan va uslubining yorqin namunasi sifatida tarixga bitiladi va ijro amaliyotida o‘rnini topadi. Ayniqsa mahoratli sozanda va bastakor Komiljon Jabborovning, shoir Po‘lat Mo‘min she’riga bastalagan «Shifokorlar» asari o‘zining originalligi bilan ijrochilik san’atida ajoyib sahifa ochdi. 1962 yil so‘z va kuyning mutanosibligi, ijrochining sehrli ohang talqinida go‘zal uyg‘unligini topgan.

SHIFOKORLAR

Po‘lat Mo‘min she’ri *Komiljon Jabborov* musiqasi



[5] Kommuna Ismoilovaning suhbatidan. 2007-yil, may.



Men sizdan davo topdim,
Jonga jon shifokorlar
Maqsadi salomatlik,
Mehribon shifokorlar.

Insonning hayotiga,
Chang solsa agar bir xavf,
Ilmni qurol qilgan,
Posbon shifokorlar.

Chin dildan yuraklarga,
Bergaysiz davo malham,
Mehringiz quyosh go‘yo,
Jonajon shifokorlar.

Ilmingiz quyoshidan,
Qalblarga yugurgay nur,
Xalq uchun bo‘ling Siz ham
Sog‘, omon shifokorlar.

Kommuna Ismoilovaning o‘zbek musiqa san’atida ko‘rsatgan bebaho xizmatlari esa, 1964-yili davlatimizning «O‘zbekiston xalq artisti» faxriy unvoni bilan taqdirlanadi. Davlatning ushbu yuksak bahosi Kommuna Ismoilovani yanada ruhlantirib yuboradi. Uning ijro repertuarini mumtoz asarlar hamda Vatanni madh etuvchi, ezgulik hamda sadoqatga chorlovchi asarlar bilan boyitdi.

Kommuna Ismoilova 1981-yilgacha maqom ansamblida muvaffaqiyatli va samarali faoliyat olib bordi. Shu yildan boshlab opaning ustozlik faoliyati boshlandi. Ya'ni Kommuna Ismoilova M.Uyg'ur nomidagi Toshkent davlat San'at institutida an'anaviy qo'shiqchilikdan yosh talabalarga saboq bera boshladi. Ushbu bilim maskani, san'at dargohida 2004 yilgacha o'qituvchilik qildi. O'tgan davr davomida o'nlab shogirdlarni tarbiyaladi. Ularning orasida bir qator xonandalar elning nazariga tushib, olqish va davlat unvonlariga sazovor bo'ldilar. Jumladan, Mehri Bekjonova, Zulayho Boyxonova, Tojibar Azizova, Mavluda Asalxo'jayeva, Sharofat Tojiboyeva, Ozoda Nazarova, Dilorom Qayumova, Karima Ismoilova, Munojot Teshaboyeva, Nilufar Saidova, Xolida Karimova, Nodira Rahimova va boshqalar.

Kommuna Ismoilova ustoz-murabbiylik faoliyatini 1993-yildan Toshkent Madaniyat kollejida davom ettirib, an'anaviy qo'shiqchilik sirlarini kollej o'quvchilari, ya'ni yangi avlodga o'rgatish bilan birga, an'anani qadrlash, Vatanga sadoqat, kattaga hurmat, kichikka izzat kabi insoniylik tuyg'ularini qalblariga singdirishda o'z mehnatlarini ayamadilar. Hozirgi davrda muayyan mavqega erishgan, mumtoz musiqa ijrochiligidagi o'zbek san'atkor qiz va ayollari opani birdek ustoz deb biladilar. Chunki Kommuna Ismoilova ijrosidagi 470 dan ortiq qo'shiq va ashulalar O'zbekiston Radiosining oltin fondiga yozib olingan. Shulardan 170 tasi o'zbek xalq cholg'u orkestri jo'rligidagi asarlardir.

Mana, 70 yildan ko'proq davr mobaynida xalqimiz Kommuna Ismoilovaning jozibali ovozidan bahramand bo'lib kelmoqda. Uning go'zal xonishlari dillarga orom, muxlislariga yaxshi kayfiyat hamda ruhiy madad berib keladi. Kommuna Ismoilova qaysi uslubda qo'shiq kuylasa, qaysi xalq qo'shig'i bo'lmasin, o'zining betakror ovozi bilan, «Kommunacha» talqini bilan ajralib turadi. Bu esa Kommuna Ismoilovaning o'zbek xalqi qalbidan allaqachon chuqur joy olgani va umumbashariyat iqbolini kuylovchi san'atimiz onaxoniga aylanganligidan dalolatdir. Zero, ayni paytda o'tmish san'atimiz darg'alari Kommunaxonim Ismoilova siymosida, ijrosida o'z aksini topgan desak ham adashmagan bo'lamiz. Bu albatta san'at yo'lidagi uning 70 yillik mashaqqatli mehnatida mujassamlangan.

Qolaversa, 1943 yildan boshlab ustozlik va rahnamolik qilib kelgan Faxriddin Sodiqov, Gavhar Rahimova va Boborahim Mirzayevlar, 1946-yildan maslakdosh ustozi bo'lgan Komiljon Otaniyozov va xalqimizning o'zbek raqs san'ati malikasi Mukarramaxonim Turg'unboyeva, kamtarin va oliyhimmat ustozi Halimaxonim Nosirova va Doni Zokirov, 1959 yildan boshlab maqom ijrosi bo'yicha ustozi Yunus Rajabiylarning sabog'ini olib, el nazariga tushgan. Shu bois doimo el ardog'ida bo'lib kelgan. Har bir ustoz bilan o'tgan damlar, ijodiy hamkorliklar, ijrochilikdagi chiqishlarning o'z tarixi borligi haqida opa jo'shib eslardi. Ularning har biri ustozgina emas, balki san'atda ota o'rnini bosganligini chin dildan aytardi. Ularning otalarcha munosabati, onalarcha mehri Kommuna Ismoilova bo'lib tanilishida juda ahamiyatli. Ayniqsa, Halimaxonim Nosirovaning mehribonligi, onalarcha kuyinishi, har tomonlama qo'llab-quvvatlashi Kommuna Ismoilovaning qalbi to'rida turardi.

Ijodiy hamkorlikning samarasi esa ijro repertuaridan 450 dan ortiq asarlar o‘rin olganligidan ham ko‘rinib turibdi. Onaxon san’atkor umrining so‘ngigacha kompozitor va bastakorlar, sozanda va xonandalar bilan hamkor va hamnafas bo‘lib ijod qilib keldi. Juda ko‘p ijodkorlar Kommuna Ismoilovaning ijrodagi qiyofasiga, uslubiga va ruhiyatiga moslab asarlar yaratib berganlar. Shu bois, turli mualliflarning asarlari bir uslubga xos talqinini topgan. Kommuna Ismoilovaga qo‘shiq yozgan va hamkor bo‘lgan bastakorlarning sanog‘i yo‘q. F.Sodiqov, F.Nazarov, K.Otaniyozov, H.Rahimov, N.Hasanov, D.Zokirov, S.Jalil, S.Hayitboyev, S.Kalonov, K.Jabborov, G‘.Toshmatov, M.Nasimov, M.Madaliyev, M.Niyozov, G‘.Qodirov, S.Safoyev, B.Umidjonov, O.Qosimov, M.Yusupov, O.Hotamov, S.To‘xtasinov, M.Murtazoyev, F.Olimov, Z.Mirolimova, T.Jo‘rayev, A.Ismoilov kabilar shular jumlasidandir.

Har bir ijodkorning hamkorligi Kommuna Ismoilova ijro repertuarini o‘ziga xos yangi asar boyitish bilan birga, musiqa san’ati rivojiga ham ulush qo‘shib kelgan. Xalqimizga doimo yangi asarlar taqdim etgani ham Kommuna Ismoilovaning juda katta xizmat va yutuqlaridan edi. Xalqimiz betakror ovoz sohibasini ardoqlash, tinglash bilan birga, qalb tuyg‘ularini satrlarda ifoda etgani ham bunga yorqin misoldir.

1987 yili Kommuna Ismoilova tavalludining 60 yilligi nishonlandi. Muxlislarning behisob dil izhorlari ifoda etildi. Shulardan Boltaboy Bayronning samimiy so‘zlarda bitilgan xalqona she’ri ham Kommuna Ismoilovaning xalq qalbiga qanchalar chuqur kirib borganini namoyon etadi:

O‘ZBEKISTON BULBULI

Gavharxonim Xivamizga keldilar,
Gullar ichra bir g‘unchani ko‘rdilar,
Shu g‘unchani birga olib ketdilar,
Tarbiyalab oni gulzor etdilar.
Kommunaxon Xivamizning bir guli,
Uni deymiz O‘zbekiston bulbuli.

Qutlug‘ bo‘lsin sizning 60 yoshingiz,
Oftob kabi ko‘kka etdi boshingiz,
Ko‘ksingizda doimo bo‘lsin bahor,
Qancha ta’rif qilsam sizga shuncha oz,
Kommunaxon Xivamizning bir guli,
Uni deymiz O‘zbekiston bulbuli.

Xorazmdir san’atkorlar makoni,
Bizda bordir olti yarim maqomi,
Xorazmning dovrug‘ini yoydingiz,
Ming-minglagan qo‘shiq ijod qildingiz.
Kommunaxon Xivamizning bir guli,
Uni deymiz O‘zbekiston bulbuli.

Sizga sog‘liq, baxt-saodat tilaymiz,
Qo‘shiq aytib, doim o‘ynab-kul, deymiz,
Er yuzida bo‘lsin tinchlik omonlik,
Umringiz ko‘rmasin hech bir yomonlik,
Uni deymiz O‘zbekiston bulbuli.
She’rni yozdi Boltaboy Bayron o‘g‘li.

Musiqa san’ati, odatda, xalqning mulkidir. Xalq istagan san’atkorini, uning qalbiga yoqqan xonanda yoki sozandasini ardoqlaydi. Lekin san’atkorda ham xalqqa in’om etadigan ma’naviy olam bo‘lishi darkor. Mana 70 yildirki, Kommuna Ismoilova elimizning ko‘z o‘ngida, turli-tuman sahnalarda xalqimizga ma’naviyat ulashdilar.

Kommuna Ismoilovaning betakror ovozi va jozibali ijrosi o‘zbek musiqa ijrochilik amaliyotida alohida sahifadir. Xalq hofizi Hasan Rajabiy «El e’zozidagi san’atkor» maqolasida shunday yozadi: «Xalqimiz bunday ovoz sohiblariga: «Xudoning o‘zi yuqtirgan» deb baho beradi. Darhaqiqat, Kommuna Ismoilova baxmalday mayin, nafis, dillarni allalovchi, jon baxsh etuvchi, kishini sehrlab qo‘yuvchi o‘zgacha bir ovoz sohibasidir. Haqiqiy xonandaning, hofizning ovozi ana shu alohidaligi, «Xudo bergan»ligi, kishini o‘ziga maftun, mahliyo etadigan betakror bir musiqiy joziba kuchi bilan ajralib turadi»[7].

2007-yilda Kommuna Ismoilova tavalludining 80 yilligi, ijodiy faoliyatining 65 yilligi keng nishonlandi. Bu ajoyib tadbir arafasida muxlislarning doimo radio to‘lqinlari, televideniye va ommaviy axborot vositalari orqali o‘z dil izhorlarini bildirib turishlari Onaxon san’atkorning haqiqiy el farzandi ekanligidan dalolatdir. Shulardan bir misol Matyoqub Mavlon o‘g‘lining muxlislar nomidan yozgan she’ridir:

Sakson yillik umr sizga muborak,
Xudo nazar solganlikdan bu darak,
Xalqi sevgan, Xalqni sevgan Kommuna,
Alloh bergan qaynar mehr va yurak.

Loyga botib, chang yutmadi mehnatda,
Ustunligin isbotladi san'atda,
Ko‘p ellarda nom qozondi Kommuna,
O‘zbek qizi jasoratdan namuna.

Sakson yillik uzoq umr muborak,
Yuz yildan ko‘p umr ko‘ring, chin tilak,
Alloh sizga omad bergan, dovyurak,
Ana shunday mardligingiz muborak.

Og‘ir urush yillar jangda qatnashgan,
O‘q ostida ajal bilan to‘qnashgan.
Vatan uchun borlig‘ini yo‘qlashgan,
Bugungacha yetgan umr muborak.

Milliy kiyim kiyib, doim yoqlagan,
Odob-ikrom, oriyatin saqlagan,
Mehnat ila yurt san'atin boyitib,
Ona sutin xalq ishonchin oqlagan.

Bulbulday xush ovoz dim yoqadi,
Yuzidan nur yuraklarga oqadi,
Ko‘rgan inson sevib, bot-bot boqadi,
Farishtaday husni jamol muborak.

Suyuk bo‘lgan, «darg‘a» bo‘lgan san'atda,
Tinim bilmay ko‘p ter to‘kkan mehnatda,
Aytarimiz doim bo‘ling rohatda,
Siz erishgan shonu-shuhrat muborak.

Ulug‘ «Haj»ga umid bilan boribsiz,
Parvardigor nigohida bo‘libsiz,
Iymon ichra toza nurga to‘libsiz,
Muqaddas u ziyorat muborak.

Tabarruksiz o‘zingiz ham so‘zingiz,
Farishtaday nur sochuvchi yuzingiz,
Orttirdingiz izdoshlarni juda ko‘p,
Sizdan so‘ng ham aslo o‘chmas izingiz.

Tavof aylay bosib o‘tgan izingiz,
Iymon bo‘lsin elga bergan tuzingiz,
Mavlon o‘g‘li Matyoqubning tilagi,
Tugamasin haqdan rizqu ro‘zingiz.

(Toshkent shahri, 2007-yil, 26-avgust)

Kommuna Ismoilova darhaqiqat ulkan san’atkordir. Benazir ustoz umrining oxirgi damlarigacha san’atga sodiq qolib, yosh avlodni tarbiyalashni tark etmadi. Toshkent madaniyat kollejida faoliyat olib borib, bir qator yosh xonandalarga an’anaviy qo‘shiqchilik bo‘yicha saboq berdilar. Ularning xonandalik va ustozlik faoliyatlarining o‘ziga xosligi ham shundadir. Eng muhimi, bu dargoh Kommuna opa uchun shogirdlar makoniga aylandi. Yilda bir necha marotaba shogirdlar ishtirokidagi konsert tadbirlari o‘ziga xos ustozning imtihoniga aylandi va an’ana sifatida doimo davom etdi. O‘quv maskani haqiqiy qo‘shiqchilar dargohi, yosh avlodni munosib dorilfununi va albatta haqiqiy san’atkorona tarbiya maskani vazifasini o‘tadi. Kommuna Ismoilova juda mazmunli umr kechirdilar. Davlatimiz rahbarlari tomonidan doimo ardog‘da bo‘ldilar. 2011-yili Prezidentimiz farmoni bilan «Mehnat shuhrati» ordeni bilan taqdirlandilar.

Kommuna Ismoilova ijodining eng gullagan davrida, pedagogik faoliyatining ibratli jabhasida 2013-yilning 2-noyabrida foniy dunyodan boqiy dunyoga rixlat qildilar. Bu betakror san’at sohibasi, shirinsuxan ustoz, benazir ijrolarda ko‘pdan-ko‘p asarlar meros qoldirgan ustoz xonandasini elimiz doimo qalbida saqlashi begumon. Uning ijodi, ijrosi, odobi hamisha barkamol yosh avlod uchun ibratdir.

Betakror ovoz sohidasi, O‘zbekiston xalq artisti
Kommuna aya Ismoilovaning yorqin xotirasiga

YODNOMA!

Kommuna aya – ustoz hech o‘lgan demang,
Xalqimiz qalbidan hech o‘chgan demang,
San’atga bir umr qilgan ijodi –
Oltin meros qolgan, hech so‘ngan demang.
Siz bugun ustozni eslab yod eting,
Yod etib, pok ruhini shod eting.

Gavharxon, Faxriddin, Yunus Rajabiy –
Buyuklar duosin oltin bilgandi,
Dillarni rom etib, kuylab qo‘shiqlar,
Xalqimiz sevgisin boylik bilgandi.
Siz bugun ustozni eslab yod eting,
Yod etib, pok ruhini shod eting.

«O‘zbekiston bulbuli» nomin olgandi,
Xalqimiz qalbidan joyin olgandi,
Nurli chehrasida doim tabassum,
Ko‘ngillarga qo‘shiq sehrin solgandi.
Siz bugun ustozni eslab yod eting,
Yod etib, pok ruhini shod eting.

Ey Hamidiy, mayli, qayg‘urmangiz ko‘p,
Ko‘ring, bugun uning shogirdlari to‘p,
Umrini san’atga baxsh aylabon xo‘p,
Go‘zal qo‘shiqlarin davomchisi ko‘p.
Siz bugun ustozni eslab yod eting,
Yod etib, pok ruhini shod eting.

Hamidjon Tohirjonov

OPA QO‘SHIQ KUYLAGANDA...

Opa qo‘shiq kuylaganda qalqirdi daryo,
Asov o‘zanlar mast, tinglar zamin-u ro‘yo.
Sayrashni bas qilar bir zum bulbullar go‘yo,
San’at ilmin mumtoz qo‘shiq bobin sardori opa!
Qurbon og‘a qizin «Ullibibim» deganda,
Kent ulug‘i bu qizni Kommuna deng degandi.
Qo‘shiq kuylab el g‘amini erta yegandi,
San’at ilmin mumtoz qo‘shiq bobin ori opa!
Ikki asr qo‘shiq ilmin in’omini qadrlab,
Ustozlardan anglab, tinglab, kuylab, adirlab,
Izdoshlarga o‘rgan deya juftlardingiz lab,
San’at ilmin mumtoz qo‘shiq bobin bori opa!
Ijroda derdingiz, kuyla, noz et, pardozlanib,
Qo‘shiq kuylash san’atin sevuvchiga yuzlanib.
Bor ilmingiz yuqtirdingiz kuyib so‘zlanib,
San’at ilmin mumtoz qo‘shiq bobin yori opa!
Derdi: Halima-yu, Gavhar, Mavluda, Bertaxonim,
Alar ijrosi menga malham, alar go‘yo jonim.
Qo‘shiq daryosida bor mening qonim,
Mumtoz san’at qo‘shiq bobin ruxsori opa!
Dedim: Xorazmni derlar san’atkorlar vatani,
Otaniyoz o‘g‘li Komiljonlar endi qani.
Bugun biling butun o‘zbekning Sizdir sha’ni,
San’at ilmin mumtoz qo‘shiq bobin tori opa!
Hur o‘zbekning diyorida qo‘shiq yashar, ey!
Mangulikga daxl borki qalbga shoshar, ey!
Qo‘shiq aytgan dilimizda uzoq yashar, ey!
San’at ilmin mumtoz qo‘shiq bobin betakrori opa!
Ey Nabiy onalar hurmatin qo‘y joyiga,
«Alla»siga boshing eggil poyiga.
Alishmam volidam kunning quyosh, oyiga,
Mumtoz san’at qo‘shiq bobin gul, gulzori opa!

Toshkent Madaniyat kolleji o‘qituvchisi
Nabijon Ermatov

BULBUL ARSH TOMON UCHDI

Ovoziga sehru jodu baxsh etgan Alloh,
Qo‘shiq aytsa, ko‘z yoshlarga el bo‘lgan guvoh.
Yo‘llaridan nurin yig‘may baxt atalmish moh,
Kommunaxon nomli bulbul arsh tomon uchdi,
Qo‘shiqlari qoldi, ruhi fanoga ko‘chdi.

Sinovlarning og‘riqlari dilga to‘kkan yosh,
Ko‘z kulsa-da qalb yig‘lagan, dard bo‘lmagan fosh.
Ustozlarning mehri tirgak egilmagan bosh,
Kommunaxon nomli bulbul arsh tomon uchdi,
Qo‘shiqlari qoldi, ruhi fanoga ko‘chdi.

O‘shal kunning shohidlari unutmas mangu:
O‘q yomg‘iri ostida ham kuylay olgan u.
G‘alabaga ishonch hissin dilga solgan u.
Kommunaxon nomli bulbul arsh tomon uchdi,
Qo‘shiqlari qoldi, ruhi fanoga ko‘chdi.

Qo‘shig‘ining parvozlari uni ulg‘aytgan,
Ijodkorlar davrasidan doim shod qaytgan.
Turfa-turfa ohanglangan ashula aytgan,
Kommunaxon nomli bulbul arsh tomon uchdi,
Qo‘shiqlari qoldi, ruhi fanoga ko‘chdi.

Baxtakorlar: Faxriddinu ikki Komiljon,
Doni, Said, Mamadaziz, Nabi ham Sulton.
Yunus ota e’tibori etgan maqomdon,
Kommunaxon nomli bulbul arsh tomon uchdi,
Qo‘shiqlari qoldi, ruhi fanoga ko‘chdi.

Olti maqom ijrosida nomi yodlanur,
Shogirdlarning yo‘llariga sochib turar nur.
So‘ngi nafas qolgunicha ishladi mag‘rur,
Kommunaxon nomli bulbul arsh tomon uchdi,
Qo‘shiqlari qoldi, ruhi fanoga ko‘chdi.

O‘zi yo‘qdir qo‘shiqlarda umri nurziyo,
Muxlislari, shogirdlari, aylaydi duo.
Nuriddinning yozgani ham Haqqa iltijo,
Kommunaxon nomli bulbul arsh tomon uchdi,
Qo‘shiqlari qoldi, ruhi fanoga ko‘chdi.

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi
Nuriddin Aminjon
7.11.2013

O‘ZBEKISTON RADIOSINING OLTIN FONDIGA YOZIB OLINGAN ASARLAR RO‘YXATI

Yillar	Asarlar nomi	Kuy muallifi	So‘z muallifi	Audio yozuv raqami (xranometraj)
1953	«Qizgina»	Xorazm xalq kuyi	Xalq	1849; ≈ 1,35[1]
1955	«Saratovskiye chastushki»	Svinkov qayta ishlagan	Xalq	2211; ≈ 2.25[1]
	«Kolxoznaya polka»	Novikov qayta ishlagan	Xalq	2213; ≈ 2.10[1]
	«Poydu vidu»	Rus xalq qo‘shig‘i	Xalq	2212; ≈ 3,25[1]
1956	«Hayron ayladi» *A.Mirzayeva bilan birga (duet)*	«Go‘ro‘g‘li» dostonidan	Xalq	4477; ≈ 2.30[1]
1959	«Ishchi qizlar valsi»	F.Nazarov	Yo.Mirzo	526; ≈ 3.20[1]
	«Yoshlik chog‘imda»	S.Jalil	H.Olimjon	6980; ≈ 2.55[1]
	«O‘ylanma»	K.Otaniyozov	A.Bobojon	149; ≈ 5.10[1]
	«Xayolim senda»	H.Rahimov	T.To‘la	833; ≈ 3.05[1]
	«Oq oltin karvon-karvon»	F.Sodiqov	Z.Obidov	1006; ≈ 3.35[1]
	«Terimchi qiz»	T.Jalilov	Habibiy	1115; ≈ 2.17[1]
	«Ishq kuyi»	F.Sodiqov	M.Qoriyev	541; ≈ 3.55[1]
	«Tabriklayman»	N.Hasanov, B.Gienko	R.Qosimxo‘jayeva	531; ≈ 4.50[1]
	«Vodiylaringdan»	G‘.Toshmatov	A.Po‘lat	155; ≈ 353[1]
	«Gulnora»	K.Otaniyozov V.Zudov qayta ishlagan.	A.Bobojon	1016; ≈ 255[1]
	«Meparvaram»	X.Izomov	Soliyev,	1017; ≈ 256[1]
1960	«Oyshaxon»	D.Zokirov	A.Po‘lat	4871; ≈ 3.30[1]
	«Ko‘l bo‘yida»	Qirg‘iz xalq qo‘shig‘i	Qirg‘iz xalq so‘zi	4458; ≈ 3.00[1]
	«Jonim aytaman»	S.Hayitboyev qayta ishlagan	Xalq	4483; ≈ 2.50[1]
	«Salom»	E.Rahimov	Xalq	4478; ≈ 2.30[1]
	«Ey chehrasi tobonim»	F.Sodiqov	Muqimiy	4311; ≈ 4.25[1]
1961	«Zebixon»	F.Sodiqov	Boborahim Mirzaev	11564; ≈ 3.30[1]
	«Xumoringiz bo‘laymu»	N.Hasanov	A.Isroilov	RDKS- 20195; ≈ 2.25[1]
	«Bir go‘zal»	F.Sodiqov	Mirtemir	6090; ≈ 6.28[1]

	«Песня девушек»	Rus xalq qo‘shig‘i	Xalq	5953; ≈ 4.45[1]
	«Savti Navo» *B.Davidova bilan (duet)*	Navo maqomidan	Nodira	8268; ≈ 7.00[1]
1962	«Do‘ppi tikdim»	S.Kalonov	T.To‘la	9189; ≈ 3.40[1]
	«Ufori Mug‘ulchai Navo»	Navo maqomidan	Munis	8774; ≈ 3.20[1]
1963	«Yor-yor»	G‘anijon Toshmatov	G.Jo‘raeva	9640; ≈ 3.55[1]
	«Shifokorlar»	K.Jabborov	P.Mo‘min	9639; ≈ 2.20[1]
	«Ushshoq Qashqarchasi»	Rost maqomidan	Nozima	9600; ≈ 5.40[1]
	«Qaysi biri» *M.Kenjayev bilan (duet)*	M.Nasimov	P.Mo‘min	9431; ≈ 3.35[1]
1964	«So‘lim baxor»	F.Sodiqov	A. Isroilov	11112; ≈ 5.10[1]
1965	«Alla»	N.Xasanov	N.Xolxo‘jayeva	11836; ≈ 6.45[1]
	«Gul»	M.Mamadaliev	S.Abdulla	11480; ≈ 2.55[1]
	«Zebo o‘lkam»	S.Kalonov	A.Isroilov	11090; ≈ 3.05[1]
1966	«Mirzacho‘lning qizlari»	D.Zokirov	A.Po‘lat	RD-17639; ≈ 3.00[1]
1967	«O‘zbekiston»	G‘. Qodirov	J.Jabborov	11169; ≈ 3.10[1]
	«Mehnat nashidasi»	F.Nazarov	YA.Qurbon	11122; ≈ 3.05[1]
1969	«Yor maktubi»	S. Safoyev	T.To‘la	RD-15035; ≈ 3.25[1]
1970	«Qo‘shig‘im bor»	S.Safoyev	O‘. Rashid	RD-16344; ≈ 2.20[1]
	«Yigitlar nori»	N.Hasanov, B. Brovsin	E.Rahim	RD-16271; ≈ 2.45[1]
	«Bilganmisiz»	B.Umidjonov	O‘.Rashid	RDKS-16496; ≈ 4.38[1]
	«Oshiqman»	S.Hayitboyev	M. Qoriyev	RD-16282; ≈ 2.10[1]
	«Hayo»	H.Rahimov	M.Qoriev	RD-16492; ≈ 4.10[1]
1971	«Olma»	D.Zokirov	Ahmad Bobojon	400; ≈ 3.45[1]
	«Hijron tuni»	S.Hayitboyev	H.Yahyoyev	RDKS-24249; ≈ 4.15[1]
	«San’at saodatimdir»	D.Zokirov	P.Mo‘min	RD-17934; ≈ 4.25[1]
1972	«Dutorim mening»	X.Turdiqulov	X.Niyoz	RDKS-19126; ≈ 2.15[1]
	«Durdona gul»	O. Qosimov	To‘lqin	RDKS-19188; ≈ 3.20[1]

	«Hajring tunida»	K.Otaniyozov	Xorazm xalq so‘zi	RDKS-18647; ≈ 2.10[1]
1973	«Talpinur dil»	S.Hayitboyev	Z.Obidov	RDKS-19642; ≈ 3.35[1]
	«O‘z-o‘zimga aytingiz»	M.Юsupov	P.Mo‘min	RDKS-19950; ≈ 3.30[1]
	«Keladi»	F.Nazarov	E.Rahim	RDKS-20029; ≈ 3.30[1]
	«Talqinchai Savti Chorgoh»	Dugoh maqomidan	Zavqiy	RD-19660; ≈ 5.20[1]
	«Bilmading»	B.Umidjonov	E.Samandarov	RDKS-19946; ≈ 3.55[1]
	«Qiz ko‘ngli»	O.Hotamov	H.Yahyoyev	RDKS-2011; ≈ 4.20[1]
	«Qashqarchai Mug‘ulchai Dugoh»	Xalq kuyi	Fuzuliy Dugoh maqomi	RD-19661; ≈ 3.25[1]
1974	«Gulmi yo ko‘ngil»	F.Alimov	SH.Umarxo‘jaeva	RDKS-22096; ≈ 3.35[1]
	«Sen yor uchun»	T.Jalilov	Manzurabonu	RDKS-21361; ≈ 3.50[1]
1975	«Qo‘shiq maftuni»	T.Azimov	M.Qoriev	RDKS-22384; ≈ 3.48[1]
	«Xayolimizda sizlar»	B.Umidjonov	Yo.Mirzo	RDKS-22481; ≈ 7.00[1]
	«Oshno demasmiz» *Nurxon Ermatova bilan (duet)*	F.Sodiqov	S.Abdulla	RDKS-22383; ≈ 3.15[1]
	«Vatan jilosi» *Tilash Xo‘jamberdiyev rahbarligidagi sozandalar ansambli bilan*	M.Mirzayev	H.Muhammad	RDKS-22445
1977	«Ey sohibi dil»	S.Hayitboev	T.To‘la	RDKS-23837; ≈ 5.20[1]
	«Talqinchai Savti Sarvinoz» *T.To‘rayev, Sh.Alimqulov, H.Yusupovalar bilan*	Buzruk maqomidan	Ogahiy	RDKS-23658; ≈ 5.30[1]

	«Soqiynomai Mo‘g‘ulchai Buzruk»	Buzruk maqomidan	Nodira	RDKS-23657; ≈ 4.25[1]
1978	«Ishq xotirasi»	Z.Mirolimova	M.Rahmonov	RDKS-25466; ≈ 4.42[1]
	«Netay»	S.Jalil	Ogahiy	RDKS-24817; ≈ 3.20[1]
	«Bir ishva bilan»	M.Murtazoev	Hamza	RDKS-24926; ≈ 5.42[1]
	«Qashqarchai Mo‘g‘ulchai Buzruk» *M.Dadaboyeva, R.Yo‘ldoshevalar bilan birga*	Buzruk maqomidan	Atoiy	RDKS-23492; ≈ 5.50[1]
1979	«Jon visoli koshki» *H.Yusupova bilan birga (duet)*	F.Sodiqov	Furqat	RDKS-24470; ≈ 5.48[1]
1980	«Ko‘rdim юzingni»	N.Hasanov	Mashrab	RDKS-27006; ≈ 3.17[1]
	«Izhor etmadim» *H.Yusupova bilan birga (duet)*	F.Sodiqov	Bobur	RDKS-26545; ≈ 4.05[1]
	«Loaqal»	F.Sodiqov	T.To‘la	RDKS-26546; ≈ 5.55[1]
	«Uralьsko-uzbekskaya ryabinushka» *A.Faynberg va V.Pecherina bilan birga (trio)*	Radigin	Xalq	RDOK-35586
1981	«Qalbimda o‘zing borsan»	R.Tursunov	N.Narzullayev	RDKS-20657; ≈ 4.00[1]
1982	«Qurt»	Xalq	Muqimiy	RDKS-27738; ≈ 5.12[1]
	«Ey munis onam»	S.To‘xtasinov	Ya.Qurbon	RDKS-27719; ≈ 3.50[1]
	«Tursunoy marsiyasi»	F.Sodiqov	Hamza	RD-17691; ≈ 3.05[1]
	«Kechirmas»	T.Jo‘raev	H.Yahyoyev	RDKS-27782; ≈ 3.45[1]
1983	«Tokay»	K.Jabborov	Uvaysiy	RDKS-28312; ≈ 4.10[1]

	«Maydonda ham yoring bo‘lay»	T.Jalil	S.Abdullay	RDKS-28410; ≈ 3.30[1]
	«Qoshing qarosi balo»	G‘.Toshmatov	Xalq	RDKS-28498; ≈ 3.50[1]
1984	«Gul o‘g‘lon»	Ojiza	Xorazm xalq so‘zi	RDKS-29044; ≈ 3.52[1]
1986	«Salom onajon» *O‘.Masharipova, E.Mirzayeva lar bilan birga*	M.Niyozov	Kamtar	RDKS-30947; ≈ 2.47[1]
1987	«Dugonajon»	S.Kalonov	H.Muhammad	12399; ≈ 2.20[1]
1988	«Fidoiy jangchilar»	A.Ismoilov	H.Muhammad	RDKS-33311; ≈ 5.00[1]
1990	«O‘rgilay»	F.Sodiqov	B.Mirzayev	RDKS-35591; ≈ 5.00[1]
	«Yoring bo‘lay»	T.Jalilov	S.Abdulla	RDKS-35590; ≈ 4.00[1]
	«Frontdan xat»	M.Niyozov	Kamtar	RDKS-35592; ≈ 3.58[1]
	«Kotella» *A.Ahmedov, R.Qurbonova bilan birga*	S.Mug‘anniy	Qurbon ota	RDKS-35579; ≈ 2.03[1]

E’ZOZGA LOYIQ...



Xalqimizning ma’naviy boyligi, tarixiy jarayonda yuzaga kelgan musiqiy merosning ulkanligi, albatta el orasida butun umrini ijodga bag‘ishlab kelgan insonlar ijodining samarasi ekanligi barchaga ayondir. Har qanday millatning g‘ururi darajasida e’zoziga aylangan betakror farzandlari bo‘lishi begumon. Meros, aslida bu - ijodiyot mahsulidir, ijro esa – musiqiy merosning jonli jarayoni, san’atkor – ana shu merosni avaylab asrovchi, avloddan-avlodlarga yetkazuvchi, jonli jarayonni tashkil etuvchi vositachisidir. Shu bois, musiqa san’atining vositachilari bo‘lmish sozanda-yu xonandalarning xalqimiz ma’naviy hayoti rivojidagi o‘rni beqiyos ekanligini e’tirof etish lozimdir. Vaholanki, ularning ijodi avvalo milliy qadriyat va an’analarni asrovchi hamda o‘tmish va zamonaviylik tamoyillarini o‘ziga xos go‘zal an’analar bilan davrga mos rivojlantiruvchisi sifatida ahamiyatli bo‘lsa, yoshlar ta’lim-tarbiyasida va soha muvaffaqiyatlarida ularning ta’siri ulkan va kelajak avlod uchun ularning ijodi ibrat bo‘lishi begumondir. Jo‘raxon Sultonov, Ma’murjon Uzoqov, Komiljon Otaniyozov, Halima Nosirova, Saodat Qobulova, Tavakkal Qodirov, Faxriddin Umarov, Orifxon Hotamov kabi betakror san’atkorlarning ijodi va ijrochilik yo‘llari bunga yorqin misol bo‘la oladi.

O‘tmishda faoliyati bilan xalq nazariga tushgan va ijodi bilan el orasida dovruq qozongan har bir ustoz san’atkorning ajralib turadigan bir qator jihatlari bo‘lgan. Faoliyatlari davomida sozi va ovozi, talqini va mehnatlari evaziga olgan bilimi asosida o‘z ijro yo‘li, ijod namunalari yuzaga kelgan. Xalqimiz anashu xislatlar bilan sug‘orilgan san’atlarining shaydosi bo‘lib kelgan. Ularning beminnat va beg‘ubor ijro san’atlari xalqimizning dilini, ruhiyatini in’ikos etganligi bilan xalq e’zoziga aylangan. San’atkorlarning xalq an’analari asosida shakllangan merosi, bu avvalo o‘tmish ustozlarning koru-amali va ularning munosib davom ettirilishi bilan izohlanadi. Zero, zamonaning ustoz san’atkorlari an’ana davomchilari, xalqimiz qadriyatlarini avloddan-avlodlarga o‘tish jarayonidagi bamisoli ko‘prikdirlar. Hamma gap musiqiy merosning davomchilari bo‘lgan, el tanlagan san’at namoyandalarining ma’naviy dunyosi, darajasi, mahorati va el oldidagi

obro‘sidadir. San’atkor ko‘p, lekin xalq e’zozi darajasida ardoqlanadiganlar sanoqli ekanligini xalqning o‘zi belgilab beradi. Shu bois bo‘lsa kerak, xalqimizning ma’naviy buyukligi darajasida an’analarni davom ettirish har tomonlama mas’uliyatli va sharaflidir. Lekin, bunga erishish nihoyatda mashaqqatli, ammo zavqli ekanligini unga erishganlar biladi. Doimo xalq nazarida bo‘lish, ularni olqishini olish, mehrini qozonish, e’tiborda bo‘lish, hurmatu-izzatda bo‘lishning barchasiga erishishning zaminida, yuqorida aytilgan mashaqqatli mehnat yotadi. Buni uddasidan chiqqan san’atkor uchun mehnatlarning natijasi sharafga aylanadi. Pirovardida, xalqning o‘zi uni e’zozlaydi, qadrlaydi va abadiy dilida saqlaydi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, ustozlar o‘gitlarini yoshlar ongiga singdirish, ular asosida zamonaga mos ijod etish o‘z samarasini namoyon etib kelgan. Ustoz san’atkorlar ijodini o‘rganish va kelajak avlod uchun ibratli manba sifatida taqdim etish, yuksak ma’naviyatimizning rivojidagi amallar qatoriga kiradi.

Musiqa san’ati dunyosida, elimizning ma’naviyati yo‘lida xizmat qilib, uning e’zoziga aylanib, doimo ardog‘iga loyiq bo‘lgan san’atkorlar unchalik ko‘p emas. Lekin, ularning har birini ijodi, ijrosi va qaysidur darajada qoldirgan merosi o‘zining ulkanligi va ibratliligini namoyon etib turadi. Kommuna Ismoilova ham umrini san’atga bag‘ishlagan, o‘zining betakror ovozi va xonishlari bilan xalqimiz dilidan va merosidan o‘rin olgan ana shunday buyuk san’atkorlardan biri edi deyishga haqlimiz.

Kommuna Ismoilova darhaqiqat betakror va zabardast san’atkormi? Uning zabardastligi nimada? Musiqa san’atining sehrli dunyosida qanday o‘zligini topdi? Yoki, faqat ovozining betakrorligi, ustozlar xususida omadliligimi? Bunday savollar berishga haqlimiz. Chunki, har bir ustoz san’atkorning mashaqqatli faoliyatining shakllanishi va elga manzur qilishi zaminida o‘z o‘zidan bunga amaliy javob shakllanishi shart, Bo‘lmasa ustozlik maqomiga erishishi mushkil. Bu borada Kommuna Ismoilovaning bir qator o‘ziga xoslik jihatlari, xalqimizning qalbida ularning siymosini aks ettiradigan o‘ziga xoslik jihatlari mavjudki, ularni tinglaganing o‘zida kishi nazdida Kommuna Ismoilovaning siymosi shakllanadi. Bular:

– Eng avvalo, albatta xonandaning jozibali ijro talqini. O‘ziga xos ovoz va uning tarannumidagi joziba, go‘zallik, nafosat va purma’no mehr bilan sug‘orilganligi. “O‘g‘lima o‘xshaydi ovozing sani”, O‘ylanma”, “Yoshlik chog‘imda”, “Oq oltin karvon-karvon”, “Shifokorlar”, “Ey chehrasi tobonim”, “So‘lim bahor”, “Ey sohibi dil”, “Tokay”, “Bir go‘zal”... bularni soni juda ko‘p. Lekin ijro betakror, go‘yoki Kommuna opa qo‘shiqlar sehriga parvonalardek, samoda navo bilan uchib yurgandek kuylaydi. Shu bois, bu san’atkorning betakror talqinini “nazira(taqlid)”-chilar zabt eta olganicha yo‘q. Darhaqiqat, Kommuna Ismoilovaning xonishida uyg‘unlashgan ush-bu talqiniy-estetik mezonlar majmui, uning betakror ovoz sohibi ekanligi va zamonasining zabardast ustozlarini sabog‘i ila sug‘orilgan ustozona ijro sohibi ekanligini namoyon etib turadi;

– Ikkinchidan – ijro repertuar, ya’ni xonandaning umri davomida o‘zlashtirib ijro etgan, xonandalik faoliyatidan o‘rin olgan musiqiy namunalardir. Bu borada Kommuna Ismoilovaning

ijro repertuarining serqirraligi, baynalminalligi, xalqonaligi va mumtozligi hech kimga sir emas. Oddiy xalq qo‘shiqlaridan maqom taronalarigacha, xorazm doston yo‘llaridan farg‘ona yallalarigacha, xorazm vohasi suvoralaridan – vodiy katta ashulasigacha, bastakorlar asarlaridan xalq maqom yo‘llarida yaratilgan ashulalargacha, qardosh xalqlar qo‘shiqlaridan jahon kompozitorlari romanslarigacha o‘ziga xos talqinini topganligini e’tirof etish mumkin. Саратовские старушки”, “Пойду выду», «Песня девушек» kabi rus xalq qo‘shiqlarining naqadar jozibali va jonli talqini hali-haligacha tinglovchilar e’tiborida.

– Uchinchidan – o‘zbek musiqa san’atida ustoz sifatida obro‘-e’tiborga ega bo‘lganligi. Albatta qayd etish joizki, Kommuna Ismoilova ustozlardan juda katta omadi kelgan san’at namoyandasidir. Faxriddin Sodiqov, To‘xtasin Jalilov, Saidjon Kalonov, Komiljon Otaniyozov, Komiljon Jabborov, Yunus Rajabiy, Jo‘raxon Sultonov, Ma’murjon Uzoqov kabi zamonasining bir qator san’at darg‘alarini ta’limini olganligini e’tirof etish lozim. Ayniqsa, aytish joizki, bu bastakorlarning aksariyati Kommuna Ismoilovaning shaxsiy talqinini inobatga olgan holda asarlar yaratganliklari manba’larda zikr etilgan. Demak, Kommuna Ismoilovaning ijrochilikda erishgan talqini, zamon bastakorlarining an’analari bilan sug‘orilgan. Qaysidir ma’noda ularning uslubiy jihatlarini, ijrochilikdagi an’analarini davomchisi ham deyish mumkin;

– To‘rtinchidan – xonishda ijro yo‘lini topib samarali ijod etganligi. Darhaqiqat ijro yo‘lining xalqimiz ruhiyatiga juda mutanosibligi va har qanday tinglovchini o‘ziga maftun eta olishi. Bu borada ko‘p va xo‘b gapirish mumkin;

– Beshinchidan – o‘tmish san’at darg‘alari kabi sershogird. Ya’ni, Kommuna opaga havas qilgan xonandalar juda ko‘p. Quvonarli tomoni shundaki, nafaqat zamonamizning ko‘zga ko‘ringan ayol xonandalari, balki maqom ansamblida faoliyat olib borgan ko‘pchillik xonandalar ham Kommuna opani uztozdek ko‘radilar. Ayni paytda hofiz va xonandalarning ijro talqinlari juda boy bo‘lishi zamonaning talabi bo‘lib qoldi. Talqinda joziba va bilim bo‘lmasa tinglovchini hayratiga erishish mushkil. Shu bois zamon xonandaligida ustozlar ijro an’analarini puxta egallash taqozo etiladi. Muhimi, Kommuna Ismoilova shogirdlar borasida juda boy va ularga nisbatan oliyhimmat edilar. Ustoz butun umr ijrochilik bilan shug‘ullanibgina qolmay, o‘z ijro yo‘lini davomchilarini tarbiyalashga ham katta e’tibor bergan saxovatli ustozdir. Zamonaviy ijro amaliyotida behisob shogirdlarni savodli ijroga yetaklashga muyassar bo‘ldi. Mehri Bekjonova, Zulayho Boyxonova, Zamira Suyunova, Komila Aminova, Sanobar Karimova, Tojibar Azizova, Maqsad Yunusova, Sharofat Tojiboeva kabi san’atimiz ko‘zgulari opaning izdoshlari ekanliklarini faxr bilan zikr etadilar;

– Oltinchidan – o‘zbek musiqa san’atida ibrat darajasida obro‘ va e’tibor qozongani, uning zabardastligini nishonasi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Muallif Abduqahhor Jalilov taqdim etayotgan qo‘limizdagi kitob, ana shu ajoyib san’atimiz onaxonining ijodiy faoliyatiga bag‘ishlangan. Xususan, o‘z ijodi bilan musiqiy merosimiz sahifalariga katta ulush qo‘shgan, avlodlar tarbiyasida o‘zining betakror ijrosi, ijro etgan yuzlab qo‘shiq va

ashulalari bilan o‘rnak bo‘la olgan, O‘zbekiston xalq artisti Kommuna Ismoilovaning serqirra ijodi ochib berilgan. Zero, yosh avlod san’atimiz darg‘alarining ijodi bilan tanishsinlar, musiqa ijrochilik amallarini o‘zlashtirish jarayonida ibratli xonandalarning ijrolari, ijro yo‘llari va ijro etgan musiqiy namunalarini o‘rgansinlar. Hozirgi fan va texnologiyalar rivojlangan, ommaviy san’at keng qamrovda ildamlashib borayotgan bir davrda, xalqimizning qadriyatlari, musiqiy an’analari, musiqiy meroslarini o‘rganish va yoshlar orasida targ‘ib etish muhim ahamiyatga ega bo‘lgan sharafli ish. Zamon ruhida ijod etayotgan har bir yosh avlod o‘tmish an’analarini yaxshi idroklagan bo‘lishi, kelajakning benuqsonligi va yoshlarning har tomonlama bilimdon bo‘lishlarining garovidir.

Soibjon Begmatov,
musiqashunos



KOMMUNA ISMOILOVA SHOGIRDLAR NIGOHIDA

O‘ zbekiston xalq artisti **Mehri Bekjonova**

USTOZIM HAQIDA



«Ustoz otangdek ulug‘» deyishadi. Albatta, shunday. O‘zbekiston xalq artisti, xalqimiz sevgan san’atkor Kommunaxonim Ismoilova haqida qancha gapirsam shuncha oz. Ular, menga nafaqat ustoz – ham ijodda, ham hayotda o‘z o‘rnimni topishimda o‘zlarining mehribonligi, jonkuyarligi, talabchanligi, o‘gitlari bilan hissa qo‘shgan onajonim edilar. Esimda, 1979-yil o‘rta maktabni tamomlab, Ostrovskiy nomidagi Teatr va rassomchilik san’ati institutiga o‘qishga kelganimda, aktyorlik mahorati bilan birgalikda an’anaviy ijrochilik, ya’ni klassik – maqom qo‘shiqlarini o‘rgana boshladim. Bunda menga jon dillari bilan yordam bergan maqom ijrochiligini, qo‘shiqni yurakdan kuylashni o‘rgatgan ustozim Kommuna aya Ismoilovadirlar. Ular menga o‘zlari kuylagan «Galdir», «Qashqarchai Ushshoq», «Mehnat bilan», «Kelmas», «Mehnat ahli», «O‘zbekistonda» kabi ko‘pgina qo‘shiqlarni, maqom, katta ashulalarni o‘rgatganlar. Kommunaxon ayam, televideniyedami, institutdami yoki katta sahnalardami, qo‘shiq ijro etganimda liboslarimdan tortib pardozlarimgacha, taqinchoqlarimgacha o‘zlari ko‘zdan kechirib, «qizim, sen maqom, katta ashula aytasan, sahnaga shunchaki chiqmagin, shunday yurakdan kuylagin-ki, seni eshitgan tomoshabin sel bo‘lib ketsin» – derdilar. Ustozim rahbarligida ko‘pgina konsert dasturlarida televideniyeda «Oltin fond»ga yozib olingan «Nazm va navo» turkumidan «Uvaysiy lirikasi», «Nodira lirikasi» ko‘rsatuvlarida qatnashib, ustozim o‘rgatgan qo‘shiq, maqomlardan ijro etdim. Ayniqsa, «Mehnat ahli» katta ashulasini Maqsad Yunusova bilan hamnafas bo‘lib ijro etganimizda, meni shogirdlarim, deb xursand bo‘lib, duolar qilganlar. Men shunday ustozim bo‘lganidan faxrlanaman.

O‘zbekiston xalq hofizi **Hasan Rajabiy**

BAXMAL OVOZ SOHIBASI



Buyuk ustozlar o‘gitini olib, o‘zi ham ustozga aylangan baxmal ovozli, xalqimizning sevimli hofizasi, ashulachisi Kommuna Ismoilova bilan birga otam, akademik Yunus Rajabiy tashkil etgan va so‘nggi yillar uning nomi berilgan O‘zbekiston Teleradiosining «Maqom» ansamblida 20 yil mobaynida birga ishlash, u bilan hamnafas bo‘lib, o‘zbek xalq maqomlarini kuylash, tanburim bilan unga jo‘r bo‘lganimdan behad shodman. Bu dilbar ayol butun dunyodagi millionlab musiqa shinavandalarini o‘z ovozi bilan sel qilib, o‘ziga rom etib, sehrlab qo‘yishini bilganim, ko‘rganim ham men uchun katta baxt edi.

Ehtimol oiladagi muhit sababchidir, balki ko‘ngil maylidir – bolaligimdayoq menda musiqa san’atiga, cholg‘u kuylariga, ashula va qo‘shiqlarga alohida bir qiziqish paydo bo‘ldi. Eng sevib tinglaydigan ashulachilarimdan biri esa Kommuna Ismoilova edi va hozirgacha ham shunday bo‘lib kelayapti. Cheksiz musiqamiz ummonidagi ohanglar jilosi, she’riyat ta’siri, hayotning go‘zalligi, maftunkorligi ortgani sari shuning qadriga yetgani sari uning so‘nggi yillardagi ijrolaridagi jilolari, ta’suroti ortib bordi. Endi o‘zining nomdor shogirdlari ovozlarida ham yangray boshladi. So‘ngi yillarda u mashhur ustoz Turg‘un Alimatov tanburi jo‘rligida aytgan «Ey sohibi dil» yoki o‘zbek maqomlaridan «Ushshoq qashqarchasi» singari aytgan ashulalarida joziba, nolalar jilolari, nozik qochirimlar yana ham murakkablashib, ashulalarining ta’siri yanada kuchayganligini sezganmiz. Kuylarni ijro etishida To‘ychi hofiz, Domla Halim, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Yunus Rajabiy, Rasul Qori Mamadaliyev, Fattohxon Mamadaliyev, Mavluda A’zamova, Faxriddin Sodiqov singari eng mashhur va eng mohirlik darajasiga yetib, o‘zbek xalq kuylari, ashula va qo‘shiqlarini dovrug‘ini butun dunyoga yoyib, targ‘ibot etdi. Shuning uchun men Kommunaxonim Ismoilovani o‘z xalqining sevimli san’atkorilari, beqiyos, betakror ijrochilari qatorida turgan, dunyodagi eng noyob ayol ovozlaridan biri edi degim keladi. Chin dildan yurakdan berilib, bor san’atini xalqiga, millatiga, ustozlariga bo‘lgan cheksiz muhabbatini izhor etgani singari mohirona ijro etgan o‘nlab ashulalari o‘zbek xalqining oltin merosi bo‘lib qoldi. Endi shu betakror ijrolar O‘zbekistonning oltin musiqiy fondida avaylab saqlanadigan va mangu kuylanuvchi o‘zbek milliy musiqiy asarlari durdonalari, namunalari qatoridan o‘rin olgan.

Musiqiy merosimizning ulkan hazinaboni akademik Yunus Rajabiy yuqoridagi ijrolar singari o‘zbek milliy kuylariga baho berar ekan: «Butun dunyo musiqasining durdona, sarchashma asarlari qatorida, o‘zbek xalqining milliy ohanglarining alohida, eng yuqori pog‘onalarni egallagan o‘rni bor» – derdilar. Boshqa millatlardagi ajoyib, go‘zal musiqiy asarlari qatorida, o‘zbek xalq ohanglarining inson ruhiga shifobaxsh, ta’siri va o‘zining boyligi, beqiyosligi, betakrorligi jihatidan qaralsa – bu menimcha hali ochilmagan qo‘riq singari, endi ochilayotgan g‘unchadek turibdi, ochilgach ham uning yana tengsiz, eng go‘zal xonishlar qila oladigan bulbullari juda ko‘pdir. Bu bulbullar eng chiroyli jilolar, nolalar bilan yuraklarga orom beruvchi Samarqand va Buxoro, Xorazm va Surxondaryo, Qashqadaryo va Sirdaryo, Toshkent va Farg‘ona vodiysi, Andijon, Marg‘ilon, Qo‘qon, Namangan va jannatmakon O‘zbekistonning boshqa turli shaharu qishloqlaridagi sayroqi bulbullari shunday xonishlar qilmoqdalar. Har qancha maqtab, g‘ururlanib yozsak beqiyos musiqiy ohanglarimiz, arziydigan ijrochilarimiz borki, ular haqida hikoyalar, dostonlar, romanlar, epopeyalar, musiqali dramalar ham yaratsak arziydi.

Shunday maqtanib, g‘ururlanib yozsak arziydiganlardan biri Xorazmdan, yoshligidayoq Toshkentga kelib, ijod qilib, ajoyib, go‘zal ijrolari, katta unvonlaru xalqning sevimli ashulachisi, bulbulni ham lol qoldirgan benazir ijrochimiz Kommunaxonim Ismoilovadir. Xalqimiz bunday ovoz sohibalariga «Xudoning o‘zi bergan, yuqtirgan», – deb eng oliy, Yaratuvchining hukmi, irodasi deya ulug‘lanadi, baho beriladi. Darhaqiqat, Kommuna Ismoilova baxmaldek mayin, nafis, dillarni allalovchi hayotbaxsh, kishilarni o‘ziga rom etib, sehrlab qo‘yuvchi, o‘ziga xos dardli, har tomonlama me’yorli, nafasi issiq, yoqimli ovoz sohibasi edi. Bir kuni ustozi Yunus Rajabiy, Rost maqomidagi «Ushshoq qashqarchasi»ni Nozimaxonim g‘azali bilan aytiladigan bo‘lgani uchun shu ajoyib ashulani ayni Kommunaxonimga ishonib topshirdilar, hirgoyi qilib o‘rgatdilar. 1-2 kun o‘tib shu ashulani undan aytib berishini so‘raydilar. F.Sodiqov rahbarligidagi sozandalar ansambli kuyni chala boshlaydilar. Kommunaxonimga «Qanday aytarkin», – deb ko‘z tikib turgan nomdor hofiz-u, hofizalar o‘rtasida Yunus Rajabiyning o‘zi «shu ashulani aytib beringchi?», – deb so‘raganidan ruhlanib, bor san’atini, ovozini katta yuragini ishga solib, ustoz o‘rgatgandek Nozimaxonim qiyofasiga kirib shoiraning o‘zi bo‘lib ayta ketdi. So‘zning kuyi uzukka ko‘z qo‘ygandek ravon tushgani, undagi chuqur mazmun, so‘zning va kuyning go‘zalligidan ta’sirlanib, ustozining ko‘rsatgan eng nozik qochirimu-nolalariga o‘zining ham katta qalbidagi sevgisining naqadar kuchliligini izhor etayotgandek berilib aytardi. O‘zi shunday ham go‘zal nolakor ashulaga o‘z dilidagi sevgi iztiroblarini ham, o‘z dardini ham aytayotganidek badiha qilib, ustoz o‘rgatgan nolasiga yana o‘zining qalbida saqlab qo‘ygan ikki-uchta qochirimlarini qo‘shib, yanada jilolantirib yubordi. O‘tirganlarning yuzlarida mamnunlik, san’atiga tasanno aytayotganlarini, chaqnab turgan ko‘zlari, imo-ishoralaridan ham bilsa bo‘lardi. Yuzida nim tabassum, ko‘zlarini yumib turib, qoshlari ostidan gohida shogirdlari yuzlarini ko‘zdan kechirib turgan piri ustoz, ashula tugagach, xursand bo‘lib: «E, balli, otangga rahmat! Men Kommunaning

shunisiga bormanda! Ko‘rdinglarmi ashulaga chin dildan berilib, so‘zlarini lo‘nda, tushunarli, mazmuniga ko‘ra, undan ta’sirlanib, yana men ko‘rsatgan nolalarimga, o‘z qalbi, dardu-hasratini ham qo‘shib, kuy yo‘lini yanada ta’sirchan juda me’yoriga keltirib aytdi. Demak, gap ovozning o‘ta yuqori yoki pastroqligida ham emas ekan. Gap yurakda! Ovozni va qochirimni o‘z joyida, me’yorida, chin dildan berilib aytganida, ishlata bilganligida. Shoiraning hayotini ham bilib olib, shoira qiyofasiga kirib, berilib aytganida edi. Ma’suliyatni seza bilganligida, ashulani o‘ziniki qila olganligida edi. Yashang Kommunaxonim!

Qani edi hammangiz ham o‘zingizga topshirilgan asarni, aytgan vaqtida tayyor qilib shunday joziba bilan aytib bersalaringiz, ishlarimiz yanada yurishib ketar edi. Ovoz eshakda ham, xo‘rozda ham, bulbulda ham bor. Sizlar bulbulga o‘xshang! Nolasi o‘rinli, xar jihatdan go‘zal ijro eta olgan ashulachini men bir yashnab turgan yaxshi mevali daraxtga o‘xshataman. Beo‘xshov, quruq, dardsiz, befarq aytilgan ijroni men katta qurib qolgan daraxtga o‘xshataman. Men bir ashulani qaysidir bir hofizga topshirmoqchi bo‘lsam uni eplab, go‘zal tarzda aytib berishi mumkin bo‘lgan, shunga kuchi yetadigan ashulachini tanlab, ishongan shogirdlarimga topshiraman.

Ashula yo‘lini hirgoyilab ko‘rsatib beraman, nolayu qochirmalarini ham bir necha bor ko‘rsatib ham beraman.

Endi u yog‘iga ashulani o‘zlashtirib olish, jilo berish asarni hammaga yoqadigan qilib aytish ashulachining o‘ziga ham bog‘liq. Bunda, albatta bachkana, beo‘xshov qochirimlar ketmaydi. Ashulaga nola shunday yopishib tursinki, odamlarni yurak torlarini tebratib yuborsin. Buning uchun ashulachining ijrosi, eng avvalo, o‘ziga ma’qul kelishi, yoqishi, shu bilan birga, asl shinavandaning bahosiga, unga nisbatan e’tiborini hisobga olish kerak. Kommunaning hozirgi aytgan ashulasini men xuddi yaxshi uzum novdalarining barglari ostida pishib turgan, oltin tusga kirgan, bol tomayotgan katta bir bosh husayni uzumga, shinavandani esa unga qarab uzib olgisi, og‘ziga solgisi, uni yegisi kelgan kishiga o‘xshataman. Aslida yomon kuy, ashula yo‘q, desak bo‘ladi. Aksincha «yomon ijrochi bor» – degan gapda jon bor. Siz ijrochining eng yaxshisi bo‘lishga intilmas, harakat qilmas ekansiz, yaxshisi bu sohani tark etib, o‘z holiga qo‘ying degim keladi» – dedilar Yunus dodam va gaplarida davom etdilar, – «shinavandalarning nozik ko‘nglini buzmang, bulbul bo‘ling, oltin don, oltin boshoq bo‘ling. Kommunaning bu ashulasi yozish uchun tayyor bo‘lib yetilibdi, bir soatdan so‘ng ovoz yozish studiyasiga tushib shu ashulani yozdiramiz!...»

«O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist» unvonini olganimda – degandilar Kommuna opa meni tabriklash uchun uyimizga piri ustoz Yunus Rajabiy, Fahriddin Sodiqov, Komiljon Otaniyozov, Tamaraxonim, Gavharxonim, Tavakkal Qodirov, Faxriddin Umarov, Shahodat Raximova, Halima Nosirova, Mavluda A’zamova va boshqa ko‘pgina ko‘zga ko‘ringan sozandalar orasida Yunus otam meni yoniga chaqirib, peshonamdan o‘pib tabrikladilar va «Ota-onangizni ham chaqiring», dedilar. – Ota-onam ustozni oldilariga kelishganda: – «Shu Kommunaga o‘xshagan qizlaringizdan yana birini tug‘magan ekansizlar-da, san’atimizga yana bir porloq

yulduz nurini sochardi. Madaniyatimizning yanada rivoji ortardi, ko‘p hissasi qo‘shilardi! Ismoilovlar familiyasini Kommuna butun olamga yoyajak!» – deb onamlarning ham peshonalaridan o‘pib, otam bilan quchoqlashib ko‘rishgan edilar. Shunday ulug‘ zotlarning o‘rtasida piri ustozning aytgan shu gaplari ota-onamni ko‘nglini tog‘dek ko‘tarib, quvonganlarini ko‘rsangiz edi. Onam ko‘zida sevinch yoshlari yaltirab, hammani duo qildilar. Shu kuni ajoyib suhbatlar, qizg‘in gaplar o‘rtasida go‘zal kuy va ashula, qo‘shiqlar ham aytildi. O‘sha kecha hech esimdan chiqmaydi», – deb eslagandilar Kommunaxonim. Mana shunday ustozlarni ko‘rgan, ularning yo‘l-yo‘rig‘iga itoat etgan, jon-dilidan hurmat qilgan, san’atning mashaqqatli so‘qmoqlarini, cho‘qqilarini zabt etib, har qanday qiyinchiliklarni ham yengib, o‘zbek musiqasi uchun jonini, hayotini fido qila olgani uchun ham Kommunaxonim o‘zining yuksak mavqeiga, xalq sevgisiga, sevinchiga erishganlar, albatta.

O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi, fahriy professor **Temur Mahmudov**

USTOZIMIZ KOMMUNA AYA!



Mening san’atkor bo‘lib yetishishimda Kommuna opamning xizmatlari beqiyosdir. XX asr 50-yillarining ikkinchi yarmida Kommuna opa men qatnaydigan pionerlar uyida yosh istedodli qiz va yigitlarni yig‘ib, ularga ustozlik qilardilar. Ularning orasida Dilorom Qayumova, Inobat Toshmatova, Ozoda kabi ovozli qizlar ham bor edi.

Opa ularga o‘sha davrdagi o‘z repertuarlaridagi ashulalarni va maqom yo‘llaridagi ashulalarni va Xorazm laparlarini qunt bilan o‘rgatar edilar. Maktab ta’tillari vaqtida, Nanay qishlog‘ida joylashgan lagerimizda biz bilan dam olar va atrofdagi qishloqlarda konsertlar berar edik. Bu konsertlarda ularning shogirdlari va oxirida o‘zlari ham ashulalar aytib katta olqishlarga sazovor bo‘lar edilar.

Opa bizlarga «san’at yo‘lida borsangizlar albatta o‘qinglar» – deb tinmay takidlar edilar.

Shundan so‘ng men Xamza nomidagi bilim yurtiga, Dilorom Qayumova San’at institutiga, Inobat va Ozodalar konservatoriyaning tayyorlov kursiga o‘qishga kirdik.

O‘qish jarayonida men Muqimiy nomli teatrda sozanda va musiqa raxbari bo‘lib ishladim. Taqdir kulib menga yana Kommuna opa bilan birga «maqom» ansambilida ishlash nasib etdi.

«Maqom» ansamblida ham ustoz yoshlarga murabbiylikni davom ettirdilar. Maloxat Dadaboyeva, Hadya Yusupova, Raxima Yo‘ldosheva keyinchalik Matluba Dadaboyeva, Komila Aminova kabi yoshlarga o‘z mehnatlarini ayamadilar. 1980-yillardan boshlab Mannon Uyg‘ur nomli san’at institutida Kommuna opa bilan birgalikda yoshlarga durdonamiz bo‘lgan maqom

yo‘llaridan, bastakorlar asarlarini o‘rgatar edik va an’anaga aylangan «Nazm va Navo»ni televideniya va radio uchun maxsus tayyorlardik.

Institutda opani 55 yillik tavallud yubileylarini katta tantana bilan shogirdlari ishtirokida o‘tkazdik. Institutda ustozdan ta’lim olgan hozirgi kunda O‘zbekiston xalq artistlari Mehrixon Bekjonova, Zulayho Boyxonova, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar: Tojibar Azizova, Sharofat Tojiboyeva, Munojat Teshaboyeva keyinchalik Nilufar Saidova, Mavluda Turdiyeva kabilar hozirgi kunda san’atimiz yulduzlari bo‘lib xizmat qilmoqdalar. 1988 yilda ustozning 60 yillik to‘ylarini Xorazmda, O‘zbekiston xalq artisti Gavxar Raximova raxbarligidagi «Zebo Ganiyeva» ansambli sozandalari va xonandalari bilan tantanali o‘tkazgandik. Va besh yil avval 80 yillik yubileylarini zobitlar uyida, harbiylar va san’atkorlar bilan tantanali o‘tkazildi.

Mana 55 yildan beri men ustoz bilan yelkama-yelka qaysi san’at dargohida bo‘lmasin, birga ishlab ijod qilib keldim.

Ustoz Fahriddin Sodiqov Kommuna opaning iste’dodiga ko‘p yaxshi gaplarni menga aytar edilar. «Men bastalagan qo‘shiqlarni faqat Kommunaxon ko‘ngilga yetkazib beradi va maromida ijro etadi».

Ustoz Kommuna Ismoilovaning bosib o‘tgan ijod yo‘llarini musiqashunos olimlarimiz tomonidan hali yozilmagan ko‘p ajoyib kelajak avlod uchun qo‘llanma va darsliklarni kutamiz.

O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti **Olmaxon Xaitova**

XORAZM DIYORINING SADOQATLI FARZANDI



San’atni ramziy ma’noda chamanga, turfa rangli bir gulshanga o‘xshatishadi. Bu ayni xaqiqat! Chamanda bulbullar ko‘p bo‘lgani kabi, ser hikmat san’at gulshanida ham o‘zining qo‘shig‘i va kuyini kuylab yurgan bulbul nafas san’atkorlar ko‘p. Bu gulshanni o‘rtamiyona besh o‘nta qo‘shiq kuylab tirikchilik manbaiga, shunchaki ko‘ngil ochish maskaniga aylantirib yurganlar ham san’atkorman deb ko‘krak kerib san’atni bepisand qiladiganlar ham oz emas.

San’atni o‘zining hayoti, e’tiqodi, iymoni deb bilib, unga umrini baxshida etganlarni el yurtiga, Vataniga sitqi dildan xizmat qiluvchilarni haqiqiy desa bo‘ladi. Xalq ularning kimligini ham, kimni hurmat qilishni va kimni qo‘shig‘ini eshitishni ham o‘zi yaxshi biladi. Ustozim Kommuna Ismoilova xuddi ana shunday, diyoriga sadoqatli, elim deb yonib yashaydigan, unga xizmat qilishni o‘zining oliy burchi deb hisoblaydigan ulkan san’atkordir. Ustozim Kommuna opa ikkinchi jahon urushi yillarida (1941-1945), hali 15 yoshga kirmagan davrida ulug‘ san’atkorlar Tamaraxonim, Halima Nosirova,

Gavhar Raximovalar bilan birga urush bo‘lib turgan davrda akoplarda askarlarimizning ruhini ko‘tarish uchun konsertlar berib, nafaqat Xorazm, balki butun o‘zbek san’atini namoish qilib, urushda qatnashgan san’atkorlardan hisoblanadi. Kommuna opa o‘zbek qo‘shiqchilik san’atining yulduzlari: Xalima Nosirova, Tamaraxonim, Saodat Qobulova singari mashhur san’atkorlar bilan orqama keyin san’atga chiqib kelgan san’atkorlar qatorida tilga olinadi.

Men Kommuna Ismoilova o‘zbek san’atini zo‘rligini o‘zining betakror qo‘shiqlari bilan namoyish qilgan ustozim bo‘lganidan faxrlanaman.

O‘zbekiston xalq artisti – **Z.Suyunova,**
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist – **A.Xoltojiyev**

USTOZ KOMMUNA ISMOILOVA



San’at dunyosida ko‘ngil degan bir daryo bor. Mana shu daryoning mavjidan qo‘shiqlar tug‘iladi, kuylar yaraladi. Shunday qo‘shiqlar borki, yillar o‘tgani sayin yanada dilga yaqinlashib boraveradi. Ana shunday qo‘shiqlarning ijrosi, umrining go‘zal damlarini san’atga bag‘ishlagan xonandalardan biri ustoz Kommuna Ismoilovadir.

Z.Suyunova: hali jajji qizaloq davrimdayoq san’atning sehrli olamiga kirib qolganimning boisi albatta, qator ustozlarimizning radio orqali taralgan qo‘shiqlarining kuchiligi shak-shubhasizdir.

O‘zbekiston xalq artistlari K.Ismoilova, Berta Davidova, O.Alimaxsumov, S.Qobulova, H.Oxunova, N.Yusupova (ehe, ularning nomlarini uzoq yozish mumkin) kabi san’atkorlarning qo‘shiqlarini eshitib katta bo‘lganmiz.

Ayniqsa Kommuna opa ijro etgan qo‘shiqlar rang-barangligi, jozibasi, dardlari ohanglari bilan o‘ziga tortar edi va men bolaligimdanoq ularga taqlid qilib kuylashga harakat qilar edim. Bulardan – «Barno yigit», «To‘linoy», «Diyorim», «Bolama o‘xshaydi» va hokazo qo‘shiqlar.

1979 yil O‘zbekiston xalq artisti ustozimiz G‘.Toshmatov rahbarligida «Dutorchilar ansambli» tashkil etilishi juda katta voqea bo‘lgan.

Ustoz G‘.Toshmatov o‘zlari yuzlab qo‘shiqlar o‘rgatish bilan birga, biz shogirdlarini ko‘plab uztozlardan yuzma-yuz qo‘shiq o‘rganishimizga sharoit yaratganlar, ya’ni ansamblga K.Ismoilova, F.Mamadaliyev, M.Mirzayev, Q.Komilov, O.Xotamov va yana qator san’atkorlarni o‘z ijod namunalaridan o‘rgatish uchun taklif etganlar. Kommuna opa qo‘shiqlarini radiodan eshitib o‘rganish bilan u kishining o‘zlaridan tinglab o‘rganishning farqi juda katta ekan. Ustozning ijro mahoratlarini ko‘rib mahliyo bo‘lib qolar edik. Bizga juda ko‘p qo‘shiqlar o‘rgatdilar. Ayol ovozining nozik sirlarini, qochirimlarini men shu kishidan o‘rganganman.

«So‘lim bahor», «Tokay», «Traktorchi yigit», «Qiz uzatdik yor-yor», «Vodiylaringdan», «Xumor», «Xorazm xalq termalari», va yana ko‘p qo‘shiqlar «Dutorchilar ansambli» dasturini boyitib tildan-tilga o‘tib kelmoqda.

A.Xoltojiyev: Men Z.Suyunovaning so‘zlariga qo‘shilgan holda shuni aytmoqchimanki, Kommuna opa ijodlari nafaqat hofizlarga balki, biz sozandalarga ham katta ilhom beradi. Ustozim F.Sodiqov ularga ham ustoz bo‘lganlar. F.Sodiqov asarlarini go‘zal ijrochilaridan biri K.Ismoilova.

Qolaversa «Shashmaqomni» ovoz yozuvlarini eshitganimizda Berta Davidova, Orif Alimaxsumovlarning qatorida Kommuna opaning ham o‘zbek klassik musiqasini kelajak avlodga meros qilib qoldirishda naqadar katta xizmat qilganlarini e’tirof qilish mumkin.

Z.Suyunova, A.Xoltojiyev:

K.Ismoilova biz shogirdlariga nafaqat ustoz, balki onamizdek mehr berib kerak bo‘lganda o‘git maslahatlari bilan muammolarimizni hal qilishda yordam berganlar.

Hattoki uzoq demasdan Marg‘ilon shahrida bo‘lib o‘tgan nikoh to‘yimizda ham qatnashganlaridan hali-hali xursand bo‘lamiz.

Biz shunday san’atkorning son-sanoqsiz shogirdlari qatorida borligimizdan mamnunmiz.

O‘zbekiston xalq hofizlari
aka-uka **Ismoiljon va Isroiljon Vahobovlar**

SAN’ATIMIZ GULTOJISI



Xalqimiz orasida ul*ug‘*vor insoniy fazilatlarini o‘zida mujassamlashtirgan, xalq manfaati yo‘lida va kelajak avlod uchun sharafli mehnat qilib, shu*h*rat qozongan ajoyib insonlar nomi tildan-tilga o‘tib e’zozlanib kelinadi. Ana shunday nomi ulug‘, o‘zbek millatining g‘ururi, faxri bo‘lgan iste’dod sohibasi, O‘zbekiston xalq artisti, dotsent Kommuna opa Ismoilovadir.

Xorazm diyorining sadoqatli farzandi bo‘lmish kamtar, shirin so‘z, dilkash bu onaxonimiz millatimiz musiqa madaniyati rivoji uchun barakali hissa qo‘shgan, ajdodlarimizning «Maqom» deb atalgan mumtoz musiqa san’atiga mehr qo‘ygan fidoyi hofizalaridan biridir. Yoshlikdan shunday ulug‘ san’atkorlar ijodidan bahra olib, ular bilan ko‘rishib, diydorlashish orzusida yurgan biz, aka-uka hofizlarning ham maqsad-

lari ushaldi. Biz bu xulqi zebo, malohatli onaxonimiz bilan 1974-yildan boshlab «Maqom» ansamblida yelkadosh bo‘lib, xonanda sifatida birga ishlash baxtiga muyassar bo‘ldik. Buyuk ustozimiz, O‘zbekiston xalq artisti, akademik Yunus Rajabiy rahbarligidagi «Maqom» ansamblida Kommuna opa bilan birga xalqimiz e’zozidagi ko‘plab taniqli xonanda va sozandalar mehnat qilar edilar. O‘zbekiston xalq artistlari Orif Hoji Alimahsumov, Berta Davidova, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi Fahriddin Sodiqov, O‘zbekiston xalq artistlari Turg‘un Alimatov, Orif aka Qosimov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar Hadya Yusupova, Malohat Dadaboyeva, Xolisxon Qodirova, Siroj Aminov, Ishoq Katayev, Shokirjon Ergashev va Umarjon Otayev kabi o‘z shinavandalariga ega bo‘lgan san’at darg‘alari bilan yonma-yon ishlab, san’at sirlarini o‘rgandik.

Maqom sirlarini o‘rganish yoki mashq sifatida umumiy bo‘lib ijro etish jarayonida Kommuna opamizning o‘ktam, jozibali va yoqimli ovozlari alohida ajralib turardi. Uning bu maftunkor, sehrli ovozlariga biz aka-ukalar mahliyo bo‘lib, sekingina yonlariga o‘tirib, maqom ijrochiligining biz bilmagan qirralarini, taronalari yoki suporishlarini so‘rab, o‘rganib olardik. Opa erinmasdan, barmoqlarida usul chalib, go‘zal qochirim, nolalar va zebu-zabarlar bilan kuylab berardilar. Kommuna opa «Shashmaqom» tarkibiga kirgan kuy va ashulalarni yoddan biladi va mukammal ijro etib beradigan maqomchi xonanda edilar. Chunki, olti maqomning barcha ijro namunalarini go‘zal nolalar, bezaklar bilan yurakdan kuylab o‘sha davrdagi plastinkaga va radio fondi uchun yozib olish mas’uliyati asosan Kommuna opa va Berta opalar zimmasiga yuklatilgan edi. Bu fidoiylikning haqiqat ekanligiga plastinkadagi ijro namunalarini eshitgan har bir muhlis darrov ishonch hosil qila oladi. Zero, Shashmaqomning tarkibidagi ashulalar, taronalar va boshqa shahobchalarni o‘rganib ijro etish va muxlislar qalbiga yetkazish bu – nina bilan quduq qazishdek mushkul, murakkab va sharafli vazifa ekanligi sir emas, albatta.

Bulardan tashqari, hofiza-onaxonimiz Toshkent-Farg‘ona yo‘lidagi mumtoz ashulalarni, o‘zbek bastakorlarining asarlarini, shuningdek, rus, qozoq, ukrain, tojik, tatar, eron, afg‘on, turk, moldova kabi ko‘plab millat vakillarining taronalarini me’yoriga yetkazib kuylay olish qobiliyatiga ega edilar.

O‘zbekiston xalq artisti Gavharxonim Rahimova rahbarligidagi xotin-qizlar harbiy front ansambli fahriylari qatorida Xorazm vohasi bo‘ylab gastrol safarlarida qatnashib, Kommuna opa san’ati benazirligiga, beqiyosligiga, xaqiqiy mo‘’tabar, qalbi pok ayol ekanligiga yana bir bor shohid bo‘lganmiz. Shinavandalar shunchalik opani olqishlab, hatto ko‘zlarida sevinch yoshlari bilan tavof qilishib, guldastalar taqdim etishardi. Ashaddiy muxlislar esa qo‘ymay xonadonlariga taklif etishar, hatto oyoqlari ostiga qo‘ylar so‘yishib, ziyofatlar tashkil etgan unutilmas kunlarga guvoh bo‘lganmiz.

Kommuna opa bizga ham ustoz, ham onadek mo‘tabar edilar. Bunday deyishga albatta, asosimiz bor. Biz, aka-ukalarning san’at yo‘lidagi mehnatlarimizga bosh-qosh bo‘lishdan tashqari, ustoz onaxonimiz oila qurish kabi hayotiy masalalarga jiddiy e’tibor berardilar. O‘z jufti halolimizni

topib, ko‘ngil qo‘ygan ahli ayollarimiz visoliga erishishimizda o‘zining qimmatli maslahatlarini ayamaganlar. O‘zlari sovchi sifatida nikoh to‘ylarimizning fayzli o‘tishi yo‘lida jonbozlik qilganlarini unutish qiyin. Hatto, o‘z uylarida qudalar va mahalla uchun katta dosh-qozonlarda oshlar damlatganlar. Uylanish shodiyonalarimizda samimiy, mehr-oqibat namunalarini baxshida etganlari bois ustoz va mehribon onalik himmatlarining hosilasi sifatida biz baxtli oilalar qatoridan joy olib, nabiralar ko‘rib, oilamiz vakillari bilan keksalik gashtini surib yashamoqdamiz.

Hayotda yuz beradigan og‘ir tushkunliklardan, umidsizliklardan iloji boricha qutqarib, hech kim uddalay olmagan mehr-oqibat va savobli ishlarni amalga oshirardilar. Kerak bo‘lsa muhtojlarga ko‘mak berish uchun davlat idoralari rahbarlariyu, yuqori lavozimdagi mansabdor shaxslarga ham murojat etishdan charchamasdilar. Chunki, Kommuna opa o‘z shogirdlarini, yaqinlarini, qo‘ni-qo‘shnisi, hatto begonalarni ham baxtli, saodatmand bo‘lib yashashi uchun o‘z himmatini ayamasdilar. Ularni ko‘nglini ko‘tarar, yarasiga malham bo‘lar, qalblariga umid uchqunlarini paydo qilib, Ona ekanligini, muqaddas Ayol qudratini, yuksakligini namoyon etardi.

Biz, ulug‘ ayyom kunlarida, bayramlarda, tug‘ilgan kunlarida, albatta, ustoz onaxonimizni qutlab, yo‘qlab, shirin suhbatlaridan bahramand bo‘lib, duolarini olishga baholi-qudrat harakat qilganmiz. Xushxon bulbul gulshanga o‘z xonishi bilan fayz berganidek, onaxonimiz Kommuna opa bilan suhbat qurgan har qanday yoshu-qari, albatta rohat topardi, huzurlanib, ko‘nglida zavq-shavq paydo bo‘lib, hofizaning qalbi zeboligiga, odamshavandaligiyu, dilkashligiga yana ham ishonch hosil qilardi.

Kommuna opa betakror noyob ovoz sohibasidir. Bir oddiy xonanda sifatida shuni aytishimiz mumkinki, ustozning «metsso soprano» deb ataluvchi bu sernola, yoqimli ovozining diapazoni ikki oktavadan ham yuqoridir. Har qanday murakkab asarlarni, hatto, mumtoz maqomlarimizning «Saraxbor» deb nomlanuvchi eng murakkab ashula yo‘lini ham bemalol ijro etish qudratiga ega bo‘lgan, keng qamrovli bu ovoz – ustoz onaxonimizni mashhur qilishga, baxtli, fayzi-barakotli umr ko‘rishiga, el-yurt nazariga tushishiga sabab bo‘ldi. Qolaversa, ota-ona duosi, ularning rozi-rizoligi, muxlislar olqishi va Yunus Rajabiy, Faxriddin Sodiqov, Doni Zokirov, Komiljon Jabborov, Tamaraxonim, G‘anijon Toshmatov singari san’at darg‘alaridan olgan saboqlar va eng kerakligi halol mehnat kabi omillar ham ustozimizning serqirra va barakali umr guzaronlik qilishga nasib ayladi. Kommuna opa ijro etgan taronalarning ba’zilarini xonanda-ayollarimiz me’yoriga yetkazib kuylashga harakat qiladilar. Ayniqsa, O‘zbekiston xalq artisti, yoqimli, o‘ktam ovoz sohibasi Habiba Oxunova ustoz hofizaning «Barno yigit» kabi bir nechta ijro namunalarini qayta kuylab, olqishlarga sazovor bo‘ldi. Lekin, shu kungacha Kommuna opa talqinida yangragan «Ushshoq Qashqarchasi», «Tokay», «Ey sohibi dil», «Yor-yor», «Shifokorlar» kabi orombaxsh navolar ustozimiz tarannumidek qanot qoqmadi. Ba’zi bir shogirdlari tomonidan kuylansa ham, bu sehrli ovoz sohibasi ijrosiga o‘xshamadi. Kommuna opadagi o‘sha dard, salmoq, nolalar, bezaklar va

qochirimlarsiz ijrolarni eshitdik. Chunki, hofiza onaxonimiz nayning nolasiyu fig‘onini, dutorning mungli uni va tanbur sozining dillarga orom beruvchi faraxbaxsh nolalarini o‘ziga jo qilib, so‘ngra o‘zining ovozi bilan pardozlab kuylashni odat qilganlar. Shuning uchun opa kuylaganda tinglovchining qalbi zavq-shavqqa to‘lardi, ohangining ta’sirchan kuchidan ko‘z yoshlari shashqator bo‘lardi yoki ijroning jozibasi eshituvchini beixtiyor raqsga chorlardi.

Endi onaxon ustozimiz haqida soatlab gapirishimiz, uning millatimiz, xalqimiz, ona-diyorimiz ma’naviyati uchun qilgan barakali ishlarini yuzlab oq qog‘ozga tushirib, qayta-qayta o‘qiydigan ma’noli kitoblar nashr qilishimiz kerak.

Ha, Kommuna Ismoilova mana shunday hurmat ehtiromga, tahsinlarga sazovor mo‘tabar Ayol edilar! Ustozimiz millatimizning san’atini ko‘z-ko‘z qilib, janggohlarni kezgan, yurt kezgan, xizmat safarlaridan tahsin va olqishlar bilan qaytgan. U shifokorlarni, ustozlarni, paxtakoru chorvadorlarni, mirishkor bog‘bonlarni, qahramon yigit-qizlarimizni madh etgan. U jannatmakon ona yurtimiz haqida, barkamol avlod haqida, insoniylik, poklik, vafodorlik, sadoqat haqida baralla kuyladi va kuylagan. O‘zbek xalqining ko‘rki, haqiqiy san’atkor, millatimiz madaniyatining rivoji uchun fidoyilik qilgan buyuk ustozimiz Kommuna Ismoilova kelajak avlodar uchun o‘zining alohida uslubi va xonandalikning o‘ziga xos ijro maktabini yarata oldi. Haqiqiy san’at va san’atkor o‘lmaydi.

San’atning osmonida yulduzlar ko‘p bo‘ladi,
Miltillashib galma-gal, sekin-asta so‘nadi.
Ustozimiz Kommuna – Zuhrodek bir yulduzdir,
U yog‘dusin taratib doim porlab turadi.

O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti **Xayrullo Lutfullayev**

KAMTARIN INSON



Ma’lumki, el tanigan va ardoqlagan san’atkorlar haqida gapirish, yozish hamda fikr bildirish ham oson, ham qiyin. Osonligi shundaki, ularni ko‘pchilik taniydi. Matbuotda, televideniyeda, radioda hamda kitoblarda ular haqida materiallar talaygina. Qiyinchiligi esa ularning ko‘pqirrali faoliyatlarini ochib berishga ko‘p vaqt talab etiladi. Shu o‘rinda biror so‘zi, nasihati yoki qilgan ishi, xatti-harakati bilan ibrat bergan, ko‘ngilda, xotirada iz qoldirgan ustozlarni ardoqlash, eslab turish, kim eding-u, kim bo‘lding, kimlar tufayli shu kunlaringga yetishding kabi savollarni inson o‘z-o‘ziga berib turishi ham zarur ekan. Shu ma’noda taqdir meni

xalqimizning sevimli san'atkori, O‘zbekiston xalq artisti Kommuna Ismoilovaning ijodiy faoliyati bilan bog‘laganidan baxtiyorman.

Men san'atga oshufta bo‘lganimda 12-13 yoshlarda edim. Radio to‘lqinlari orqali qulog‘imizga chalingan, el-yurt tanigan qaysi san'atkorning ovozini eshitsak, u xoh erkak, xoh ayol bo‘lishidan qat'iy nazar, unga taqlid qilib, ovozini o‘xshatishga harakat qilar edim. 6–7-sinfda o‘qib yurgan davrlarimda maktabimizning turli bayramlarga bag‘ishlangan madaniy tadbirlarida o‘sha vaqtdagi barcha nomdor qo‘shiqchilarning qo‘shiqlari ijro etilar edi, Shu konsert dasturlarida Kommuna opamning «O‘g‘lima o‘xshaydi ovozing sani», «Ozod qil», «Yoshlik chog‘imda», «O‘ylanma» kabi qo‘shiqlarini men dildan jo‘shib kuylab olqishlarga sazovar bo‘lganman.

Kommuna opamning qo‘shiqlari, san'at yo‘liga odim qadam tashlashimga juda katta hissa qo‘shgan. Yillar o‘tib men ham elga tanilgan san'atkorlar qatoridan joy oldim. Kommuna opa bilan qayerda uchrashsak, avvalo menga ijodiy zafarlar tilab, doimo duo qilardilar. Yuzlab taniqli shogirdlari qatorida men ham Kommuna opani ustozim deb tilga olaman.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist,
O‘zbekiston Davlat konservatoriyasi dosenti **Komila Aminova**

O‘RGANGANIMIZNI O‘RGATAMIZ



O‘zbekiston xalq artisti Kommuna opa Ismoilova har bir ayol xonandaga o‘rnak bo‘la oladigan san'atkorlarning san'at yo‘lidagi gultoji hisoblanadilar. Ustozga bu yo‘ldagi uzoq va mashaqqatli, samarali mehnatlari o‘z samarasini bergan.

Men yoshligimdan Kommuna opaning Berta Davidovalar ijrolarini eshitib katta bo‘lganman va havas qilganman. Konservatoriyani tugatib, Yu.Rajabiy nomidagi «Maqom» ansamblimizda yonma-yon ishlab ijod qilish baxtiga muyassar bo‘ldim.

Kommuna opadan maqom yo‘lidagi ashulalar, xalq qo‘shiqlari, bastakorlar ijodidan namunalar o‘rgandim. Bulardan: F.Sodiqov «Loaqal», «Yor bilib», «Bir go‘zal», «Tuninay» xorazm xalq qo‘shig‘i. Maqomlardan: «Chapandozi Navo», «Dugoh Husayniy», «Chapandozi Qalandar» ashulalaridir.

Ustozdan o‘rgangan barcha ashulalarimizni hozirgi kunda talabalarimizga o‘rgatib kelayapmiz. Kommuna opa biz uchun san'at yo‘llarimizda yorqin yulduzimiz. Ruhlari har doim nur sochib biz shogirdlarga ko‘makdosh bo‘lishini istayman.

O‘zbekiston xalq artisti **Matluba Dadaboyeva**



Ilk bor Kommuna opa bilan uchrashganim qalbimda muhrlanib qolgan. 1975-yil edi. Adashmasam 2-kurs talabasi edim. Televideniyaga ustoz va shogird ko‘rsatuviga taklif qilishdi. Shunda ustoz «Sumbula» nomli qo‘shiqlarini menga o‘rgatib bir soat ichida magnit lentasiga yozib olishdi. Shu qo‘shiqqa Mukarrama Turg‘unboyeva raqsga tushib, shogirdlariga yo‘l ochib berishgan. Kommuna opa ham menga oq fotiha berib, duo qildilar. Kam bo‘lmadim. Taqdirni qarang-ki institutni bitirdim. Yana shu inson bilan birga qariyb 30 yil «Maqom» ansamblida birga ijod qilish nasib etdi.

Kommuna opam mehribon ona, jonkuyar opa, sevimli buvi, xullas bu inson hayotda va san’atda afsonaga aylangan. O‘zlariga Olloh in’om etgan qobiliyatlarini, halollikni, barcha yaxshiliklarni shogirdlaridan ayamasdan o‘rgatib ketdilar.

Opang aylansin, degan so‘zlarini har kuni eshitgim kelaveradi.

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi professori
Rifatilla Qosimov



O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng barcha sohalar qatorida milliy qadriyatlarning ummoni hisoblanmish madaniyat, san’atga ham katta ahamiyat berildi. Istiqlol tufayli birgina musiqa san’atining rivoji uchun ko‘pgina xayrli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, yosh avlodni milliy ruhda, Vatanga sadoqatli qilib tarbiyalash borasida man’aviy boyliklarning kuchi beqiyosdir.

XIX-XX asrda tabarruk zaminimizda yashab ijod etgan, o‘zbek xalqining ruhiy va ma’naviy hayotiga ulkan hissa qo‘shgan zabardast sozandayu hofizlar qoldirgan ulkan merosni o‘rganish va unga sadoqat bilan yondashish xalqimizning muqaddas burchlaridan biridir.

Musiqiy ma’naviy meros ne’matini bizning davrimizgacha yetib kelishi ko‘plab ustozlar say’i harakatlari, mehnatlarining natijasidir.

Ota Jalol Nosirov, hoji Abdulaziz Abdurasulov, Mulla To‘ychi Toshmuhamedov, Madrahim Yoqubov (Sheroziy), Yunus Rajabiy, Jo‘raxon Sultonov, Hojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov, Orifxon Xotamov va boshqalar ustozdan shogirdga o‘tib kelgan musiqiy merosni yangi mazmun va g‘oyalar bilan payvand qila olgan tabarruk zotlar desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Tarixga nazar tashlar ekanmiz, albatta, har bir davrda milliy musiqa san’ati bobida o‘zidan o‘chmas iz qoldirgan buyuk insonlar yashab o‘tganliklariga amin bo‘lamiz.

Lutfixon aya Sarimsoqova, Halima Nosirova, Nazira Axmedova, Mavluda A’zamova, E’tibor Jalilova, Mukarrama Azizova, Saodat Qobulova, Berta Davidova kabi xonishlari bilan san’atsevar xalqimizning dil to‘ridan joy egallagan onaxon hofizalarimiz va yuqorida nomlari zikr etilgan XIX asrning oxiri va XX asrda o‘zbek milliy musiqa san’ati tarixi zarvaraqlaridan munosib o‘rin egallagan ko‘plab ulug‘ san’at namoyandalarining hayotlari, ijodlarini o‘rganish, ular qoldirgan meroslarga e’tiqod va sadoqat bilan yondashish qalbida milliy g‘ururi bor bo‘lgan har bir mutaxassis vatandoshimizning insoniy burchi desak o‘rinli bo‘ladi.

Ana shunday tabarruk onaxon san’at sohibalaridan biri O‘zbekiston xalq artisti, mumtoz musiqa merosini yanada jonlarga payvand qila olgan, sehrli, maftunkor ovoz egasi Kommuna Ismoilovadir.

Kommuna Ismoilova haqida so‘z aytish, ijodini ta’riflash, onaxonning bosib o‘tgan namunali hayot yo‘lini yoritish ham oson, ham mushkul. Chunki ul zotning avvallambor chin insoniy fazilatlarini, kamtarligu xoksorliklari kamdan-kam san’at ahllarida uchraydi. Kommuna opa kabi san’atga bo‘lgan muhabbat, sadoqat, mehnatsevarlik, bag‘rikenglik, halollik kabi xislatlarni o‘zida mujassam qila olishlik har kimga ham nasib qilavermaydi. Meni nazarimda Kommuna opa ijrolarida yangragan xoh maqom ashulalari, xoh mumtoz bastakorlar ijodiga mansub musiqiy asarlar, doston qo‘shiqlariyu laparlar, yallalar aynan shu baxmal ovoz sohibasi uchun yaratilganday tuyuladi.

Buning boisi nimada ekan? Buning boisi, u kishidagi jon rishtalari dardli yuraklar bilan hamohang bo‘lib bog‘langanligidadir. Vatan, tinchlik, go‘zal hayot, baxtiyor yoshlik, so‘lim bahor, yor vasli, ota-ona qadri, farzand quvonchi, mehnat va boshqa mavzular haqidagi ashula va qo‘shiqlar Kommuna opa ijrolarida yangrashi bilan birga, oddiy san’atsevar xalqimizning ma’naviy va ruxiy ozug‘iga aylanganligini alohida ta’kidlab o‘tish joizdir.

Kommuna Ismoilovaga Olloh nodir ovoz in’om etgan. U kishining ijrochilik bisotlari xazinasidagi boy meros kamdan-kam san’at ahllariga nasib etadi.

To‘xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Orif Qosimov, Faxriddin Sodiqov, Muxtorjon Murtazoyev, Doni Zokirov, Komiljon Jabborov, Komiljon Otaniyozov, Nabijon Xasanov, G‘anijon Toshmatov, Sayfi Jalil, Hamid Rahimov, Sulton Hayitboyev va boshqa mumtoz bastakorlarimizning eng sara ijod namunalari Kommuna Ismoilovaga atab yaratilganligi fikrimizning yorqin dalilidir.

Kommuna Ismoilova hayoti va san’at sohasidagi serqirra ijodi haqida ayni kunda O‘zbekiston davlat konservatoriyasi katta o‘qituvchisi va Toshkent Madaniyat kolleji «An’anaviy ijrochilik» kafedrasining mudiri Abduqahhor Jalilov ilmiy izlanishlarni davom ettirmoqda. Bu kabi xayrli amallarni bajarishlik milliy musiqa merosini yanada boyishiga, ravnaq topishiga salmoqli ulush bo‘lib qo‘shiladi degan umiddaman.

O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasi
«An’anaviy ijrochilik» kafedrasi
katta o‘qituvchisi **Mahfuza Karimova**

QO‘SHIQ PARVOZI



San’at olami cheksiz bir dunyo. Rango-rang san’at namunalarining har biri ana shu dunyoning in’ikosi. San’at – odam zotining hazrati inson darajasida kamol topishida ustivor omil. Demakki, uning pirovard vazifasi xalqqa xizmat qilish...

Men yoshligimdan nafosatli qo‘shiqlarni maromiga yetkazib kuylashni maqsad qilganman. Ustoz san’atkorlarning meroslariga qo‘l urganman. O‘lmas xalq qo‘shiqlari, bastakorlar yaratgan betakror namunalarni ustoz san’atkorlarga taqlidan ijro etishga intilganman...

Quyida so‘z ketguvchi «Xumor» ana shunday qo‘shiqlardan hisoblanadi. Bu qo‘shiq ustozimiz professor Rifatilla Qosimov ta’biri bilan aytganda, «mumtoz bastakor» Faxriddin Sodiqov qalamiga mansub bo‘lib, Yong‘in Mirzo she’riga bastalangan namuna. Fahriddin aka bu qo‘shiqni O‘zbekiston xalq artisti Kommuna opa Ismoilovaning ijrolaridagi nolalariga aynan moslab yaratganlar, deyishadi. Haqiqatan ham Kommuna opa o‘z davrida bu qo‘shiqni maromiga yetkazib ijro etganlar va qo‘shiq xalqqa manzur bo‘lgan. Yoshligimdan bu qo‘shiqqa mehrim singgan. U mening «birinchi» muhabbatim. Ustoz ijrolaridan o‘rganib, maktab davrimdagi turli tadbirlarda, xususan «San’at bayram»larida takror va takror ijro etganman. Bu qo‘shiq keyinchalik ham menga yo‘lchi yulduz bo‘ldi. Xonandalik ijodimda samarali va eng omadli asar bo‘ldi, desam hech adashmagan bo‘laman...

1995-yil. Yunus Rajabiy nomidagi Yosh maqom ijrochilarining Xalqaro tanlovi. Yakunlovchi bosqich. Sahnada obdon saralanib, 3-bosqichga o‘tgan 10 ta yakkaxon xonanda. Haqiqiy kurash endi boshlanadi. Hamma navbatini kutib turibdi. Ularning safida men ham bor. Vujudimni cheksiz hayajon qamrab olgan. Barcha ishtirokchilar o‘z dasturlarini ustozlar ko‘magida yanada

sayqallashtirish bilan mashg‘ullar. Faqat endi asarni sahnada maromiga yetkazib ijro qilib, hay’at a’zolariga taqdim qilish qolgan, xolos. Bunday paytda ijrochiga g‘oyibdan omad, fayz kerak...

Titroq bosib sahnaga chiqdim va ne ko‘z bilan qarayki tomoshabinlar orasida mehrli ko‘zlari yulduzdek chaqnab turgan «onajonim» – Kommuna opa Ismoilovani ko‘rib qoldim. «Uddasidan chiqa olarmikanman», degan hayolga bordim... «Xumor»ni ijro qila boshladimki, mehrli ko‘zlari bilan menga boqib, yoqimli jilva bilan Kommuna opa ham men bilan birga kuylay boshladilar. Men buni kutmagan edim. Menga g‘oyibdan madad keldi. Go‘yoki ustozning o‘zlari meni tomoshabinlar orasidan yetaklab yurgandek, hech narsadan qo‘rqmasligimni uqtirayotgandek edi. Bu holatni so‘z bilan ifodalash qiyin... Ijro oxirlab qoldi... Ustoz quvonmoqda edilar. Buni ko‘rib, men ham o‘zimda yo‘q xursand bo‘ldim. O‘zimni osmonga, bulutlarga uchib ketgandek his qildim. Ushbu voqea bo‘lganiga ham 17 yil to‘libdi. Ammo kechagidek yodimda...

Ustozlik mavqeiga erishgan har bir san’atkor o‘z shogirdi, o‘quvchisi qaysi sinovdan, tanlovdan, imtihondan o‘tmasin, bu hatto hayot sinovi bo‘lsin, o‘zini o‘qqa-cho‘qqa urishga tayyor ekan. Shogird ustozga o‘z farzandidek aziz ekan. Bu haqiqiy ustoz san’atkorlardagina shakllanadigan xususiyat ekan. Bunday ustozlarga mening hurmatim doim baland bo‘lgan. Kommuna opa shunday ustozlarim sirasiga kiradi. Uning g‘oyibona ruhiy madadi boismi nufuzli hakamlar hay’ati mening ijroimni a’lo baholadi va men birinchi o‘ringa sazovor bo‘ldim. Ustozning nigohi va bir og‘iz shirin kalomi senga katta kuch bag‘ishlar ekan.

Ma’lumki, xonandalar o‘z ovozlarining ijro imkoniyatlaridan kelib chiqib asar tanlashadi. Faoliyatim davomida maqom yo‘nalishida saboq oldim va shunga xos ravishda repertuar bilan ko‘p tadbirlarda qatnashib kelmoqdaman. Shu bilan birga, mumtozga aylangan bastakorlarimizning asarlariga ham qiziqdim. Ayniqsa, Yunus Rajabiy, Komiljon Jabborov, Faxriddin Sodiqovlar, Muxtorjon Murtazoyev, Abduhoshim Ismoilovlarning yaratgan asarlaridan o‘rganib, ijro etishga muvaffaq bo‘lmoqdaman. Kommuna Ismoilova o‘z ijodlarida bu bastakorlarning juda ko‘p asarlarini ijro etganlar va hozirda biz yosh san’atkorlar ular aytgan namunalarning aslidan chetlashmay zamon talabiga mos yangi uslubda ijro etmoqdamiz. Men ham Fahriddin Sodiqovning «Xumor» asaridan tashqari «Ey chehrasi tobonim», «Bir go‘zal bordir», Muxtorjon Murtazoyevning «Farg‘ona tong otguncha», «Izlayman», «Tamanno», Abduhoshim Ismoilovning «Qaydasan», «Marg‘ilon» kabi asarlarini o‘rganib, CD diskka yozishga jazm qildim. Bu ishni «Xumor» asaridan boshladim. Kommuna opaning qimmatli, o‘zgacha bir joziba bilan o‘rgatgan o‘gitlari ostida asarni me’yoriga yetkazib, ijro etishga harakat qildim va 2011-yil 8-mart Xalqaro xotin-qizlar bayramiga bag‘ishlangan tantanali davlat tadbirida ishtirok etdim. Mana shu ijro, shu asar menga ikkinchi bor ijodiy omad olib keldi. Shundan so‘ng, men bir qator davlat miqyosidagi katta konsert dasturlarida qatnashishga taklif etildim. Muxlislar qo‘shiqni yangi talqinda zavqlanib eshitib, qayta-qayta ijro etib berishimni so‘rashadi. Bu qo‘shiq meni elga tanitdi. Eng muhimi, tinglovchi-shinavandalarning e’tiboriga tushdim, o‘z muxlislarimga ega bo‘ldim. Bularning barchasi, avvalo, yaratganning

inoyatidir, qolaversa, qo‘shiq parvozi, sehri, siru-sinoati mahsuli. Va nihoyat, ayol qalbi tarovatini, go‘zal jozibasini ohanglarga joylagan ustoz san’atkor va mumtoz bastakor Faxriddin Sodiqov hamda ushbu ohanrabo qo‘shiqni qalb qo‘ri bilan sug‘orib, totli ovozi va talqinida kuylagan Kommuna Ismoilovalarning musiqa merosimizga qo‘shgan katta hissalaridir. Ana shunday ustozlar an’anasini davom ettirishga jazm qilib to‘g‘ri yo‘l tanlagan ekanman. Kamol topmoqdaman, baxtiyorman.

«Xumor»ni ilk bor yangi talqinda tinglagach, mehribon ustoz Kommuna Ismoilova rosa quvondilar, meni ijodimga duo qildilar: «Sen qo‘shiqqa yangi hayot bag‘ishlading!», – deya bag‘rlariga bosdilar, men Kommuna opadan umrbod minnatdorman. Afsus, bugun oramizda yo‘qlar. Joylari jannatda bo‘lsin.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, mohir sozanda,
xonanda va bastakor **Ahmadjon Dadayev**

KOMMUNA ISMOILOVA HAQIDA



O‘zbek milliy qo‘shiqchiligida o‘z ijro maktabini yarata olgan, oliyjanob inson, mehribon ona, ustoz san’atkorimiz K.Ismoilovaning qo‘shiqlaridan bahramand bo‘lmagan inson bo‘lmasa kerak. Ollohga behisob shukrlar bo‘lsinkim, ona bilan birga 25 yildan ortiqroq akademik Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbekiston radiosi qoshidagi «Maqomchilar» ansamblida ishlab ijod qilish baxtiga muyassar bo‘ldim.

Kommuna opa kattayu kichikka barobar, juda shirin so‘z, beg‘ubor inson. Biz oilamiz bilan birgalikda Kommuna opaning har bir chiqishlarini maroq bilan tinglaganmiz. Opaning ijodi juda chuqur, chunki opa bastakorlar bilan ijod qilgan. Hattoki mening buvim opa televizor ekrani orqali chiqsalar, ana mening qizim chiqmoqda, degan gaplari hamon yodimda.

O‘zbekiston xalq artisti **Maryam Ixtiyorova**



Men Kommuna Ismoilovani birinchi (ilk) ko‘rganim hech esimdan chiqmaydi. Urganch shahrining markaziy ko‘chalarida, kinoteatr klublari oldida devorlarga yopishtirilgan afishalarda .. Bu 1956-57 yillar edi. Toshkentdan kelgan O‘zbekiston davlat filarmoniyasi bir guruh san’atkorlarning Xorazmda o‘tayotgan gastrol safari edi. Afishada Kommuna opaning chiroyli surati, egnilarida qora pombarxit beli bug‘ma ko‘ylak, sochlari ikkita o‘rib tashlangan, bo‘ynilarida shoda marvarid, o‘zbekona to‘g‘ri farq peshonalariga yarashgan, quloqlarida qashqarbaldoq isirg‘a... tikilib ko‘zimni uzolmay qoldim. «Qani endi, men ham ularga o‘xshab san’atkor bo‘lsam, Toshkentda, poytaxtda o‘qisam, ishlasam», degan orzular qalbimni egallab oldi. Omadni ko‘ringki, shu yillar O‘zbekiston Xalq artisti Gavharxonim Raximova Xorazm yoshlaridan «Ashula va raqs» ansambli tuzib, 6-jahon yoshlari va studentlari festivaliga tayyorlanish maqsadida Xorazmga kelgan ekanlar. Toshkentga kelish ko‘plar qatori menga ham nasib etdi. Endi bu ansamblda biz yoshlarga ashula o‘rgatib, ustozlik qilishda Kommuna opamiz ishlay boshladilar. Har kuni opani ko‘rishdan, ularning ovozlarini, ashulalarini eshitishdan baxtiyor edim.

Bir kuni konsertga tayyorgarlik bo‘layotgandi, men bir chekkada o‘tirganimcha opaning «Eng gullagan yoshlik chog‘imda, a-a-a-a-a» ashulasini xuddi a-a-a-a-a joyini hirgoyi qilib, qayta-qayta aytib o‘tirgan ekanman, «qochirimimni aytayotgan kim» deb qoldilar. «Men» dedim. «Ha, sen shayton, o‘xshatayapsan», dedilar. Shu-shu menga ustozlik qilib o‘zlarining o‘sha paytlarda «xit» bo‘lgan «Eng gullagan yoshlik chog‘imda», «Bolamga o‘xshaydi ovozing sani», «Gulnora», «Noz etma», «O‘ylanma», «Barno yigit» va yana boshqa ashulalarini o‘rgatganlar.

Ustoz Kommuna Ismoilova hech qachon yoshlarga nisbatan g‘ayrlik, baxillik, ko‘rolmaslik qilmasdilar. Aksincha, qo‘ldan kelgan yordamini berardilar.

«Hunarni asrabon netgumdir oxir,

Olib tuproqqami ketgumdir oxir» Alisher Navoiyning ushbu misralari xuddi opaga aytilganday!

Ustoz Kommuna Ismoilova qalbi, vujudi, jismi-ruhi ashulaga, maqomga, mumtoz kuylarga to‘la xazina!!!

Shu bois, opaning shogirdlari o‘nlab-yuzlab...

Men 1957-59-yillar ustoz Kommuna opam bilan «Xorazm ashula va raqs ansambli»da ishlaganimdan, taqdir meni Ulug‘ San’atkor, Ustoz, Hofiza, Inson bilan uchrashtirganidan baxtiyorman.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist
«Do‘stlik» ordeni sohibasi **Nilufar Saidova**

USTOZIM, IKKINCHI ONAM!



Dunyoda hamma ham Ustoz deb atalmish sharafli nomga ega bo‘lavermaydi. Ayniqsa san’at sohasida o‘z mavqeini yo‘qotishdan qo‘rqib bilganlarni boshqalarga ilinmaydiganlar ko‘plab topiladi. Lekin ustozimiz Kommuna Ismoilova biz shogirdlarga nafaqat san’atda balki hayot saboqlaridan ham tahsil berardilar.

San’atkor bo‘lishni dilimga tugib, poytaxtdagi Mannon Uyg‘ur nomli San’at oliygohiga hujjat topshirdim. Talabalikka qabul qilinganimdan so‘ng yaqinlardan olisda yashash qanchalik qiyin ekanligi anglab yetdim. Har kun onamning qaynoq mehrlarini, otamning purma’no so‘zlarini qo‘msardim. Ana shunday kezlarda yolg‘izligimni bildirmay, menga onadek mehr ko‘rsatgan ustozim Kommuna Ismoilovaning o‘rni bo‘lakcha... To‘g‘ri, ular faqat menga emas, bir vaqtning o‘zida o‘nlab yigit-qizlarga saboq berardi.

Oramizda garchi iste’dodi yuqori bo‘lmasa-da, san’atkor bo‘lishni orzu qilganlar ham bor edi. Mashhur xonanda Kommuna Ismoilova ana shunday yigit-qizlardan ham vaqtini qizganmay «Sen yaxshi qo‘shiq ayta olasan» deb qo‘llab-quvvatlashlarini ko‘rib qoyil qolardim. Ustozim nafaqat, buyuk iste’dod egasi, mehribon ayol va chin ma’nodagi sabrli inson ekanliklariga ko‘p bora guvoh bo‘lganman.

Yuqorida ustozim nafaqat qo‘shiqchilikdan balki hayotdan ham saboq bergan deb bejiz ta’kidlamadim. Poytaxtda ilm o‘rganish uchun kelgan men tengi qizlarni xuddi farzandlaridek asrab-avaylardilar. Ko‘p bora ustozimning «Qiz bola bamisoli gulg‘uncha, uning go‘zalligiga maftun bo‘lib, unga aziyat yetkazguvchilar ko‘p bo‘ladi», degan gaplari hamon quloqlarim ostida jaranglaydi.

Yillar o‘tib boraverarkan, ustozlarning bu kabi so‘zlari ayni haqiqat ekanligiga ko‘p bora amin bo‘ldim. Haligacha ularning toshga zarxal harflar bilan o‘ygan saboqlari menga as qotayapti.

Ba’zan ijod yoki hayot tashvishlari bilan ovora bo‘lib, ustozimga qo‘ng‘iroq qilmay qolsam, o‘zlari sim qoqib: «Tinchmisan bolam? Sendan xavotir oldim», deb hol ahvol so‘rardilar. Har kuni televizorda ikki uch marta chiqsam-da, har ko‘rganlarida «bolam muvaffaqiyatlaring bilan tabriklayman. Bundan-da baland cho‘qqilarga erishgin», deya birinchilardan bo‘lib ustozim tabriklardilar. Hayotda ustozimni «Kommuna aya» yoki «ayajon» deyishimni ko‘rib ko‘pchilik hayron bo‘lishardi. Onam ham doim ustozimni ko‘rganda «Qizimning suyagi meniki, eti sizniki» deb qayta-qayta ta’kidlardilar.

Oliy hakam sanalmish vaqt o‘tib boraverar ekan, sizga yaxshilik qilgan insonlar qadri ham ortaveradi.

Shogird **Davron Axmedov**

KO‘ZLARIGA SEVINCH YOSHI QALQQAN USTOZIM



San’atkorning xalqqa tanilishida ayrim hollarda uning kuylagan birgina qo‘shig‘i ham sababchi bo‘lar ekan. Ustozim Kommuna opa Ismoilovaning menga o‘rgatgan qo‘shiqlari ichida «Oshiq G‘arib va Shohsanam» dostonidan olingan «Bolama o‘xshaydi ovozing sani» qo‘shig‘i meni elga tanitgan asar bo‘ldi. Qo‘shiqni ustozlarga manzur bo‘ladigan darajada qiyomiga yetkazib kuylash ayniqsa ustozning o‘zi tomonidan mahorat bilan ijro etgan asarini ko‘ngildagidek qilib aytish hammaga ham nasib bo‘lavermasa kerak. Shunday baxtga muyassar bo‘lgan shogirdlardan biri men bo‘lsam kerak.

Ustozim meni o‘z farzandlaridek yaqin olib shu qo‘shiqni menga o‘rgatdilar va uni televideniyaga olib chiqishga rozilik bildirganlar.

Ijroni eshitib juda xursand bo‘lganlarida, xatto ko‘zlaridan sevinch yoshlari qalqib ketdi. Shogirdlarning muvaffaqiyatidan bu qadar sevingan ustozni birinchi marta ko‘rishim bo‘lganligi uchun u kishiga bo‘lgan mehrim va hurmatim yuz chandon ortdi. Birovlarning baxtiyorligini ko‘rib chin dildan sevinadigan insondan hech qachon yomonlik kutib bo‘lmasa kerak. Shu-shu Kommuna opamni o‘z onamdek yaqin tutadigan bo‘lib qoldim. Ustozim qo‘shiqni klipga olish davrida ham o‘zlari bosh-qosh bo‘lib turdilar. Bu qo‘shiq nazarimda ikkinchi marta dunyoga kelgandek bo‘ldi. Mehribon ustozim Kommuna opamning qilgan ishlari hech qachon unutib bo‘lmaydigan ish bo‘ldi. Meni xalqimiz orasiga olib kirgan, elga suyukli qilgan ustozimdan bir umr minnatdorman. Shunday qalbi cheksiz ustoz bilan faxrlanaman va u kishining insoniy salohiyati va tabarruk san’ati oldida bir umr ta’zimdaman.

Shunday ustoz san’atkorlari bor xalqning umri boqiy bo‘lsin.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist **Maqsadxon Yunusova**

Umrimiz davomida quvonchlarga, shodliklarga, unitilmas onlarga to‘la bo‘lgan lahzalarni bugun oqqa tushirish ilinjida qo‘limga qalam oldim. O‘zbekiston xalq artisti, ustozim Halimaxonim Nosirovaga shogird bo‘lish baxti menga O‘zbekiston xalq artisti, ustozim Kommunaxonim Ismoilova musharraf etganlar. Ularning hovlisida bir gala qizlar bilan Kommuna opamning suhbatiga vujudimiz bilan quloq berib, tinglab turardik. Shu payt sochlari uzun, ikkita qilib o‘rilgan haqiqiy «o‘zbek qizi» timsoli bo‘lgan Halima Nosirovaga ko‘zimiz tushdi. Ta’riflashga til ojiz. Lol bo‘lib, maxliyo bo‘lib, salomlashdik. Kommuna opam bizlarni birma-bir tanishtirdilar. Gal menga kelganda



«Xalima opa shu qizimni Sizga beraman. Eng yaxshi ko‘rgan qo‘shig‘ingizni o‘rgatasiz» dedilar. O‘qishlar boshlandi. Ustoz Halima Nosirovadan juda ko‘p qo‘shiqlar o‘rgandim. Bo‘sh vaqtlarimizda bir-birimizning sinflarimizga kirib o‘tirar edik. Dugonalarimiz qanday qo‘shiq o‘rganayapti, tinglab o‘tirar edik. Lof emas, Kommuna opamning sinflari talabalar bilan to‘la bo‘lardi. Institut davrida professor Sulaymon Taxalov boshchiligida «Maqom» ansambli tashkil etildi. Kommuna opam, albatta, barcha ovozli qizlarni shu ansamblga jalb qildilar. Ular «Uvaysiy lirikasi» konsert dasturlarini tuzdilar va tayyorladilar. Shu dastur O‘zbekiston televideniyasining «Oltin fondi»da saqlanadi. Institutning eng iqtidorli, ovozli qizlari barcha davlat tadbirlarida Kommuna opam, Halima Nosirova o‘rgatgan qo‘shiqlar bilan qatnashar edik. Jumladan, «Mehnat ahli», «Saodat bu» qo‘shiqlarni uchta qiz hamnafaslikda ijro etardik. Meni o‘zimga esa «Netay», «Keladur» qo‘shiqlarini o‘rgatganlar. Oradan o‘ttiz yil vaqt o‘tsa ham hali xanuz ijro etaman. hamnafaslikda O‘zbekiston xalq artisti Mehri Bekjonova, Xurshida O‘rinova, Gavhar Tojiboyeva edi. Galdir I, II ni esa Tojibar Azizovaga va menga o‘rgatganlar. Yuqorida quvonchli, unutilmas onlar dedim. 2006-yilning iyun oyida «Milliy» teatrda O‘zbekiston xalq artisti, kursdosh-dugonam Mehri Bekjonova bilan «Bellashuv» konsert dasturida ishtirok etdik. Muxlislarimiz qatorida do‘stlar va yaqinlarimiz hamda ustozlarimizni ham taklif qildik. Kommuna opam shundoqqina birinchi qatorda o‘tirar edilar. Yonlarida O‘zbekiston xalq artisti Farog‘at Rahmatova va O‘zbekiston san’at arbobi Temur aka Maxmudovlar birga edilar. Kommuna opam yuzlaridan nurlar yog‘ilib, quvonib, albatta biz bilan birga hayajonlanib, qo‘shiqlarimizni miriqib, tinglar edilar. Men ular ijro etgan «Qashqarchai Ushshoq», «Netay», «Vafo qilsa», «Bir go‘zal bormish» qo‘shiqlarini ijro etganimda, baravar ijro etdilar. Shunda qilgan mehnatlarining, bog‘larida yayrab, bergan hosillarini ko‘rgan Kommuna opamning holatlarini ta’rifini keltirishga men ojizman. Kommuna opamning sahiy, qo‘li va ko‘ngli ochiq. Bisotidagi borki qo‘shiq, maqom, ashulalarni shogirdlari jon-joniga singdirib o‘rgatardilar.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist **Sharofat Tojiboyeva**

USTOZIM KOMMUNA AYA!

Men o‘zimni judayam baxtli san’atkor deb bilaman. Chunki Kommuna Ismoilovadek ustozga shogird bo‘lganligim meni san’atda o‘z o‘rnimga ega qildi. Men bir umr ustozim nomlarini yod etaman.

Institutda o‘qib yurganimda an’anaviy ijrochilikdan o‘qituvchim Temur Mahmudov bo‘lgan. Ustozim aytganlar «bo‘sh vaqtdan foydalanib, qo‘shiqlarini, mahoratlarini o‘rganing» – deb.



Kommuna opamlarni dargohlari keng inson edilar. Men o‘quvchilari bo‘lmasam-da menga vaqt ajratib ko‘pgina qo‘shiqlaridan o‘rgatganlar.

Ulardan «Tokay», «Jonim bolam», «Yaxshi bor», «Mendin o‘rgandi», «Do‘ppi tikdim», «Zebixon», «Qashqarchai Ushshoq», «Segoh», «Yoring bo‘lay» kabi ko‘plab ashulalarni o‘rganganman.

Institutni bitirib, Andijondagi teatrga bordim, borganimda menga «Nodira» musiqiy dramasidan Oyparcha obrazi topshirildi va shu spektaklda opamlardan o‘rgangan «Tokay» ashulasi bor edi. Opamdan o‘rganganday qilib aytib bersam, ustoz O‘zbekiston xalq artisti G‘ulomjon Xojiqulov ham tasannolar aytganlar.

Opam nafaqat ashula aytishni, balki hayotda qiz bola, ayol kishi oilada va ro‘zg‘orda qanday bo‘lishni o‘rgatib, maslahat berardilar.

Opamlar o‘zlarining yoshliklari, urush paytidagi qiyinchilik davrlarini ko‘p so‘zlab berganlar va bizni hozirgi mustaqillik davriga yetishganimizga shukur qilib yashash kerakligini ko‘p aytganlar.

Men opamga ich-ichimdan havas qilaman. Chunki bizni oilamizda Kommuna opam televizorda chiqsalar, oilamiz bilan butun diqqatimizni qaratib tomosha qilardik.

Bir kuni radioda qo‘shiqlari yangrab qolgandi, o‘quvchilik davrim darsga ham kirmay qo‘shiqlarini tinglaganman va sinfga kechikib kirigandim.

Yoshimiz anchaga yaqinlashib qolgan bo‘lsa ham oilam, ro‘zg‘orim haqida qayg‘urib so‘rab turardilar.

Kamchiliklaring yo‘qmi bolam deganlarida, har safar ich-ichimdan xursand bo‘lardim, meni mehribon ikkinchi onam bor bo‘lganlariga shukronalar aytardim. Ayniqsa ustozim chiroyli duolar qilardilar.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist **Tojibar Azizova**

MENING IKKINCHI ONAM!

Maktabda o‘qib yurgan paytlarimda Kommuna opamni televizorda yoki radioda qo‘shiqlarini eshitib qolganimda, ularga juda havasim kelardi. Kommuna opamga o‘xshagan san’atkor bo‘lishni xohlardim.

1981-yil o‘rta maktabni bitirib, Toshkentga keldim Ostrovskiy nomli teatr va rassomchilik san’at institutiga «Musiqali teatr va komediya aktyori» fakultetiga hujjat topshirib, o‘qishga kirdim.



Hozir o‘sha damlarni eslasam, o‘sha vaqtda eng baxtli talabalar biz bo‘lgan ekanmiz. Chunki birinchi kurs yarimida institutda an’anaviy qo‘shiqchilik kafedrasi ochildi. Kafedraga O‘zbekistondagi eng buyuk san’atkorlar taklif qilingan edi. Men bular ichida Kommuna opam sinflariga qabul qilindim, yana 5-6 ta qiz kursimizdan o‘sha sinfga qabul qilindilar.

Kommuna opamdan juda ko‘p qo‘shiqlar o‘rgandik. 1983-yili opam bilan birgalikda O‘zbekiston televideniyasida Uvaysiy lirikasini yozdik.

Yigirmadan ortiq Uvaysiy g‘azallariga aytilgan qo‘shiqlarni opam va Temur Mahmudovlardan o‘rgandik. Kunduzgi soat 11:00larda opamni sinflariga kirib kechqurin 8:00 yoki 9:00 largacha qolib ketardik.

Temur aka bilan opam hech ham charchamasdilar. 1985-yili esa Nodira lirikasini yozdik. Unda ham yigirmadan ortiq qo‘shiqlarni o‘rgandik. Hozir o‘ylasam o‘sha vaqtda juda katta ishlar qilgan ekanmiz. Mana shu Uvaysiy va Nodira lirikalari shu bugungacha telestudiyaning oltin fondida saqlanib keladi. Opam bilan yana G‘alabaning 40 yilligi bayramlarida ham juda ko‘p uchrashuvlarda, ko‘pgina konsertlarda qatnashganmiz.

Mening o‘zim mazkur to‘rt yil ichida opamdan yuzdan ortiq qo‘shiqlarni o‘rganganman. 1984-yil Respublikada birinchi marotaba maqom konkursida qatnashganman. Shu konkurs tayyorgarligi vaqtida opamdan «Fig‘on»ni o‘rgangan bo‘lsam, «Toshkent Irog‘ini» Orif Alimahsumovdan, «Nasri Bayot»ni Berta Davidovadan, «Yovvoyi Tanovar»ni esa Orif Hotamovdan o‘rganganman.

Chunki opam aytardilar, shu qo‘shiqlarni mana shu ustozlar maromiga yetkazib aytganlar deb. Ularni oldilariga yuborib, bu mening shogirdim, shu qo‘shiqni o‘zingiz aytganday qilib o‘rgatasiz, deb hazillashardilar.

Shunda meni opamga havasim kelardi. Negaki opamlarni yuraklari toza, beg‘ubor inson edilar.

O‘sha vaqtda Respublikada paxta planlari to‘lgan vaqtlarda opam bilan birgalikda televideniyada juda ko‘p jonli konsertlar qilganmiz. Men o‘zim o‘sha konsertlarda opam ijro etgan «Tursunoy bo‘lay deyman» qo‘shiqlarini ijro etardim. Ko‘chada yurganimda, ismim qiyin bo‘lgandanmi, hamma meni Tursunoy deb ham atashardi. Opamdan juda ko‘p mumtoz maqom qo‘shiqlarini o‘rgandim.

«Tokay» Uvaysiy g‘azali bilan ijro etiladigan qo‘shiqni shu bugungacha qayerga bormay so‘rashadi. Opamdan nafaqat san’at sirlarini, balki hayotda qanday bo‘lish kerak, qanday yashash kerakligini ham o‘rganganman.

Opam kimga turmushga chiqishingni bilishim kerak, deb aytardilar. Mirza akamni ham birinchi bo‘lib opamga ko‘rsatganman. Opam birinchi ko‘rishdayoq, shu yigit bilan baxtli

bo‘lasan, deb aytganlar. Opamning duolari bilan turmush qurdik, ikki nafar farzandlar onasiman. San’atda nimaga erishgan bo‘lsam, opamning, qolaversa ota-onamning ham duolari bilan erishdim. Opam juda ham e’tiborli Ona.

Xoh televideniyada chiqay, yoki qanday bo‘lmasin, birinchi bo‘lib opamning o‘zlari telefon qilib tabriklaydilar. Haftada bir marotaba bo‘lsa ham telefon qilib hol-ahvolimni, oilamni so‘rab turardilar.

Opamga juda havasim keladi. Men ham ularga o‘xshagim keladi. Meni juda ko‘p joylarda kichkina Kommuna deb ham atashadi. Uch yil oldin Kommuna opam bilan birgalikda, rejissyor Alisher Madraximov boshchiligida ikki soatlik jonli ijroda tasvirga tushdik.

S’yomka jarayonida ham ko‘rdimki, opam hali juda tetiklar, xotiralari juda kuchli, ovozlari hali ham joyida. Suratga olish jarayonida men bir necha qo‘shiqlarning so‘zlarini unutganim uchun so‘ziga qarab aytdim, opam esa biron marta ham so‘ziga qaramaganlar.

Mana shu disklarimiz Amerika, Arabiston, Germaniya, Afg‘oniston, Turkiya kabi davlatlardagi vatandoshlarimiz uylarida yangramoqda. Ustoz xotiramizda abadiy qoladilar.

Man ham Kommuna onajonim yoshlarida, ularga o‘xshab yurishni niyat qilaman.

Shogirdlari **Mavluda Turdiyeva**

MEHRIBON EDILAR



Ustozimiz Kommuna opa juda ajoyib, shogirdlarga mehribon inson edilar. San’at institutida birga maqomdan dars berganlarida u kishidan nafaqat qo‘shiq aytishni odob, ahloq, san’atkor o‘zini qanday tutishi kerakligi haqida ko‘p narsalar o‘rgandik. Menga ilk bor «Shitob aylab», «Feruz», «Tokay», «Ey sohibi dil» qo‘shiqlarini o‘rgatganlar. Kommuna opani o‘zlari aytgan qo‘shiqlarini hozirgacha sevib eshitaman. Har bir qo‘shiqni dard bilan aytganlar. Men Kommuna opamdan faqat ashula aytishni emas, balki shogirdlarga maqomlarni qanday o‘rgatishni ham yaqingacha o‘rganib keldim. Chunki men ham musiqa letseyida shogirlarga dars beraman. Hech kimdan yaxshilikni ayamagan ajoyib inson edilar. Jon kuydirib, qo‘shiq o‘rgatadigan ustozlar kamdan-kam bo‘lsa kerak. Kommuna ustozimizning oxiratlari obod bo‘lsin.

Shogirdi **Mavluda Yuldasheva**

KOMMUNA ISMOILOVA...



Men bolaligimdan Kommuna Ismoilovaning qo‘shiqlarini eshitib katta bo‘lganman. Maktabda o‘qib yurgan vaqtdayoq ustoz Kommuna opaning qo‘shiqlarini kuylab, ko‘rik tanlovlarda g‘olib bo‘lganman. Mana bir necha yillardan beri opa ishlayotgan Madaniyat kollejiga borib, ustoz Kommuna Ismoilovadan qo‘shiqlarni kuylash yo‘llarini va qo‘shiq aytayotganda nafasni to‘g‘ri olish, usuldan chiqib ketmaslik va og‘izni chiroyli ochish sirlarini va shu bilan birga ko‘pgina hali kuylanmagan yangi qo‘shiqlarni o‘rgandim. Ustoz nafaqat qo‘shiq kuylashni, balki oilani qanday boshqarish, farzandlarni chiroyli tarbiya qilib, voyaga yetkazish, insonlar oldida o‘zini tuta bilish va shunga o‘xshash bir-biridan chiroyli go‘zal nasihatlari bilan bizni tarbiyalaganlar. Ustoz Kommuna Ismoilova bizdan qimmatli nasihatlarini ayamasdilar. Ular hamisha hayotda halol yashagin, yolg‘on gapirma, subutsiz bo‘lib qolasan, odamlarga, do‘st-yorlarga mehr-oqibatli bo‘lgin, shirin so‘zli, hayoli, iffatli bo‘lsang, seni hamma hurmat qiladi va farzandlaring ham ibrat oladi, derdilar.

Birdan-bir tilagim ustoz Kommuna Ismoilovadan o‘rgangan qo‘shiqlarimni xalqimga taqdim etish.

Shogirdi **Nigora Arzimurodova**



Men, Arzimurodova Nigora 1986-91 yillar Toshkent davlat San’at institutida musiqali drama teatri fakultetida o‘qidim. Unda vokal va maqom darslari bor bo‘lib, men maqom darsini ustozlarim va ayajonlarim Kommuna aya Ismoilova hamda Hadya opa Yusupovalarda o‘qidim. O‘qishni bitirganimdan so‘ng, Kommuna ayamning uylariga, ish joylariga borib, ayamdan qo‘shiqlar o‘rganib kelardim. Ayam o‘rgatgan qo‘shiqlardan «Sen yor uchun», «Mehnat taronasi», «Qaydin galding», «Ko‘ngul», «Mubtalo bo‘ldim senga», «Kel» va yana ko‘plab qo‘shiq va ashulalardir. Kommuna ayamning yuzdan ortiq shogirdlari bor. Men ham ularning shogirdlari bo‘lganimdan faxrlanaman.

Muqimiy teatri artisti **S.Bekjonov**

Ustozimiz Kommuna Ismoilova qo‘shiqlarini eshitganimda, qo‘shiqni befarq aytmaslik kerakligini chuqur his etaman. Chunki, ularning qo‘shiqlari kuylanganda eshituvchining yurak-yuragidan joy oladi. Biz San’at institutida tahsil olganimizda ustozlik qilganlar. Shu bilan birgalikda shu yerda talabalarga birgalikda ustozlik qilganmiz, va menga shu borada ham o‘zlarining yordamlarini ayamaganlar. Kommuna Ismoilovani bizning ota-onalarimiz sevib, qo‘shiqlarini tinglaganlar, biz sevib tinglaymiz, yoshlarimiz, kelajak avlod sevib ardoqlab tinglashadi, deb ishonaman. Chunki, bu haqiqiy san’atkor Fahriddin Sodiqov, Komiljon Otaniyozovday, Tamara xonim, Gavxar Rahimova va bir qancha zabardast ustozlardan o‘rganganlar va yonma-yon birga xalqimizga xizmat qilib, ijod qilganlar.

Shogirdi **Mamlakat Mamajonova**

SHOGIRD XOTIRLASHI



Har bir san’atkor xonanda o‘z faoliyatining ilk damlarida taniqli xushovoz xonandalarga o‘xshashni, ular orasida o‘ziga yagona insonni komil inson sifatida ustoz deb tanlab oladi. Men uchun hayotimda, ijodimda eng ulug‘ ustoz yo‘l boshlovchi bo‘lgan milliy mumtoz, xalq qo‘shiqlarining mohir ijrochisi, yurakli, dardli xonanda Kommuna Ismoilova o‘zbek qo‘shiqchilik san’atining yorqin yulduzi sifatida porlagan hamma ayol hofizalar uchun ibratli san’atkor, shogirdlarga bag‘ri keng ustoz deb bilaman. Men yoshlik chog‘larimda ustozim Kommuna Ismoilovaning shirali ovozini, ajoyib nafasini radio to‘lqinlarida, televideniyedagi chiqishlarini eshitib ko‘rar ekanman, garchi u kishi bilan yaqindan gaplashmay, tanimay turib ularning deyarli hamma qo‘shiqlarini o‘zimcha mustaqil o‘rganib kuylashga harakat qilib, Namangan viloyati Chust tumanining kichik xonandasiga aylangan edim. Tumandagi har bir bayram, tadbirlarda «Mamlakat Kommuna Ismolivaning qo‘shiqlarini aytib bersin» – deb so‘rashar edi. O‘zimni o‘sha davrda madaniyat saroyining kichik sahnalarida opamning «Shohi so‘zona», «Shifokorlar», «Barno yigit» qo‘shiqlarini xuddi o‘zlaridek ijro etishga harakat qilar edim. Hatto sahnada yurish turishlargacha ularga o‘xshagim kelar edi.

Inson hayotda nimaga chin dildan intilsa, ulug‘ orzularni niyat qilsa, yaratgan o‘sha maqsadlarga erishtirar ekan. Taqdir meni ilk bor 1982-yil Toshkent shahrida O‘zbekiston davlat teleradio-

sining «Etnografiya» ansamblida Kommuna Ismoilova bilan uchrashtirdi. Birinchi ko‘rganimda yuragim hayajonga, dilim g‘ururga to‘lib toshgan edi. O‘sha davrda ajoyib san’atimizning namoyondalari Orif Alimahsumov, Berta Davidova, Eson Lutfullayev, Orif Qosimov va bir qancha ustozlar ichida o‘zining samimiyligi, kamsuqumligi, shirinso‘z mehribonligi bilan Kommuna opam meni o‘ziga jalb etdi. U kishi bilan soatlab gaplashishni, milliy san’atimizning bebaho xazinasidan saboqlar olishni o‘zim uchun ulkan baxt deb bilar edim. Radioning oltin fondiga yozilgan o‘ndan ortiq qo‘shiqlarim orasida «Oshiq G‘arib va Shoxsanam» dostonidan «Ozod qil», «Onamni yolg‘iziman» kabi qo‘shiqlar meni Kommuna Ismoilovaning haqiqiy shogirdiga aylantirgan qo‘shiqlar bo‘ldi. Ayniqsa «Ozod qil» qo‘shig‘imni ilk bor televideniyada jonli ijro etayotgan vaqtimda ustozim mendanda ko‘proq hayajonlanib, tasvirga olish jarayonining oxirigacha studiyada meni qo‘llab-quvvatlab turganlar. Hanuzgacha bu voqealarni unuta olmayman. Tengqurlarim, muxlislarim shu qo‘shiqni ko‘p yodga olishadi. Men Kommuna opam bilan juda ko‘p davralarda, yaxshi kunlarda birga bo‘lganman. Opaning o‘zbek xonadonlarida, to‘y-ma’rakalarida xalqimizga qilgan xizmatlarini ko‘rib, tan bermasdan ilojimiz yo‘q. U kishidek davrada fayz, ajoyib ijro, xorazmcha aytishuv termalari, so‘z o‘yinlari, xonadon sohibalariga bag‘ishlovlar opa ijrosidagi kutilmagan improvizasiyalarni hali hech qaysi xonandada ko‘rganim yo‘q. U kishiga bu Olloh tomonidan yuqtirilgan iste’dod deb o‘ylayman. U hech qachon so‘nmaydi. Hatto, hayotda ham ko‘p sohalarda ustozimning qimmatli maslahatlariga amal qilaman. «Mamlakat bolam! Sen mening haqiqiy shogirdimsan. Meni qo‘shiqlarimning barchasini kuylashingni bilaman. Faqat, ovoz yozish studiyalarida qo‘shiqlarni yozib qoldir. Kuylashdan to‘xtama!» – degan o‘gitlari meni ijodga chorlaydi. Ustozimdan ilhomlanib, «Oshiq G‘arib va Shoxsanam» dostonidan «Bolama o‘xshaydi, ovozing sani», «Tuninay» qo‘shiqlarini, «Qashqarchai Ushshoq» ashulasini ularning ko‘rsatmalari bo‘yicha oq fotihalari bilan magnit tasmasiga yozdim. Xalqimizning bayramlarida, tadbirlarida ushbu qo‘shiqlarni kuylaganimda muxlislarimiz ko‘zida hayrat, hayajon uchqunlarini ko‘raman. Albatta, ustozimni hamma esga oladi, xotirlaydi. Yetti yoshdan yetmishgacha hammaga birday yoqqanlarini bilaman. Chunki, bu qo‘shiqlarning umri beadaddir. Kommuna opa o‘ziga ijodiy haykal qo‘yib ketgan san’atkor.

«Zulfiya» nomidagi davlat mukofoti
sovrindori **Kamola Pardayeva**

KOMMUNA ISMOILOVA...

So‘zni qaysi qadrli va go‘zal so‘zdan boshlasam...

El suygan, el ardoqlagan san’at osmonidagi yorug‘ bir yulduz o‘zbek qo‘shiqchilik san’atining darg‘alaridan, Kommuna Ismoilovani ilk bora 2004 yil yanvar oyida ko‘rganman. Endigina 10



yoshga to‘lganimda onajonim meni Kommuna opaning xonadoniga yetaklab borgan edilar. Onaxon haliyam go‘zal, farishtali chehrasidan nur yog‘ilib turar tilidan bol tomardi, u goh Xorazm, goh Toshkent shevasida gapirib, ikki gapining birida «aylanay, jonim bolam» degan so‘zlarni bot-bot takrorlar edi. Onam asli Xorazmlik bo‘lganlari uchun xonadonimizda doimo shu ohangdagi qo‘shiqlar jaranglab turar edi. Bolaligimizdan Xorazm ohanglari, san’ati, meni rom etganligi bois, onam Kommuna opaning oldiga yetaklab olib borgan edilar. Shu kuni onam Kommuna opa bilan uzoq gaplashdi. Opa mening ovozimni eshitib ko‘rib, meni shogirdlikka olishlarini aytdilar. Onam hech ikkilanmasdan meni ustozning uyiga tashlab ketdilar. Men hali juda yosh bo‘lganligim bois onam nega meni begona joyga tashlab ketdilar, deb o‘yladim. Kunlar o‘tib, onam meni ishonchli qo‘llarga topshirib ketganiga amin bo‘ldim. Kommuna Ismoilova nafaqat ustozim, balki men uchun do‘st yaqin maslakdosh, dardlashadigan dugonam, har tong mayin qo‘llari bilan mehr ila sochlarimni o‘rib, peshonamni silaydigan mehribon buvijonimdir.

Shu-shu har ta’til men uchun qadrdon bo‘lgan ustozim xonadoniga Sirdaryodan qanot boylab kelardim. Ustozimdan Xorazm yo‘lida aytiladigan laparlar va yallalarni, maqom yo‘llarini o‘rgandim. Kommuna opa nafaqat qo‘shiq sirlarini, balki she’r mazmuniyu qo‘shiq tarixini mukammal o‘rgatdilar.

Onam bir kuni mendan so‘rab qoldilar: «Kommuna opanikida hech kim seni hafa qilmayapdimi, ustozing urishadimi», dedilar. Shunda bolaligimga tortib: «Ha, urishadilar», dedim. «Voy, qizim, nima deb urishadilar, tartibsizlik qildingmi» deb hayron qoldilar. Men esa: «To‘g‘ri aytgin jonim bolam, deb urishadilar» dedim. Onam kulib yubordilar. «Erkatoy ekansanda unda dedilar». Ha opaning eng qattiq urishishi ham shu. Chunki ular doimo shirin so‘z, xushmuomala, jonim bolam deyishdan charchamasdilar.

Aziz ustozimdan nafaqat qo‘shiq sirlarini, balki sahna madaniyatini, insonlar bilan muloqotni, kibrga berilmaslikni, kattalarni hurmat qilishni, qo‘shiq matnlarini hijjalab o‘rganishni, sahnani hurmat qilishni o‘rgandim. Ustozimdan olgan saboqlar meni ildamlikka yetakladi. Men el nazariga tushib, «Zulfiya nomidagi davlat mukofoti» sovrindori bo‘ldim. Barcha erishgan yutuqlarimda ustozimning xizmatlari juda katta. Ulardan umrimning oxirigacha minnatdorman.

Ustoz doimo men haqimda gapirganlarida to‘lib-toshib, erka ,kenja nevara shogirdim deb faxrlanardilar. O‘zlari orzu qilganidek, «chimildiqda yor-yorni o‘zim aytaman, to‘yingda o‘zim bosh bo‘laman, Kamola Kommuna bo‘lsin ilohim» derdilar.

TONG YELLARI

Anvar Isroil she'ri — *Nabijon Hasanov* musiqasi





O Dilorom, tong ellari, tong ellari,
Muncha o'pib tortqilaysiz kokillarim,
Turfa gullar atridan siz olib sharob,
Osmon bo'yi o'stirgaysiz ko'ngillarim.

Oy ipakdek tong ellari tortqulari,
Siz esgan chog' qochar ko'zdan uyqularim.
Siz esganda suzib ilhom daryosida,
Jismim aro tug'yon etar tuyg'ularim.

QIZ UZATDIK

Gulchehra Jo‘rayeva she’ri — *G‘anijon Toshmatov* musiqasi





Baxtli zamon kelganda, davron suray,
Qizlar shoshmang, qaydan kelar navo, surnay.
Tezroq yuring, dugonajon, to‘y bazmiga,
Kelin poshsha davrasida, bir aylanay,

Gulzormu bu yal-yal yonar, gulkosalar,
Nurzormu bu oyday suzar raqqosalar.
Ko‘zim olgan xon atlasmu yo kamalak,
Hayron bo‘lmang gar yigitlar lol qolsalar.

Kelinoyning harir ekan, oq ro‘moli,
Hilol bo‘lib jilvalanar gul jamoli.
Hazillashib ro‘molini aslo tortmang,
Kelin bo‘lgan bilar kelin ahvolini.

Kuyov keldi, kuyov keldi, kuyov keldi,
Kuyov demang qiz olgani birov keldi.
Yillar kutib, gullar tutib, dildorining,
Diydoriga etishmoqqa shunqor keldi.

Sevgisini sep qilib, qiz uzatdik,
Yor qalbini zeb qilib uy tuzatdik.

BARNO YIGIT

Saida Zunnunova she’ri — *Faxriddin Sodiqov* musiqasi





Shirin so‘z, barno yigit,
Tilingda boling bormu?
Shaydolaring buncha ko‘p,
Yoki iqboling bormu?

Qaldirg‘och qanotimas,
Payvasta qoshlaringdur.
Boqsam barcha yaxshilar
Yoru yo‘ldoshlaringdur.

Ko‘nglumni asir etgan
Chiroyli bo‘ylaringmu?
Nurdek pokligingmi yo
Mehnating, o‘ylaringmu?

Men ham yor bo‘lsam, deyman,
Vafodor bo‘lsam, deyman.
Atrofingda bir umr,
O‘zim o‘rgilsam, deyman.

SO‘LIM BAHOR

Anvar Isroilov she’ri — *Faxriddin Sodiqov* musiqasi





So‘lim bahor, so‘lim nahor
Nurga to‘lgan yo‘lim bahor.
Shul bahorga, gul bahorga
Yarashig‘lik diyorim bor.

Yel parvona gul qoshida,
Yel kuyida sho‘x nashida.
Go‘zallik bor, nafislik bor,
Gullarning ol qarashida.

So‘lim bahor, so‘lim bahor, so‘lim nahor
Nurga to‘lgan yo‘lim bahor.

Gul bog‘larda yor visoli,
Yor visoli – gul misoli.
Chamanlarda ko‘rk ochadi,
Bog‘larga yor yarashadi.

So‘lim bahor, so‘lim nahor
Nurga to‘lgan yo‘lim bahor.

GUL

Sobir Abdulla she'ri — *Mamasidiq Madaliyev* musiqasi





Baxt gulzoriga ekdim,
Hamma guldan soz gul,
Qayrilib oyinasiga,
Boqdi serpardoz gul.

Qancha pardoz bersa mehnat,
Qilsa xush kulgay amal,
Shuncha yashnar, shuncha yayrar,
Ochilib qiyg'os gul.

Har fasl har rangli bo'lsin,
Xuddi gulshandur menga,
Ochilur yo'lim hamisha,
Boshqadur har yoz gul.

Tushmasin gul yuziga,
Yuz xijillik do'stlar,
Hosili mehnatga bog'liq,
Ishlasang oz-oz gul.

O‘YLANMA

Ahmad Bobojon she’ri — *Komiljon Otaniyozov* musiqasi





Sevdim seni qaro ko‘zim, kel yor o‘ylanma, o‘ylanma,
So‘zi shirin qamar yuzim, dildor o‘ylanma, o‘ylanma.
Kel yor, o‘ylanma, o‘ylanma, dildor o‘ylanma, o‘ylanma.

Baxtim borki, seni topdim, oy yuzingga to‘yib boqdim,
Bir umrlik yoring bo‘lsam, o‘zingdursan mening baxtim.
Kel yor, o‘ylanma, o‘ylanma, dildor o‘ylanma, o‘ylanma.

Hamma senga qarashadi, bu gul kim, deb so‘rashadi,
O‘zgalarga parvo qilmay, yorim bo‘lsang, yaroshadi.
Kel yor, o‘ylanma, o‘ylanma, dildor o‘ylanma, o‘ylanma.

SAYYORA

Furqat musaddasi — *Hamza Hakimzoda Niyoziy* musiqasi





Sayding qo'yaber sayyod, sayyora ekan mendek,
Ol domini bo'ynidin, bechora ekan mendek,
O'z yorini topmasdin ovora ekan mendek,
Iqboli nigun, baxti ham qora ekan mendek,
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek,
Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mendek.

Bechorani zulm aylab, qo'l bo'ynini bog'labsan,
Har sori chekib sudrab, o'ldurg'ali chog'labsan,
Ko'ksini jafo birla, lola kabi dog'labsan,
Sot menga agar, qasding olg'uvchi so'roqlabsan.
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek,
Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mendek.

EY, MUNIS ONA

Yamin Qurbon she'ri — *Saloxiddin To'xtasinov* musiqasi





Siz emasmu dilginamga ilhom bergan,
Siz emasmu navolarga ulagan nola.
Qo'shiq bo'lib tug'iladi qalbimdagi o'y,
Ko'ngil mulki gultojisiz, ey munis ona.

Tilginamdan asal tomar sizni so'ylasam,
Sizni kuylab, mehringizga aylay men ta'zim.
Bahor bo'lib, gul ochilib, sizni kuylasam,
Mening yurak qarorlarim tinglang siz bir zum.

Siz bor ekan, his etamiz ko'klam havosin,
Ona, sizdan dildorlikni olgan qizingiz.
Siz turganda yangrab ketar ko'ngil navosi,
Baxtimizday porlab turar bizga mehringiz.

EY, CHEHRASI TOBONIM

Muqimiy g‘azali — *Faxriddin Sodiqov* musiqasi





Ey chehrasi tobonim,
Oshiqlari hayronim,
Yo‘q toqati hijronim,
Vasl ila davo aylang.

Ey zulfi parishonim,
Ahdi hama yolg‘onim,
Sindi, qani paymonim,
Bir mehru vafo aylang.

Ey bulbuli sho‘rida,
Tokay dili afsurda,
Bo‘lmay dame osuda,
Gul vaqti navo aylang.

Oxir meni bemora,
Qil marhami nazzora,
Kim aytdiki, xushtora,
Yuz javru jafo aylang.

Gar bo‘lsa Muqimiy xun,
Ruxsoralari gulgun,
Insofga kelur bir kun,
Haqqiga duo aylang.

MARDGA KO‘NGIL BOG‘LA

Yamin Qurbon she’ri *Nabijon Hasanov* musiqasi



Shoshilib suv ichganlar qalqar, do‘stlar,
O‘rinsiz so‘z ko‘ngilga nashtar do‘stlar.
Vafosi yo‘q yorni yor etgan kishi,
Til tishlagan boladay qaqshar, do‘stlar.

Naqorat:
Mardga ko‘ngil bog‘lasang, yaroshadi,
Nomardga sal yondashgan, adoshadi.

Sovuq tursa yomg‘ir ketib qor bo‘lg‘ay,
Xo‘rlik o‘tsa, ko‘zga dunyo tor bo‘lg‘ay.
So‘zi ustida sulton bo‘lib turgan qiz,
Nomard erning changalida xor bo‘lg‘ay.

Naqorat:
Mardga ko‘ngil bog‘lasang, yaroshadi,
Nomardga sal yondashgan, adoshadi.

mring o‘tsa xush o‘tsin chin yor bilan,
Kishi qadrin bilguvchi hushyor bilan.
Egov etma noshudni hayotingga,
O‘yna-yu kul vaslingga xumor bilan.

Naqorat:
Mardga ko‘ngil bog‘lasang, yaroshadi,
Nomardga sal yondashgan, adashadi.

O‘G‘LIMA O‘XSHAYDI OVOZING SANI

«Oshiq G‘arib» dostonidan — *Komiljon Otaniyozov* musiqasi





Haq o‘zi etirgan aziz mehmonim,
O‘g‘lima o‘xshaydi ovozing sani.
Tez xavarin bergin chiqmasdan jonim,
Bolama o‘xshaydi nolishing sani.

O‘g‘lim ketib sulton boshim xor bo‘ldi,
O‘g‘limni go‘rmakka ko‘nglim zor bo‘ldi.
Yig‘lamoqdin ikki ko‘zim ko‘r bo‘ldi,
G‘ariba mangziydi ovozing sani.

Avval boshdan mani yozim ketibdi,
Qo‘limdan o‘rdagim, g‘ozim ketibdi.
Qo‘ynimdan ayrilib, qo‘zim ketibdi,
Qo‘zima o‘xshaydi ovozing sani.

O‘g‘lim borgan joyga sen ham boribsan,
O‘g‘lim bilan sozu suhbat quribsan.
Yo o‘g‘limsan, yo o‘g‘limni ko‘ribsan,
O‘g‘lima o‘xshaydi ovozing sani.

G‘ariba mangziydi nolishing sani,
O‘g‘lima o‘xshaydi ovozing sani.

BIR GO‘ZAL BORMISH

Mirtemir she’ri *Faxriddin Sodiqov* musiqasi





Deydilarkim, shahrimda bir go‘zal bormish,
Har oqshom boqqa kirib, meni so‘rarmish.
Izlarimni topolmay, ohlar urarmish.
Gir-gir yurarmish,
Hayron bo‘larmish,
O‘lturub yaproqlar-la, suhbat qurarmish...

Ishq uchun osmas kimsa, meni deb, dorga –
Ba’zan qo‘lin cho‘zarmish mungli dutorga,
Sog‘liqlar tilarmish, olisda yorga.
Asl xushtorga,
Hajrida zorga...
Salomlar yo‘llarmish men intizorga...

NOZ ETMA

Chustiy g‘azali — *Sayfi Jalil* musiqasi





«Dil bog‘idan bir gul uzdim,
Ol yor, noz etma, noz etma,
Olasan deb men ko‘z tutdim,
Dildor, noz etma, noz etma.»

Yulduzimsan osmonimda,
So‘nmas gulsan bo‘stonimda,
Sening noming debochadir,
Yurakdagi dostonimda.

Ol yor, noz etma, noz etma,
Dildor, noz etma, noz etma.

Sening bilan sursam davron,
Yuragimda qolmas armon,
Bevafolik qilma yorim,
Qat’iy bo‘lsin ahdu paymon.

Ol yor, noz etma, noz etma,
Dildor, noz etma, noz etma.

Umrim bog‘in gulandomi,
Tongimizning yo‘qdur shomi,
Toshga yozgan xat ham o‘char,
Vafoligim o‘chmas nomi.

Ol yor, noz etma, noz etma,
Dildor, noz etma, noz etma.

YOSHLIK CHOG‘IMDA

Hamid Olimjon she’ri *Sayfi Jalil* musiqasi




-da.
Shun-da ko'r - di ko'-zim ba- hor - ni - - i,
Shun-da qal - bim ta - ni - di yor - ni,
shun-da qal - bim ta - ni - di yor - ni.
Qush lar say - rar jo - nim - ga pay - vast,
Men sev - gi - ning bo'-yi bi - lan mast.
Ku - ni bi - lan da - la - da qol - dim - m,
Lo - la - zor - lar ich - ra yo'-qol - dim - m.
Shun-da ko'r - di ko'-zim ba- hor -
ni - - i,
Shun-da qal - bim ta - ni - di yor - ni,
shun-da qal - bim ta - ni - di yor - ni.
Qu -choq qu -choq gul - lar ter - ga - nim,
Va kel - ti - rib sen - ga ber - ga - ni
m.
Ke - cha - gi - dek ha-mon e - sim - da - - - a.
Har so - ni - ya har - on e - sim - da.
Har so - ni - ya har - on e - sim - da.



Eng gullagan yoshlik chog‘imda,
Sen ochilding ko‘ngil bog‘imda.
Shunda ko‘rdi ko‘zim bahorni,
Shunda qalbim tanidi yorni.

Qushlar sayrar jonimga payvast,
Men sevgining bo‘yi bilan mast.
Kuni bilan dalada qoldim,
Lolazorlar ichra yo‘qoldim.

Naqorat: Shunda ko‘rdi ko‘zim bahorni,
Shunda qalbim tanidi yorni.

Quchoq - quchoq gullar terganim,
Va keltirib senga berganim,
Kechagidek hamon esimda,
Har soniya, har on esimda.

Shundan beri tilimda noming,
Shundan beri dilimda noming.

DO‘PPI TIKDIM

Turob To‘la she’ri — *Saidjon Kalonov* musiqasi



Do‘ppi tikdim chiroyli,
Aka, boshingga loyiq.
Kiyib chiqqin biz yoqqa,
Ko‘rib qo‘ysin xaloyiq.

Do‘ppi tikdim to‘rt gulli,
Ipagi turli-turli,
Ishqimni qo‘shib tikdim,
Bo‘lmasin deb to‘rt kunli.

Qatim tortdim jilolab,
Mehrimni qo‘shib bog‘lab,
Muhabbatim sehrlab,
Olay boshingni bog‘lab.

Do‘ppi dilim jilosi,
Ishqim ohanrabosi,
Shuni topsang, dildorim,
Shudir uning davosi.

USHSHOQ QASHQARCHASI

Nozima g‘azali *Xalq kuyi*

M.M.♩=76-80




ay - la - di. Mis - li bul - bul gul yu-zi - n shav - qi - da ay - lar
man na - vo. Lek e- shit - may bir yo'- li ko'- zim - ni gir -yon
ay - la - di.
Har ke -cha
u oy fi - ro - qi - da che- kar - man oh - lar,
Bir ta - bas - sum qil - ma - yin ho - lim pa - ri - shon
ay - la - di. (O) -
May - li shi - rin til bi - lan der man ka - mo - li vas - fi - ni,
No - zi - ma gar - chi se - ni bag'- ring - ni bir - yon
ay - la - di. No - zi - ma gar - chi se - ni bag' ring- ni bir - yon



Ko‘rguzib nozik jamolin mastu hayron ayladi,
O‘zi gul sayriga ketdi bizni bog‘bon ayladi,

Ochilib gul g‘unchadek o‘t soldi jonu jismima,
Bir tarahhum qilmayin olamga doston ayladi.

Ko‘rgach ul xurshid yuzin, o‘tlar tutashdi jonima,
So‘ldirib umrim gulin, baxtimni vayron ayladi.

Yuz, jamoli sha’mig‘a parvona bo‘ldim o‘rtanib,
Bilmadi holim hanuz ag‘yora paymon ayladi.

Misli bulbul gul yuzin shavqida aylarman navo,
Lek eshitmay bir yo‘li ko‘zimni giryon ayladi.

Har kecha u oy firoqida chekarman ohlar,
Bir tabassum qilmayin holim parishon ayladi.

Mayli shirin til bilan derman kamoli vasfini,
Nozima garchi seni bag‘ringni biryon ayladi.

SHIFOKORLAR

Po‘lat Mo‘min she’ri — *Komiljon Jabborov* musiqasi





Men sizdan davo topdim,
Jonga jon shifokorlar
Maqsadi salomatlik,
Mehribon shifokorlar.

Insonning hayotiga,
Chang solsa agar bir xavf,
Ilmini qurol qilgan,
Posbon shifokorlar.

Chin dildan yuraklarga,
Bergaysiz davo malham,
Mehringiz quyosh go‘yo,
Jonajon shifokorlar.

Ilmingiz quyoshidan,
Qalblarga yugurgay nur,
Xalq uchun bo‘ling Siz ham
Sog‘, omon shifokorlar.

QIZLAR VALSI

Turob To'la she'ri — *Fattoh Nazarov* musiqasi





Go‘zal Toshkent oqshomin,
Nurlantirar yulduzlar.
Do‘stlik, sevgi kalomin,
Ayting, bugun hur qizlar.

Naqorat:
Keling, keling, dugonalar,
Gir aylanib soz o‘ynang,
Kuylab-kuylab taronalar
Gir aylanib, g‘oz o‘ynang.

Qo‘llari gul chevarmiz,
Mehnat, rohat, farog‘at,
Yurtni jondan sevarmiz,
Bunda baxtu saodat.

Naqorat:
Keling, keling, dugonalar,
Gir aylanib, soz o‘ynang,
Kuylab-kuylab taronalar
Gir aylanib, g‘oz o‘ynang.

Yoshlik go‘zal bir bahor,
Maftun qilar dillarni,
Husni qiladi xumor,
Yashnatadi dillarni.

Naqorat:
Keling, keling, dugonalar,
Gir aylanib soz o‘ynang,
Kuylab-kuylab, taronalar
Gir aylanib, g‘oz o‘ynang.

YORING BO‘LAMAN, DEYDI

Ahmad Bobojon she’ri — *Sobir Safoyev* musiqasi




Sid - qu di - li - m - dan sev - gi - li - m
bog'- bon bo' la - man de - y - di.
(O - - - - - oy) Bu sev - gi a - ro se - v - gi - li - m
dos - to - n de - sa - la - r ko - sh - ki,
Sen Zay - nab e - sang me - n o - shiq
rit.
O - mo - n bo' - la - man dey - di. Kim deb so' - ra - a - sa
Men ha - m e - y gu -
dey - di u Sen ka - bi o - zo - d so - hi - bi
li - i Ra' - no.
dav - ron bo' la - man dey - di.
(O - - - - - oy) Bul - bul emas e - di se - n bil - sa - ng



Rad qilma, go‘zal, sev mani, jonon bo‘laman, deydi,
Ishq malhami ila dardingga darmon bo‘laman, deydi.

Sidqi-sadoqat bog‘iga eksam sevgining niholin,
Sidqi-dilimdan sevgilim bog‘bon bo‘laman, deydi.

Bu sevgi orom sevgilim doston desalar koshki,
Sen Zaynab esang, men oshiq Omon bo‘laman, deydi.

Kim deb so‘rasa, deydi u men ham ey guli Ra’no,
Sen kabi ozod sohibi davron bo‘laman, deydi.

Bulbul emas edi sen bilsang, u tinglaganing har tong,
Har tong kuylagan oshig‘ing mehmon bo‘laman deydi.

Ko‘nglim ulangan ko‘ngliga, ayting nima deydi do‘stlar,
Jon o‘rgilayin jononingga qurbon bo‘laman, deydi.

HAYO

Ma'ruf Qoriyev she'ri *Hamid Rahimov* musiqasi





Ishqimni oshkor etarga dilda or aylar hayo,
Ko‘zga ko‘z tushganda lekin oshkor aylar hayo.

Garchi sevdim buncha ham dushvor ekan iqrori ishq,
Tilni lol etsam, dilimni abgor aylar hayo.

Qalbdagi ezgu niyatni aytgali oshufta hol,
Tutsam ishq sirin nihon zor-zor aylar hayo.

Har ko‘rishda bir nigoh tashlab o‘tarsiz men tomon,
Shu nigohdan lola yuzni lolazor aylar hayo.

Necha sevganlarni ko‘rdim, tingladim ishq kuyini,
Ishqimni oshkor etarga sharmisor aylar hayo.

DUTORIM MENING

H.Niyoz so‘zi — *Hayratdin Turdiqulov* musiqasi





Barmog‘im o‘ynaydi, jurek havasi,
Kim suyub tinglamas, dutor nag‘masi.
Geshteklar jonlamas bo‘lmasa sozing,
Ko‘yliyesh berar dutorim mening.

Bahor hayu zimday, jang‘a jag‘asan,
Egirdi torini, jipakdan qilsam.
Jolikpayman kuni, tuni o‘ynasam,
Ko‘nglimni qumori, dutorim mening.

Xauyez qilsam jonglotarman jahondi,
Xosh xauazing talkitadi odamdi,
Sen orqali shoirlardan so‘z qoldi,
mrimni serigi dutorim mening.

QALB

Normurod Narzullayev she'ri *Rahmatjon Tursunov* musiqasi





Ko'ngil yorishar boqsam,
Subhidam shabnam bo'lsa,
Gulning ashkini ayting,
Yaprog'ida nam bo'lsa.

Qalbida quyosh porlab,
Sevgi o'tida yonib.
Har kun kutar, u sezmas,
Yonida turgan bo'lsa.

Odobu nazokatda,
O'z ishqin bayon aylar,
Tengini topib bo'lmas,
Ul yorug' olam bo'lsa.

Sevgini kuyga soldim
Qalbimda o'zing borsan,
Mayli dilnoma yozma
Qalbingda alam bo'lsa.

Narziy saqla yodingda,
Kim aytar baxtiyor deb,
Bu olamda gar xushtor,
Ul oshig'i kam bo'lsa.

SEN YOR UCHUN

Manzura she'ri — *Faxriddin Sodiqov* musiqasi





Ishqingda kuydim o‘rtanib
Men mubtalo sen yor uchun,
Chekdim fig‘onlar oh urib,
Men mubtalo sen yor uchun.

Bilmam sening ko‘ngling nadur,
Hajringda jonim o‘rtanur,
Qilsam navo jismim kuyib,
Men mubtalo sen yor uchun.

Sabru qaroru, toqatim,
Ketdi qo‘limdan toatim.
Qolmisham oxir er chizib,
Men mubtalo sen yor uchun.

Men yorning ovvorasi,
Dardimni bormu chorasi,
Boqsang nedur bir gal kulib,
Men mubtalo sen yor uchun.

Bo‘lmay nasib vasling mayi,
Qildi navo Manzurai,
Goh yig‘labon, gohi kulub
Men mubtalo sen yor uchun.

VATAN JILOSI

Haydar Muhammad she'ri — *Muhammadjon Mirzayev* musiqasi




-yer.
Mar-g'i-lo n - ning at - la - si - n ming rang - li - gi -
bo - r bu-n-da.
Mi-ng rang - li - gi - - - - i bo -
r bun-da.
Qu-lu-n-lar- ning
kish - na-shi sa-do be-ra - r tog' - la r - da - a,
Qi-mi-z su-za - r ko - sa-ni-ng ja-ra-ng - li - gi
bo - r bun-da. Me'-zon sha-mo-l pax - ta-dan
i-pa-k to r - tar to - r - lar. Har to - ri - da
tan - bur-ning ta-ra ng - li - gi bor - bun-da.
Qa-vat qa-vat uy-lar-ga oy chi-qa - di tir - ma - shi b



Qo‘shiqlarim dilda-yu, jarangligi bor bunda,
Qo‘shiq yangrar qirlarning chamanligi bor bunda.

Bahor sevgan bog‘larni aksi etgan momo er,
Marg‘ilonning atlasin ming rangligi bor bunda.

Qulunlarning kishnashi sado berar tog‘larda,
Qimiz suzar kosaning jarangligi bor bunda.

Mezon shamol paxtadan ipak tortar, torlar,
Har torida tanburning tarangligi bor bunda.

Qavat-qavat uylarga oy chiqadi tirmashib,
Oltin qo‘lli ustaning farangligi bor bunda.

MUG‘ULCHAI BUZRUK QASHQARCHASI

Atoyi g‘azali




- cho - ra ko'ng - lum bor - di ham - ro - hing se - ning, gar - chi men tush
- tum ja - mo - ling - din yo - mon ko'z - din yi - roq, (yo - rey),
yax - shi - kim, be - cho - ra ko'ng - lum bor - di ham - ro -
hing se - ning, yax - shi - kim, be - cho - ra ko'ng - lum
bor - di ham - ro - hing se - ning.
Ho - h(i) vas - ling bir - la tir - guz,
ho - h(i) ul - tur hajr i - la, men ri - zo ber - dim ne - chuk - kim
bo'l - sa dil - ho - hing se - ning (o - o)
Ho - h(i)vas - ling bir - la tir - guz,
ho - h(i)o'l - tur hajr i - la, (yo - rey) men ri - zo ber -


- dim ne-chuk-kim bo'l-sa dil - ho - hing se - ning, (o)
Ho - jat er - mas has - ra - ting - da ar - z(i) ho - jat ay - la - mak,
chun ta - jal - li ko'z-gu - si - dur ta - b'i o - go - hing se - ning (o -
- - - o yo - ra - mey).
Ne a - jab et - sang O - to - yi bir tun ul oy
vas - li - na, (o - o o o
o yo - ra - mey), kim o'-tar yet -
- ti fa - lak - din har sa-har o - hing se - ning, (o
o) Ne a - jab et - sang O - to - yi bir tun ul oy



Ey saodat matla'i, ul orazi mohing sening,
Husn aflokinda yo'qtur mislu hamtoying sening.

Ka'bai arbobi hojat qoshlaring mehrobidur,
Qiblai ahli muhabbat xoki dargohing sening.

Bu latofatkim, paritek sendadur, ey rashki hur,
Go'yyo bog'i Eramdur sahni xirgohing sening.

Garchi men tushtum jamolingdin yomon ko'zdek yiroq,
Yaxshikim, bechora ko'nglim bordi hamrohing sening.

Xoh vasling birla tirguz, xoh o'ltur hajr ila,
Men rizo berdim nechukkim, bo'lsa dilxohing sening.

Hojat ermas hasratingda arzi hojat aylamak,
Chun tajalli ko'zgusidur tab'i ogohing sening.

Ne ajab etsang Otoyi bir tun ul oy vaslina,
Kim o'tar etti falakdin har sahar ohing sening.

MUG'ULCHAI BUZRUK SOQIYNOMASI

Nodira g'azali




o - yi xayr e - ta - r - men. Maq - su - dim e - ru-
r Se - ning ka - mo - ling. Ul oy - ni o'-
zing - ga baxsh e - tar sa - n (o) - -
- Et - mish ma - gar el qu - yosh za - vo -
- li.
Ush - shoq - la - ring g'a - ming - da o'l - di,
Yo'q - dur se - ning zar - ra - i ma - lo - li - - ng.
(O - o - o - o - o - - o)
Ush - shoq - la - ring
g'a - mi - ng - da o'l - di, Yo'q - dur - se - ni - ng
zar - ra - i ma - lo - ли - ng (O - o - o - o - o -


- ho)
Ey has- ta ko'n - gi - l fi - roq i - chin -da,
Dam ur - ga- li qol - ma- di ma- jo - ling - (a) (O -
- o - - yo - ra ma)
Ey has - ta ko'n - gil
fi - roq i - chin - da - - - - -
Dam ur - ga- li qo - - l - ma- di ma- jo - ling (a)
(O - - o - - yo - ram) - - Ey No - di - ra
lo - f(i) ishq u - rar se - n o - -
- Mash - hu - ri ha - lo - yi - q o'l - di ho - ling.

Ey sarvi ravon, nadur xayoling,
Jon o‘rtadi va’dai visoling.

Payvasta duoi xayr etarmen,
Maqsudim erur sening kamoling.

Ul oydek o‘zingga baxsh etarsen,
Etmish magar el quyosh zavoli.

shshoqlaring g‘amingda o‘ldi,
Yo‘qdur sening zarrai maloling.

Ey xasta ko‘ngil, firoq ichinda,
Dam urgali qolmadi majoling.

Ey Nodira, lofi ishq urarsen,
Mashhuri xaloyiq o‘ldi holing.

NETAY
(Bayot V)

Ogahiy g‘azali





Ko‘rmasam mehru jamoling mohi anvarni netay,
So‘rmasam la’li zilolim obi kavsarni netay.

Qaddini ra’no niholin gar tomosho qilmasam,
Bog‘aro nazzorai sarvu sanubarni netay.

Har nafas shirin kalomi jonga rohat bermasa,
Bazm aro qandu, novvotu, shahdi shakkarni netay.

Ogahiy gar boqmasa, xublar sari ayb etma kim,
Bazm aro gar yo‘qdur ul oy o‘zga dilbarni netay.

MENGA NAVBAT

Turob To‘la she’ri *Faxriddin Sodiqov* musiqasi





Ey subhi saboh ellari, to‘xtang, menga navbat,
Tinglang meni Pop ellari, to‘xtang, menga navbat!

Kuylay dalalar soziga sozim unga hamsoz,
Serzavq dala bulbullari to‘xtang, menga navbat!

Shirmon deya, Shirmon deya kuylab va etib lol,
Keltirdi xushon yo‘llari, to‘xtang, menga navbat!

Topsin g‘o‘zalar bag‘rida yashirin g‘azalimni,
Tolmas va taram qo‘llari, to‘xtang, menga navbat!

Oshufta bu dil satrini sayqallasa zora,
Bo‘ston bo‘yi kokillari, to‘xtang, menga navbat!

Kuylay dalalar soziga sozim unga hamsoz,
Sir sohillari yellari, to‘xtang, menga navbat.

Shirmon deya, Shirmon deya kuylab va etib lol,
Keltirdi xushon yo‘llari, to‘xtang, menga navbat!

Qo‘y, toki Turob yurtini kuylab mazza qilsin,
Yayrab yana ko‘ngillari to‘xtang, menga navbat.

BEVAFOGA

Mashrab g‘azali — *Nabijon Hasanov* musiqasi




don. Ko'z - la - richo'l - po - - n zul - fi pa - ri - sho-
n, sar - vi xi - ro - mo - n qo - shi qa - ro - ga.
Mah - bub - lar ich - ra- zo - lim e - kan - san,
Meh - ru va - fo - ni- bil - ma-s e - kan - san,
(o) - - - -
(O - - far - yo - da) Jab - ru ja - fo - lar
ay - lar e - kan sa - - n, Ey - yo - ru jo - ni-
- m be - rahm e - kan san, Rahm ay - la - may san



Ko‘rdim yuzingni qoldim baloga,
Hajringda yuz ming jabru jafoga,
Qayga boray men endi davoga,
Arzimni aytay bodu saboga.
Bizdan duolar ul bevafoga,

Ruxsori tobon mehri durafshon,
Ikki labi ham la’li badaxshon,
G‘uncha dahoni pistai xandon,
Ko‘zlari cho‘lpon zulfi parishon,
Sarvi xiromon qoshi qaroga.

Mahbublar ichra zolim ekansan,
Mehru vafoni bilmas ekansan,
Jabru jafolar aylar ekansan,
Ey yoru jonim bemehr ekansan,
Rahm aylamaysan men mubtaloga.

KURD

Muqimiy g‘azali *Xalq musiqasi*




jo - no jo - non qay - da - dur, (yo -
ra) qay - da - dur, Ko' rib gul yu - zing - ni bog' -
da ban - da - dur, (yo - rey)
Saq - lay ish - qing to - ki jo - nim tan - da - dur,
(yo - ra) tan - da - dur, O'-zim har joy - da ma -n(a)
ko'ng - lu - m san - da - dur. (yo)
Meh - ring o' - ti no goh
tush di jon - lar - ga,
Par - vo - yim yo'q zar - ra - xo -
- nu - mon - lar - ga, Lo - la yang - lig' to' - lib bag' -


rim qon - lar - ga, O'-zim har joy - da ma - n(a) ko'ng-
lu - m san - da - dur (yo - ra)
Er - ta - yu kech fik - ru
zik - ri - m xa - yo - ling.
Bir so'r - ma - di qan - day kech - di - i
ah - vo - ling, Es - la - ri - m - ga tush - mush shi -
ri - n ma - qo - ling, (yo - ra) ma - qo - li - ng,
O'-zim har joy - da ma - n(a) ko'ng - lu - m san - da - dur
(yo - ra jo - nay) o'-zim ay - lo - na - yi - n
a shah - lo - o ko'- zing - dan yo - ra.

Endi sendek jono, jonon qaydadur,
Ko‘rib gul yuzingni bog‘da bandadur.
Saqlay ishqing toki jonim tandadur,
O‘zim har joydaman, ko‘nglum sandadur.

Mehring o‘ti nogoh tushdi jonlarga,
Parvoyim yo‘q zarra xonumonlarga.
Lola yanglig‘ to‘lib bag‘rim qonlarga,
O‘zim har joydaman ko‘nglum sandadur.

Ertayu kech fikru zikrim xayoling,
Bir so‘rmadi qanday kechdi ahvoling.
Eslarimga tushmush shirin maqoling,
O‘zim har joydaman ko‘nglum sandadur.
O‘zim aylonayin shahlo ko‘zingdan.

EY, SOHIBI DIL

Turob To‘la she’ri — *Sulton Hayitboyev* musiqasi





Ey sohibi dil, ko‘nglum olib, qiynamasang-chi,
Ko‘nglumni olib, o‘tga solib, qiynamasang-chi,
Jon ila tanim bilki, mani sen ila yolg‘iz,
Ishq sohilini ters yoqalab, qiynamasang-chi.
Nim parda ko‘nglum shavqi bilan aqlim olibsan,
Aqlimni olib ham yo‘qolib, qiynamasang-chi.

Soz dardga kelur qiynog‘idin sozandasini,
Sozanda misol qalbim chalib kuylamasang-chi,
O‘ynashma yurak dardi bilan dardman ersang,
Ketmasmu oxir u o‘t olib qiynamasang-chi,
Andishalidur balki xushum sehri kechirsin,
Oh, jajjigina jonim olib qiynamasang-chi.

BIR ISHVA BILAN

Hamza g‘azali — *Muxtorjon Murtazoyev* musiqasi





Bir ishva bilan jonon (a),
Devona qilib ketdi.
Aqlimni sochib har yon (a),
Mastona qilib ketdi.

Avvalda olib ko‘nglim,
Chin ahdu vafo birlan,
Oxirda jafolarga,
G‘amxona qilib ketdi.

Bilmam ne gunohim bor,
Olmaydi xabar bir yo‘l,
Yo rashk ila ag‘yorim (o),
Begona qilib ketdi.

Men kimga borib yig‘lay,
Ul sho‘xi sitamgardin,
Yurt elga bo‘lib telba,
Afsona qilib ketdi.

GUL O‘G‘LON

Ojiza she’ri va musiqasi





Gul o‘g‘lon, gul o‘g‘lon,
Gul qadrini bil o‘g‘lon.
Gul qadrini bilmasang,
Chamanda bulbul o‘g‘lon.

Naqorat:
Oromijon nigorim,
Sarvi ravon nigorim,
Na qoldi manda toqat,
Na qilsang ixtiyorim.

Tog‘lara qor tushibdi,
Ko‘nglima yor tushibdi,
Yora bichilgan ko‘ynak (ey)
Yoqasi tor tushibdi.

Naqorat:
Oromijon nigorim,
Sarvi ravon nigorim,
Na qoldi manda toqat,
Na qilsang ixtiyorim.

Bir ko‘rsatib yuzingni,
Qo‘yding mani baloga,
Nedur mani gunohim (ey)
Chakding o‘zni panoga.

Naqorat:
Oromijon nigorim,
Sarvi ravon nigorim,
Na qoldi manda toqat,
Na qilsang ixtiyorim.

DURDONA GUL

To'lqin she'ri *Orif Qosimov* musiqasi





Men bog‘larni sevaman,
Xush chog‘larni sevaman,
Chamanimga fayz bergan,
Durdona gul, durdona.

Chakkangda yashnar, yal-yal,
Har bir narsadan go‘zal,
Oshiq ahlin diliga,
Bir dona gul, bir dona.

Bag‘ri tosh odamlarga,
Iz qolmas qalamlarga,
Har doim gul begona,
Begona gul, begona.

Gullarga to‘lsa dunyo,
Ko‘zlardan yog‘ar ziyo,
Dilni dilga payvandlar,
Yagona gul, yagona.

SENDA XAYOLIM

Turob To‘la she’ri — *Hamid Rahimov* musiqasi





Sochlarim tolim-tolim, senda xayolim,
Kecha xatingni olib, kuldi jamolim.

Bog‘da bulbul sayraydi, dardin bayon aylaydi,
Ovozasin eshitsam, dilim yayraydi.

Fikru xayolim senda, o‘sha chamanda,
Iqbolimiz ochilgay, shunday zamonda.

Sochlarim tolim-tolim, maydalab o‘rolmayman,
Yorim yangi erlarda, men ham qolmayman.

Men ham ketdim cho‘l bilan, o‘sha yo‘l bilan,
Meni unda kutib ol, dasta gul bilan.

Men boray borgunimcha,yor sog‘intirding muncha,
Bulbul asli sayrarmish, gul ochilguncha.

DAVRON SURAYLIK

Boborahim Mirzayev she’ri — *Hamid Rahimov* musiqasi



Bog‘lari – nashvat, uzum, nashq olma bo‘ldi gul yuzim,
Do‘stlarga dasturxon yozay nodonga yo‘q shirin so‘zim.

Naqorat.

Marg‘ilon – koni ipak, yashnaydi bo‘stoni ipak,
Atlasi mashhur ekan, bo‘ldim g‘azalxoni ipak.

Naqorat.

O‘ZBEKISTON DIYORIM

Ahmad Bobojon she’ri *Sh.Saloyev* musiqasi



O‘zbekiston diyorim, sen quvonchim qarorim,
Kuylagali madhingni, oldim qo‘limga torim.

Naqorat:

O‘zim aylanay, ko‘zim aylanay, jonim aylansun.

Keng quchoq tillo tog‘san, poyoni yo‘q keng bog‘san,
Baxt yo‘lini yoritgan, sharqda mash’al chiroqsan.

Naqorat.

GULNORA

Ahmad Bobojon she'ri *Komiljon Otaniyozov* musiqasi





Bu go‘zal yurtimni hur qizi Gulnora,
Ko‘rgan ko‘rsam deydi yuzini yuz bora.
Husni bir chamandur kokillari qunduz,
Yigitlar yetsam der shunday go‘zal yora.
Gulnora tug‘ilgan quyoshli makonda,
Kamolga yetgan ul gul ochgan bo‘stonda.
Yerdan terar oltin, yurtga berar oltin,
Quvnaydi Gulnora cheksiz gulistonda.

Naqorat:
O Gulnora, jon Gulnora,
Yigitlar yetsam der shunday go‘zal yora.

Sochlari tim qora yuz mangzar anora,
Ko‘rgan ko‘rsam deydi yuzini yuz bora.
Paxtakor ozod qiz maqtanar har dilda,
Yigitlar yetsam der shunday go‘zal yora.

ASSALOM

Ahmad Bobojon she'ri *Saidjon Kalonov* musiqasi




es - la - tur ek-ka-nim har bir ni-hol
qad-di ka-mo-ling es-la - tur yan-gi bog‘ - lar-da su-ray-lik bir-ga dav-ron
as - sa - lom bir-ga dav-ron as - sa - lom
Kel o-na yurt qo‘y-ni-ni
gul-zor e-tay-lik jon yi - git bog‘ la - rin naqsh ol-ma bir-la
nor e-tay lik jon yi - git Yil sa-yin yer ho - si-lin
bis-yor e-tay-lik jon yi - git Yil sa - yin yer ho - si-lin bis-yor e-tay-lik
jon yi - git ko‘p so-g‘in-dim qalb-dan se-ni kel pah-la-vo-n as - sa-lom



Assalom jonon yigit, ey jonga darmon assalom,
Ko‘zlarim nuri ulug‘ yurtimga posbon assalom.
Xilma-xil gullar yaratdim, sen fidokor yor uchun,
Yangi gulzorimga kelgil, ey qadrdon assalom.

Ko‘kka boqsam oy sening oydin jamoling eslatur,
Bog‘da bulbul nag‘masi, totli maqoming eslatur.
Ekkanim har bir nihol, qaddi kamoling eslatur,
Yangi bog‘larda suraylik, birga davron assalom.

Kel ona yurt qo‘ynini, gulzor etaylik jon yigit,
Bog‘larin naqsh olma birla, nor etaylik jon yigit.
Yil sayin yer hosilin, bisyor jon yigit,
Ko‘p sog‘indim qalbdan seni, kel pahlavon assalom.

QOSHING QAROSI

T.To‘la she’ri — *G‘anijon Toshmatov* musiqasi





Qoshing qarosi balo,
Netay men unga shaydo,
Arzi holimni etkur,
Chamanda esgan sabo.

Borib ayting to‘rg‘aylar,
Ul G‘arib kimni poylar,
Mendek kuygan bu Majnun,
Shuncha yil, shuncha oylar.

Chertma jo‘ram, toringni,
Elga yoyma zoringni,
Tushimda ham ko‘rmayman,
Yurakdagi yorimni.

Gul shoxida bulbulni,
Tutib olgim keladi,
Ko‘nglimdagi yorimni,
Kunda ko‘rgim keladi.

Qaldirg‘och qaro ekan,
Qanoti alo ekan,
Yoshlikda bergan ko‘ngil,
Ayrilmas balo ekan.

TOKAY

Uvaysiy g‘azali — *Komiljon Jabborov* musiqasi



Boshimg‘a yog‘dursan, ey falak, boroni g‘am tokay,
Yozarsan past iqbolimni, ey lavhi qalam tokay,
O‘zimdinmu, falakdinmu va yo iqboli pastimdin,
Tunu kun do‘stdin ozor, dushmandin sitam tokay,
Uvaysiy, qolg‘on umring ol yuzingga qiblai maqsud,
Xirad bozorida qilg‘ungdu savdoi sanam tokay.

TESTLAR SAVOLLARI

1. Kommuna Ismoilova nechanchi yilda tug‘ilgan?
A.1925 y. B.1927 y.
S.1930 y. D.1929 y.

2. Hozirgi O‘zMUning oldingi nomi?
A. ToshDU B. SamPI
S. SAGU D.O‘zMU

3. Kommuna Ismoilovaga birinchi nima deb ism qo‘yilgan?
A. Kommuna B. Bekajon
S. Komila D. Ullibibi

4. «Barno yigit» qo‘shig‘ining bastakori kim ?
A.F.Sodiqov. B.S.Jalil.
S.S.Kalonov. D.S.Safoyev.

5. Kommuna Ismoilova ilk bor nechanchi yili konsert gastroliga chiqqan?
A.1941 y. B.1944 y.
S.1943 y. D.1945 y.

6. «Ey sohibi dil» qo‘shig‘i she’rini kim yozgan?
A.S.Hayitboyev. B.T.To‘la.
S.Chustiy. D.N.Narzullayev.

7. G.Rahimova ansambli necha kishidan iborat bo‘lgan?
A.20 kishi. B.25 kishi.
S.14 kishi. D.16 kishi.

8. «Zebixon noming uchun» qo‘shig‘i kimga bag‘ishlangan?
A.Zebiniso. B.Zebi G‘aniyeva
S.Zebo Choriyeva. D.Zulfiya.

9. Kommuna Ismoilovaning ilk ustozi kim?
A.F.Sodiqov. B.G‘.Azimov.
S.B.Mirzayev. D.B.Davidova.

10. «Bolama o‘xshaydi» qo‘shig‘ini kim bastalagan?
A.M.Qosimov. B.F.Sodiqov.
S.Y.Rajabiy. D.K.Otaniyozov.

11. G.Rahimova ansambliga Kommuna Ismoilovani nechanchi yili qo‘shib olgan?
A.1943 y 11fevral B.1941 y 9 dekabr
S.1944 y 15 dekabr D.1942 y8 mart.

12. «Barno yigit» qo‘shig‘i she’ri kim tomonidan yozilgan?
A.S.Zunnunova B.G.Jo‘rayeva.
S.Y.Qurbon. D.Chustiy.

13. «Bolama o‘xshaydi» qo‘shig‘i qaysi dostondan olingan?
A.Alpomish. B.Go‘ro‘g‘li.
S.Oshiq G‘arib. D.Layli va Majnun.

14. Kommuna Ismoilova ilk ish faoliyatini qaysi teatrda boshlagan?
A.A.Navoiy. B.Muqimiy.
S.Xorazm. D.Xamza.

15. «Do‘ppi tikdim» qo‘shig‘i she’rini muallifi kim?
A.Turob To‘la. B.Hamid Olimjon.
S.Mirtemir. D.Sobir Abdulla.

16. Kommuna Ismoilova nechanchi yili O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist unvonini olgan?
A.1949. B.1950.
S.1959. D.1948.

17. Kommuna Ismoilova nechanchi yili O‘zbekiston radiosiga yakkaxon xonanda sifatida ishga qabul qilindi?
A.1956. B.1959.
S.1960. D.1955.

18. Kommuna Ismoilova qanday oilada tug‘ilgan?
A.Sozanda. B.Ziyoli.
S.To‘quvchi. D.Xonanda.

19. Yoshlik chog‘imda qo‘shig‘i she’rini kim yozgan?
A.Sayfi Jalil. B.Turob To‘la.
S.Hamid Olimjon. D.Nozima.

20. Kommuna Ismoilova o‘zi ijro etgan qaysi qo‘shiq nomi farzandi ismi bilan bog‘liq?
A.Gulnora. B.Zebixon.
S.Oyshaxon. D.Xumor.

21. Kommuna Ismoilova nechanchi yili O‘zbekiston Xalq artisti unvonini olgan?
A.1963 y. B.1962 y.
S.1964 y. D.1965 y.

22. Ustoz murabbiylik faoliyatini Kommuna Ismoilova Toshkent madaniyat kollejida nechanchi yildan boshlagan?
A.1990y B.1991 y.
S.1995 y D.1993 y.

23. Kommuna Ismoilova ijro etgan «Shifokorlar» qo‘shig‘ini bastakori kim?
A.K.Jabborov. B.F.Sodiqov.
S.B.Mirzayev. D.Y.Rajabiy.

24. O‘zbekiston radiosining «Oltin fondi»da Kommuna Ismoilovaning nechtadan ortiq qo‘shiqlari bor?
A.170 B.470
S.270 D.370

25. Kommuna Ismoilova ijro etgan «Gul o‘g‘lon» qo‘shig‘ini musiqa va she’r muallifi kim?
A.Ogahiy. B.Ojiza.
S.M.Xarratov. D.K.Otaniyozov.

26. Kommuna Ismoilova nechanchi yilgacha maqom ansamblida ishlagan?
A.1981 y B.1984 y
S.1979 y D.1990 y

27. Kommuna Ismoilova ijro etgan «Ey chehrasi tobonim» ashulasining bastakori kim?
A.N.Xasanov B.F.Sodiqov.
S.D.Zokirov. D.O.Qosimov.

28. Kommuna Ismoilova kitobining muallifi kim?
A.S. Begmatov. B.R.Qosimov.
S.A.Jalilov. D.R.Yunusov

29.O‘zbekiston radiosi qoshidagi «Maqom» ansambli nechanchi yil tashkil etilgan?
A.1956 y B.1948 y
S.1958 y D.1959 y

30. Kommuna Ismoilova ijro etgan «Ushshoq Qashqarchasi» qaysi maqomdan olingan?
A.Navo B.Rost
S.Buzruk D.Segoh

31. Kommuna Ismoilovaning «Xayron ayladi» qo‘shig‘i qaysi dostondan olingan?
A.Go‘ro‘g‘li B.Alpomish
S.Oshiq G‘arib D.Gulo‘g‘lon.

32. Kommuna Ismoilovaga nechanchi yili «Mehnat shuhrati» unvoni berilgan?
A.2000 y B.2009 y
S.2010 y D.2011 y

33. «Vatan jilosi» ashulasini she’r muallifi kim?
A.Po‘lat Mo‘min B.Haydar Muhammad
S.Hamid Olimjon D.Mirtemir

34. Kommuna Ismoilovani «Noz etma» ashulasi kimning g‘azali?
A.Nozima. B.Chustiy.
S.Muqimiy. D.Atoiy.

35. Kommuna Ismoilova ijro etgan «Tokay» ashulasini bastakori kim?
A.A.Ismoilov. B.S.Kalonov.
S.G‘.Toshmatov. D.K.Jabborov.

36.Kommuna Ismoilova ijro etgan «Ey munis ona» qo‘shig‘i she’rini kim yozgan?
A.Y.Qurbon. B.E.Vohidov.
S.A.Oripov. D.A.Isroilov.

SAVOLLAR

1. Kommuna Ismoilova qaysi viloyatda tug’ilgan?
2. Kommuna Ismoilovani ilk ustozi kim?
3. Kommuna Ismoilova nechanchi yilgacha maqom ansamblida ishlagan?
4. Kommuna Ismoilova nechanchi yilda tug‘ilgan?
5. G.Rahimova ansambli necha kishidan iborat bo‘lgan?
6. Kommuna Ismoilovaga birinchi nima deb ism qo‘yilgan?
7. “Barno yigit” qo‘shig‘ini bastakori kim?
8. “Bolamma o‘xshaydi” qo‘shig‘ini kim bastalagan?
9. G.Rahimova ansambliga Kommuna Ismoilovani nechanchi yili qo‘shib olgan ?
10. Kommuna Ismoilova ilk ish faoliyatini qaysi teatrda boshlagan?
11. “Bolamma o‘xshaydi” qo‘shig‘i qaysi dostondan olingan?
12. Kommuna Ismoilova nechanchi yili O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist unvonini olgan?
13. Kommuna Ismoilova nechanchi yili O‘zbekiston radiosiga yakkaxon xonanda sifatida ishga qabul qilindi?
14. Kommuna Ismoilova nechanchi yili O‘zbekiston Xalq artisti unvonini olgan?
15. Ustoz murabbiylik faoliyatini Kommuna Ismoilova Toshkent Madaniyat Kollejida nechanchi yildan boshlagan?
16. O‘zbekiston radiosi qoshidagi “Maqom ansambli” nechanchi yili tashkil etilgan?
17. O‘zbekiston radiosini oltin fondida Kommuna Ismoilovaning nechtadan ortiq qo‘shiqlari bor?
18. Kommuna Ismoilova ijro etgan “Ushshoq Qashqarchasi”qaysi maqomdan olingan?
19. Kommuna Ismoilovaga nechanchi yili “Mehnat Shuhrati”unvoni berilgan?
20. Kommuna Ismoilova ijro etgan “Ey munis ona”qo‘shig‘i she’rini kim yozgan?
21. Kommuna Ismoilova ijro etgan “Tokay” ashulasini bastakori kim?
22. «Kommuna Ismoilova» kitobini muallifi kim?
23. Kommuna Ismoilova nechanchi yilgacha maqom ansamblida ishlagan?
24. Kommuna Ismoilova nechanchi yili O‘zbekiston radiosiga yakkaxon xonanda sifatida ishga qabul qilindi?
25. Kommuna Ismoilovani “Noz etma” ashulasi kimning g‘azali?
26. “Vatan jilosi”ashulasini she’r muallifi kim?
27. Kommuna Ismoilovaning “Xayron ayladi”qo‘shig‘i qaysi dostondan olingan”
28. Kommuna Ismoilova o‘zi ijro etgan qaysi qo‘shig‘ nomi farzandi ismi bilan bog‘liq?
29. Kommuna Ismoilova ijro etgan “Ey chehrasi tobonim”ashulasini bastakori kim?
30. Kommuna Ismoilova ijro etgan “Gulo‘g‘lon”qo‘shig‘ini musiqa va she’r muallifi kim?
31. “Do‘ppi tikdim” qo‘shig‘i she’rini muallifi kim?

MUSTAQIL O’QISH USHUN TOPSHIRIQLAR



1.Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish.-T.: O‘zbekiston,2009, 20-21-betlarini o‘qib kelish.



2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.-T.:Ma’naviyat, 2008, 19-betini o‘qib kelish.



3. Ahmad Jabborovning “O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari” kitobidan san’atshunoslik fanlari nomzodi, musiqashunos ***Sadir Vohidov*** (1930-1998) hayoti va ijodi haqida ma’lumotga egabo‘lish. ***“Kuy - qo‘shiqning qanoti”*** maqolasi bilan tanishish



4. Rahmatilla Nosirovning “Mutaxassislikka kirish” o‘quv qo‘llanmasidan ***“Estrada ijrosiga moslashtirish”, “Estrada san’ati”*** bo‘limlarini o‘qish, amaliy mashg‘ulotlar bobida berilgan nota va grafalarni o‘zlashtirish.



5. Rahmatilla Nosirovning “Xalq qo‘shiqlari kompozitsiyasi” (Fan,T.: 2006) monografiyasidan ***Xalq qo‘shiqlarining kompozitsiyasi*** haqidagi maqolasi bilan tanishish va shu asosda mustaqil ish tayyorlash.



6. Oliy o‘quv yurtlari uchun “Vokal” fanidan “Soz bilan suhbat” (R.Nosirov Fan T.: 2007) o‘quv qo‘llanmaning kirish qismidan joy olgan hamd, munojot, na’t, manzuma, didaktika (pand-nasihat), so‘z va soz uyg‘unligi haqidagi ma’lumotlar bilan tanishish.



7. Otanazar Matyoqubovning “Maqomot” (Musiqa,T.: 2004) kitobidan ***Yangiliklar yo‘lida*** haqidagi 5-bob bilan tanishish va shu asosda mustaqil ish tayyorlash.



8. Otanazar Matyoqubovning “Buxoro Shashmaqomiga bir nazar” (Musiqa,T.: 2015) kitobidan ***Musiqiy Shashmaqomdan – Buxoro Shashmaqomiga*** haqidagi 3-bob bilan tanishish va shu asosda mustaqil ish tayyorlash.



9. A.Madraimov, G.Fuzailovalarning “Manbashunoslik” (T.: 2007) kitobidan ***O‘zbek tilidagi manbalar*** haqidagi 9-mavzu bilan tanishish va shu asosda mustaqil ish tayyorlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
Karimov I.A. Eng asosiy mezon hayot haqiqatini aks ettirish. –T.: O'zbekiston, 2009.
Navoiy Alisher. MAT, 1 tom, Fan, T.: 1987.
Fuzuliy Muhammad. Asarlar, birinchi jild, Devon, G'.G'ulom n. Badiiy adabiyot – T.: 1968.
Huvaydo. Devon, Yangi asr avlodi, –T.: 2007
Maxtumquli. She'rlar. "Fan" nashriyoti. –T.: 2007
Maxtumquli she'riyatidan. O'zKP MK nashriyoti. –T.: 1976
Maxtumquli. Saylanma. "Fan" nashriyoti, –T.: 2004
Furqat she'riyatidan. O'z. KP. MK nashriyoti, –T.: 1980
Furqat. Tanlangan asarlar. O'zbekiston davlat badiiy adabiyot nashriyoti. –T.: 1959
Qayyumov Po'latjon Domulla. Tazkirai Qayyumiy 1-3. O'zRF Qo'lyozmalar instituti tahririy nashriyot bo'limi, -T.: 1998
Jabborov Ahmad. O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. Yangi asr avlodi, –T.: 2004
Musiqa ijodiyoti masalalari. Yangi asr avlodi, –T.: 2002
Nosirov Rahmatilla. Soz bilan suhbat. Fan, –T.: 2007.
Nosirov Rahmatilla. Xalq qo'shiqlari kompozitsiyasi. Fan, –T.: 2006.

TEST SAVOLLARINING JAVOB KALITLARI

1.B	10.D	19.S	28.S
2.S	11.A	20.D	29.D
3.D	12.A	21.S	30.B
4.A	13.S	22.D	31.A
5.S	14.S	23.A	32.D
6.B	15.A	24.B	33.B
7.D	16.A	25.B	34.B
8.B	17.B	26.A	35.D
9.A	18.B	27.B	36.A

MUNDARIJA

Kirish 3
Kommuna Ismoilova (hayoti va ijodiy yo‘li) 4
Yodnoma (Hamidjon Tohirjonov) 20
Opa qo‘shiq kuylaganda (Nabijon Ermatov) 21
Bulbul arsh tomon uchdi (Nuriddin Aminjon) 22
O‘zbekiston radiosining oltin fondiga yozib olingan asarlar ro‘yxati 23
E’zozga loyiq...*(Soibjon Begmatov)* 28

Kommuna Ismoilova shogirdlar nigohida

Mehri Bekjonova. O‘zbekiston xalq artisti 32
Hasan Rajabiy. O‘zbekiston xalq hofizi 33
Temur Mahmudov. O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi, fahriy professor 36
Olmaxon Xaitova. O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti 37
Z.Suyunova. O‘zbekiston xalq artisti
A.Xoltojiyev. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist 38
Aka-uka Ismoiljon va Isroiljon Vahobovlar. O‘zbekiston xalq hofizlari 39
Xayrullo Lutfullayev. O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti 42
Komila Aminova. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist 43
Matluba Dadaboyeva. O‘zbekiston xalq artisti 44
Rifatilla Qosimov. O‘zbekiston davlat konservatoriyasi professori 44
Mahfuza Karimova. O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
«An’anaviy ijrochilik» kafedrasi katta o‘qituvchisi 46
Ahmadjon Dadayev. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist 48
Maryam Ixtiyorova. O‘zbekiston xalq artisti 49
Nilufar Saidova. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist 50
Davron Axmedov. Shogird 51
Maqsadxon Yunusova. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist 51
Sharofat Tojiboyeva. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist 52
Tojibar Azizova. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist 53
Mavluda Turdiyeva. Shogird 55
Mavluda Yuldasheva. Shogirdi 56
Nigora Arzimurodova. Shogirdi 56
S.Bekjonov. Muqimiy teatri artisti 57
Mamlakat Mamajonova. Shogird xotirlashi 57
Kamola Pardayeva. «Zulfiya» nomidagi davlat mukofoti sorvindori 58

«Tong yellari». *Nabijon Hasanov musiqasi, Anvar Isroil she'ri* 60
«Qiz uzatdik». *G'anijon Toshmatov musiqasi, Gulchehra Jo'rayeva she'ri* 62
«Barno yigit». *Faxriddin Sodiqov musiqasi, Sayda Zunnunova she'ri* 63
«So'lim bahor». *Faxriddin Sodiqov musiqasi, Anvar Isroil she'ri* 65
«Gul». *Mamasiddiq Madaliyev musiqasi, Sobir Abdulla she'ri* 67
«O'ylanma». *Komiljon Otaniyozov musiqasi, Ahmad Bobojon she'ri* 69
«Sayyora». I variant. *Xamza Xakimzoda Niyoziy musiqasi, Furqat musaddasi* 71
«Ey, munis ona». *Salohiddin To'xtasinov musiqasi, Yamin Qurbon she'ri* 73
«Ey, chehrasi tobonim». *Faxriddin Sodiqov musiqasi, Muqimiy g'azali* 75
«Mardga ko'ngil bog'la». *Nabijon Hasanov musiqasi, Yamin Qurbon she'ri* 77
«O'g'lima o'xshaydi ovozing sani». *Komiljon Otaniyozov musiqasi, «Oshiq G'arib» dostonidan* 78
«Bir go'zal bormish». *Faxriddin Sodiqov musiqasi, Mirtemir she'ri* 80
«Noz etma». *Sayfi Jalil musiqasi, Chustiy g'azali* 82
«Yoshlik chog'imda». *Sayfi Jalil musiqasi, Hamid Olimjon she'ri* 83
«Do'ppi tikdim». *Saidjon Kalonov musiqasi, Turob To'la she'ri* 86
«Ushshoq Qashqarchasi». *Nozima g'azali* 87
«Shifokorlar». *Komiljon Jabborov musiqasi, Po'lat Mo'min she'ri* 89
«Qizlar valsi». *Fattoh Nazarov musiqasi, Turob To'la she'ri* 91
«Yoring bo'laman, deydi». *Sobir Safoyev musiqasi, Ahmad Bobojon she'ri* 92
«Hayo». *Hamid Rahimov* musiqasi, *Ma'ruf Qoriyev she'ri* 95
«Dutorim mening». *Xayratdin Turdiqulov musiqasi, H.Niyoz she'ri* 97
«Qalb». *Raxmatjon Tursunov musiqasi, Normurod Narzullayev she'ri* 99
«Sen yor uchun». *Faxriddin Sodiqov musiqasi, Manzura she'ri* 101
«Vatan jilosi». *Muxammadjon Mirzayev musiqasi, Haydar Muhammad she'ri* 103
«Mug'ulchai Buzruk Qashqarchasi». *Atoyi g'azali* 106
«Mug'ulchai Buzruk Soqiynomasi». *Nodira g'azali* 110
«Netay» (Bayot V). *Ogahiy g'azali* 112
«Menga navbat». *Faxriddin Sodiqov musiqasi, Turob To'la she'ri* 113
«Bevafoga». *Nabijon Hasanov musiqasi, Mashrab g'azali* 115
«Kurd». *Xalq musiqasi, Muqimiy g'azali* 117
«Ey, sohibi dil». *Sulton Hayitboyev musiqasi, Turob To'la she'ri* 120
«Bir ishva bilan». *Muxtorjon Murtazoyev musiqasi, Hamza g'azali* 121
«Gul o'g'lon». *Ojiza musiqasi va she'ri* 122
«Durdona gul». *Orif Qosimov musiqasi, To'lqin she'ri* 124
«Senda xayolim». *Hamid Rahimov musiqasi, Turob To'la she'ri* 125
«Davron suraylik». *Hamid Rahimov musiqasi, Bobraxim Mirzayev she'ri* 126
«O'zbekiston diyorim». *Sh.Saloyev musiqasi, Axmad Bobojon she'ri* 127
«Gulnora». *Komiljon Otaniyozov musiqasi, Axmad Bobojon she'ri* 128
«Assalom». *Saidjon Kalonov musiqasi, Axmad Bobojon she'ri* 130
«Qoshing qarosi». *G'anijon Toshmatov musiqasi, Turob To'la she'ri* 132
«Tokay». *Komiljon Jabborov musiqasi, Uvaysiy g'azali* 134

Foydalanilgan adabiyotlar 135

ABDUQAHHOR JALILOV

AN'ANAVIY XONANDALIK

(Kommuna Ismoilova ijrochilik uslubi asosida)

Oliy ta'lim muassasalari uchun
o'quv qo'llanma

Muharrir *N.Aminjon*
Texnik muharrir *M.Toshpo'latov*
Musahhih *H.Yusupova*
Kompyuterda tayyorlovchi *Baxtiyor Ashurov*

12.12.2016-yilda bosishga ruxsat etildi. Bichimi 60□84 $^{1}/_{8}$.
Times garniturasi. Ofset bosma. Shartli b.t. 18,0.
Adadi _____ nusxa.